



HARVARD  
DataVERSE

Volume 1 Issue 6  
October 2023

ISSN: 2992-8877

# Innovation Science and Research

International scientific journal



zenodo



IWORLD  
JOURNALS

[www.sciencejournal.uz](http://www.sciencejournal.uz)

**International Scientific Journal  
INNOVATION  
SCIENCE AND RESEARCH  
Volume 1 Issue 6  
October 2023**



**SCIENCEJOURNAL.UZ**

**International Scientific Journal INNOVATION SCIENCE AND  
RESEARCH.** volume 1 issue 6 – 173p.

The journal publishes the results of research conducted by professors and teachers and independent researchers of the Republic of Uzbekistan and international higher education institutions in the form of scientific articles.

© Innovation Science and Research

© Authors



<b>Editorial</b>	
<b>Editor in chief</b> Juraev Ziyovuddin Mukhiddinovich	<b>Bosh muharrir</b> Jurayev Ziyovuddin Muhibdinovich
<b>Preparing for publishing</b> Abdurakhimova Dilbarxon Abdurakhmonovna	<b>Nashrga tayyorlovchi</b> Abdurakhimova Dilbarxon Abdurakhmonovna
<b>MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD</b>	
<p><b>Juraev Ziyovuddin Mukhiddinovich</b> <i>Doctoral student (DSc) of the department "Study of Islamic Studies and Islamic Civilization ICESCO" of the International Islamic Academy of Uzbekistan, Faculty of Islamic Studies and International Relations</i></p> <p><b>Ismoilova Muhayyo Qozoqboyevna</b> <i>Tashkent State University of Uzbek language and Literature named after Alisher Navoi, candidate of philological Sciences</i></p> <p><b>Artikova Nargiza Shuxratovna</b> <i>Teacher of the Department of theory of Primary Education at Chirchik State Pedagogical University</i></p> <p><b>Koziev Umidjon Yandashalievich</b> <i>Head of the Department of Uzbek linguistics, PhD, Associate Professor member of the editorial board of the scientific journal "Innovation Science and Research"</i></p> <p><b>Dilfuza Jalolova</b> <i>Candidate of Medical Sciences, Associate Professor of Samarkand State Medical University.</i></p> <p><b>Umarova Maxliyo Yunusovna</b> <i>Uzbekistan State University of world languages, candidate of philosophical Sciences, Associate Professor</i></p> <p><b>Arslanov Sharafutdin Sultanovich</b> <i>doctor of chemical sciences, professor</i></p> <p><b>Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna</b> <i>Doctor of philosophy in Pedagogical Sciences</i></p> <p><b>Oripov Orolboy Ahmedovich</b> <i>Navoi State Pedagogical Institute, PhD</i></p> <p><b>Fazliyeva Zebo Kamarbekovna</b> <i>Uzbekistan State Academy of choreography, associate professor</i></p> <p><b>Artikov Askar Akbarovich</b> <i>Doctor of philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor of the Department "theory and methodology of football" of the Uzbek State University of physical education and sports</i></p>	

**Darvishov Ibroxim**

*Associate professor of the Department of Uzbek linguistics member of the editorial board of the scientific journal "Innovation Science and Research"*

**Sevara Nazarova**

*Philosophy Doctor on Agricultural sciences, Associate Professor of the Department of Soil Science of Bukhara State University.*

## DINIY BAG'RIKENGLIK - TINCH-TOTUVLIK OMILI

***Ikromov Xabibullo Boqievich***

*O'zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik litsey o'qituvchisi*

***Jo'rayev Sodiqjon Muhammaddinovich***

*O'zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik litsey psixologi*

***<https://doi.org/10.5281/zenodo.8433563>***

Har yili 16 noyabr – Xalqaro bag'rikenglik kuni sifatida nishonlanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, er yuzidagi ikki yuzga yaqin davlatda **8 milliard** kishini tashkil etadigan, **7000 til va lahjada** gaplashadigan **2000 ga yaqin** har xil millat va elatlar istiqomat qilmoqda, ular **o'n mingdan ortiq dinga** e'tiqod qiladilar. Eng ko'p tarafdorlarga ega bo'lgan;

Xristianlik diniga - 2,38 milliard, islom diniga - 1,91 milliard, xinduilik diniga - 1,16 milliard, buddaviylik diniga - 507 million, va yaxudiylik diniga - 14,6 million odamlar va qolganlari boshqa dinlarga etiqod qiladilar (5).

Shu jumladan, O'zbekistondagi axoli soni 2023 yil 1 yanvar holatiga **36.024.946** kishini tashkil etib, bulardan o'zbeklar - 29,2 million kishi, tojiklar - 1,7 million kishi, qozoqlar - 821,2 ming kishi, qoraqalpoqlar - 752,7 ming kishi, ruslar - 720,3 ming kishi, qirg'izlar - 291,6 ming kishi, turkmanlar - 206,2 ming kishi, tatarlar - 187,3 ming kishi, koreyslar - 174,2 ming kishi, ukrainlar - 67,9 ming kishi, ozarbayjonlar - 41,2 ming kishi, beloruslar - 18,5 ming kishini va boshqa millat vakillari - 426,4 ming kishini tashkil etadi (7).

Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashamoqdalar va rasman ro'yxatdan o'tgan 16 diniy konfessiyaga mansub 2240 ta diniy tashkilotlar faoliyat olib bormoqda, bulardan, 2056 ta islomiy tashkilotlar, 157 ta xristian tashkilotlari, 8 ta yaxudiy, 6 ta baxoiy jamoa, 1 ta krishna jamiyati, 1 ta budda ibodatxonasi va 1 ta bibliya jamiyati ro'yxatga olinib faoliyat olib bormoqda.

Ko'p millatli xalqimizning turmush tarzi yanada yuksalmoqda. Shuningdek, ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ta'lim olishi, o'z qiziqishi va layoqati bo'yicha kasb-hunar egallashi, mehnat qilishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ayni paytda turli millat va elatlarning milliy an'ana va qadriyatlarini asrab-avaylash, ularni yanada rivojlantirish, boyitish masalasi davlatimizning doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda. Umumiyo o'rta ta'lim maktablarimizda etti tilda-o'zbek, qoraqalpoq, rus, qirg'iz, turkman. qozoq va tojik tillarida bilim berilayotgani, shuningdek, ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda istiqomat qilayotgan millatlarning o'nta tilida faoliyat olib borayotgani buning yorqin ifodasidir. Respublikadagi pravoslav e'tiqodiga amal qiluvchilar uchun "Slovo jizni" gazetasi, "Vostok svo'she" jurnali, shuningdek, ibodat ma'ruzalari va boshqa ma'rifiy nashrlar chop etilyapti. Mamlakatimizda iste'qomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarining o'z ona tilida o'qishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgani, oliy o'quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va maktablarda barcha millat vakillari uchun teng shart-sharoitlar yaratilgani, ko'plab tillarda gazeta va jurnallar chop etilib, teleko'rsatuv va

radioeshittirishlar olib borilayotgani bu boradagi faoliyatning yaqqol dalilidir. Mustaqillik yillarida respublikamizda yuzlab masjidlar, cherkovlar, sinagoga va ibodat uylari qurildi va qayta ta'mirdan chiqarildi. Ular qatorida Toshkentdagi "Hazrati Imom" majmui, viloyat markazlaridagi jome' masjidlar, Toshkentdagi Rus pravoslav cherkovlari, shuningdek, buddaviylik ibodatxonasi, Samarqanddagi Arman Apostol cherkovi, Koraqalpog'iston Respublikasidagi "Sultan Vays bobo" va "Muxammad Norimjoniy" ziyoratgohlari, "Panteylemon" cherkovi va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Yurtimizda Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Berdaq, Ajiniyaz haykallari qatorida Ganjaviy, Rustaveli, Pushkin, Shevchenkolarning haykallari ham ko'cha va maydonlarimizga fayz baxsh etib turibdi. Bularning barchasi dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning ko'rinishidir (6).

Shunday ekan, millatlararo bag'rikenglik, ular orasida o'zaro hurmat va do'stona aloqalarni o'rnatish orqaligina dunyoda barqarorlik, osoyishtalikni ta'minlashning asosiy omili bo'lib qolaveradi.

**Bag'rikenglik**— bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda xur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi. Bag'rikenglik turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag'rikenglik tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir.

Bag'rikenglik yon berish, andisha yoki xushomad emas. Bag'rikenglik eng avvalo insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Har qanday vaziyatda ham bag'rikenglik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo'lib xizmat qilmaydi. Bag'rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

Bag'rikenglik inson huquqlarini qaror toptirish, plyuralizm (shu jumladan, madaniy plyuralizm), demokratiya, va huquqning tantanasi uchun ko'maklashish majburiyatidir. Bag'rikenglik aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjalarda o'rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir.

Bag'rikenglikni namoyon qilish inson huquqlariga ehtirom bilan hamohang. U ijtimoiyadolatsizlikka nisbatan sabr-toqatli munosabatda bo'lishni, o'z iymon-e'tiqodidan voz kechish yoxud boshqalarning e'tiqodiga yon berishni anglatmaydi. U shuni anglatadiki, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkendir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog'i lozim. U yana shuni anglatadiki, odamlar o'z tabiatiga ko'ra tashqi ko'rinishi, qiyofasi, o'zini tutishi, nutqi, xulqi va qadriyatlari jihatidan farqlanishi e'tirofga loyiqligi barobarida, ular dunyoda yashashga va o'zlarining ana shu individualligini saqlab qolishga haqlidirlar. U yana shuni anglatadiki, bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas.

**Tolerantlik** - ("diniy bag'rikenglik") to'g'risidagi zamонавиy kontseptsiya tushunchasini shakllantirishda YuNESKOning xizmati katta bo'ldi. Jumladan, 1995 yilda ushbu tashkilot tomonidan qabul qilingan "Tolerantlik tamoyillari dekloratsiyasi"da tolerantlik fuqarolik jamiyatining qadriyati va ijtimoiy normasi, deya ta'riflandi.

O'zbekiston Respublikasining 05.07.2021 yildagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'RQ-699-son qonunida konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va

totuvlikni mustahkamlash, jamiyatda diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta'minlash, fuqarolar ongida ko'p millatli yagona oilaga mansublik tuyg'usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan. (1).

Ma'lumki, so'nggi yillarda ayrim siyosiy kuchlar tomonidan milllatlararo kelishmovchiliklarni keltirib chiqarish, ular orasida adovat uyg'otish orqali davlatlarni bo'lib tashlash, beqarorlikni keltirib chiqarish holatlari uchramoqda. Ushbu kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishda, din omilidan foydalanimayotgani yanada ayanchli oqibatlarni keltirib chiqarishga sabab bo'lmoqda. Samoviy dinlarning manbalariga murojaat qilsak, ularning barchasida insoniyat bir ota va bir onadan tarqalganlik g'oyasini ko'rishimiz mumkin. Xususan, islom ta'limotiga ko'ra, butun bashariyat jinsi, irqi, rangi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, barchasi barobardir. Bu borada Rasululloh (alayhis-salom) o'zlarining muborak bir hadislarida: «Insonlar taroq tishlari kabi tengdirlar. Arabning boshqa xalqlardan, oqning qoradan, erkakning ayoldan ustunligi yo'q. Faqat, taqvoda xolos», deb marhamat qilganlar.

Qur'oni karim «Rum» surasi 22-oyatiga ko'ra, odamlarning tili va rangidagi farqlar Xudoning mo'jizalaridandir. Dunyodagi turli-tumanlik Yaratganning irodasi va hikmati bilan bog'liq. Alloh dastlab odamzotni bir ota va bir onadan yaratdi, so'ngra ularni turli millat va elat hamda xalqlarga ajratishni iroda qildi. Bu borada Qur'oni karimda shunday deyiladi: «Ey, insonlar! Darhaqiqat, Biz sizlarni bir erkak (Odam) va birayol (Havvo)dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishishingiz uchun sizlarni (turli-tuman) xalqlar va qabila (elat)lar qilib qo'ydik» (Hujurot, 13). Bunday rang-baranglikdagi hikmat esa, umumiy farovonlik yo'lida xalqlar bir-birlari bilan musobaqa qilmoqlari, hamjihat va inoq yashamoqlari, hamda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlik qilib o'z yantuqlarini bir-birlari bilan baham ko'rishlarida namoyon bo'ladi.

Dinlarning turli-tumanligi «Agar Rabbingiz xohlasa edi, Er (yuzi)dagi barcha kishilar yoppasiga imon keltirgan bo'lur edilar. Bas, Siz odamlarni mo'min bo'lishlariga majbur qilasizmi?!» (Yunus, 99), deyilgan oyati karima asosida Yaratgan tomonidan o'rnatilgan ekan, uni bekor qilish yoki hammani bir din bayrog'i ostida zo'r lab birlashtirish mumkin emas. Qur'oni karimning boshqa bir oyatida: «(Ey, Muhammad!) Siz o'zingiz suygan kishilarni hidoyat qilaolmaysiz, lekin Alloh o'zixohlagan kishilarni hidoyat qilur. U hidoyat topuvchilarni yaxshi biluvchidir» (Qasas, 56) deb marhamat qilingan. Bundan, islom diniga kiritishda, hattoki, Payg'ambar (alayhis-salom) ham o'zлari istagan kishilarni kirita olmasliklari, balki, bu Alloh taolonning hukmida ekani kelib chiqadi.

Islomda e'tiqod erkinligi aniq qayd qilib qo'yilishi barobarida boshqa diyonatlarning barcha ibodatxonalari himoya va mudofa aqilinishi, dinlardagi ixtilofla riqotillik va adovatga sabab bo'lmasisligi, yaxshilik, silai rahmdan to'smasligi kabi axloq masalalari ham batafsil bayon qilingan.

Bag'rikenglik masalasida payg'ambarimiz Muhammad (alayhissalom) islom ummatigagina emas, butun insoniyatga namuna bo'ldilar. Najrondan Madinaga tashrif buyurgan nasroniyalar jamoasi o'z ibodatlarini bajarib olishlari uchun Rasululloh (alayhis-salom) masjidi nabaviyni ajratib bergenlari tarixdan ma'lum va mashhur. Shuningdek, u zot ahli kitobdan bo'lgan qo'shnilarini bilan yaxshi munosabatda bo'lar, hadya berib, ulardan

ham turli hadyalar qabul qilardilar. Qo'shnichilik odoblari, ularga yaxshilik qilish borasida Rasululloh (alayhis-salom)dan ko'plab hadislar vorid bo'lgan. Jumladan, Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilinadi: «Kim Allohga va oxirat kuniga imon keltirgan bo'lsa, qo'shni siya yaxshilik qilsin». Ulamolar mazkur hadislarni o'rganib chiqib, yaxshilik faqat musulmon qo'shni emas, balki, boshqa din vakiliga ham birdek qilinadi, deydilar. Bu borada quyidagi rivoyat naql qilinadi: Bir kuni sahibiylardan Abdulloh ibn Umar (r.a.) xizmatkoriga bir qo'y so'yishni buyuradilar. Xizmatkor ishga kirishgach unga: «Qo'y ni so'yib bo'lgandan keyin, uni tarqatishni yahudiy qo'shni imizdan boshlagin», deb takror-takror ta'kidlab, so'ng «Rasululloh (alayhis-salom)ning: «Jabroil menga qo'shnichilik haqqi borasida shu darajada ko'p ko'rsatma berdiki, men qo'shni ham meros olsa kerak deb o'ylab qoldim», deganlarini eshitganman dedilar.

Qur'oni karimda bayon qilingan Yusuf (a.s.) qissasida ham o'zga din va madaniyat vakillariga qanday muomala qilish kerakligi go'zal tarzda ifoda etiladi. Unga ko'ra, Yusuf (a.s.) o'zga millat, o'zga xalq, o'zga madaniyat muhitiga tushib qolib, u erda turli sinov, tazyiqlarga uchraydi, hatto zindonband ham qilinadi. Ammo kezi kelganda, ushbu jamiyatdan etgan jabr-sitamlar uchun Yusuf (a.s.) ulardan o'ch olmadilar, balki berilgan iste'dodlarini sarflab ushbu jamiyat ravnaqi, emin rivoji uchun o'zlarini safarbar qildilar. Bu jamiyatning o'zga dinga, e'tiqodga va boshqa madaniyatga mansubligi Yusuf (a.s.)ni ularga xizmat qilishdan aslo to'sgani yo'q. Payg'ambarning bunday ajoyib namunasi barcha odamzot uchun go'zal ibrat bo'lishi lozim. Yoki Qur'oni karimning «Qahf» surasida zikr etilgan Zulqarnaynning boshqa din va madaniyat vakillariga xolis yordam berib hech qanday evazsiz ularning hayotini himoya qilish, joni va molini saqlab qolish maqsadida to'siq qurib berish haqidagi qissa orqali Alloh taolo barcha bandalarini diniy, irqiy, madaniy mansubligidan qat'i nazar o'zaro hamkorlik va hamjihatlikka chorlaydi.

Shu o'rinda, yurtimizdan etishib chiqqan allomalar o'z asarlarida dinlar va millatlararo bag'rikenglikni targ'ib qilib kelganlarini alohida qayd etish lozim. Buyuk olim Imom Moturidiyning Qur'on tafsiriga bag'ishlangan «Ta'vilot ahli sunna» asari «Haj» surasi 40-oyat tafsirida: «Cherkov va sinagogalarni vayron etish man etiladi. Shuning uchun ham, musulmonlar yurtida shu davrgacha ular buzilmay saqlanib qolgan. Bu masalada ilm ahli orasida ixtilof yo'qdir», deb qat'iy ta'kidlaydi. Samarqandlik faqih, mufassir Abu Lays Samarqandiy esa, o'zlarining tafsir kitoblarida «Sizlar bilan urush qilmagan o'zga din vakillari bilan bordi-keldi qiling, ular bilan adolatli muomala qiling», deb yozadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, islom ta'limotiga ko'ra bu dunyodagi barcha inson borki, ular irqi, nasl nasabi, kelib chiqishidan qat'i nazar tengdirlar. Boshqa millat va din vakillari bilan hamjihatlikni chuqurlashtirish uchun musulmonlar ular bilan muloqot qilmoqlari lozim. Qur'on bu dunyonи barcha xalq va din vakillari tinch-totuv yashaydigan zamin deb e'lon qildi. Demak, islom dini azaldan insoniyatga asl muruvvatni, hatto o'zga din vakillariga ehtirom hamda bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishni o'rgatib, ular bilan tinch-totuv yashashga, fitna va turli adovatlarga barham berishga chaqirgan.

Yurtimizda yashovchi turli din vakillariga diniy marosimlarini o'tkazishlari va mamlakat hayotida faol ishtiroklari uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo etilgan. Bu borada mamlakatimiz o'ziga xos boy tajriba orttirganini ta'kidlash kerak. Buni butunjahon e'tirof etmoqda. O'zbekistonga tashrif buyurgan BMT Inson huquqlari bo'yicha Bosh komissari Zayd al-Husaynning quyidagi so'zlari buning yorqin dalilidir: "Bugungi

dinlararo va millatlararo notinchlik bo'lib turgan tahlikali kunlarda O'zbekistondagi mavjud dinlararo va millatlararo totuvlik turli davlatlar uchun o'rnak bo'lishga loyiqdir".

Bunday ahillikning asosiy sababi mamlakatimizda turli din vakillari yagona maqsad yo'lida birlashib harakat qilishlaridir. Bu borada turli tadbirdilar, anjumanlar o'tkazilib, mushtarak vazifalar ado etib boriladi. Bir-birlarimizni bayramlar bilan qutlaymiz. Bu, shubhasiz, mamlakatimizda qaror topgan tinchlik-osoyishtalik muhitida o'z ifodasini topmoqda.

Ta'kidlash lozimki, har bir dinning o'ziga xos aqidalari mavjud. Ular ba'zan bir-biriga mutanosib bo'lsa, ba'zan bir-biriga zid ham kelishi mumkin. Diniy bag'rikenglik ana shu xilma-xillik asosida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini oladi, turli e'tiqodlarning yonma-yon va bir paytda mavjud bo'la olishi uchun xizmat qiladi.

Hukumat qarori (495-som, 25.09.2023 y.) bilan "Diniy bag'rikenglik" ko'krak nishoni to'g'risidagi nizom tasdiqlandi va "Diniy bag'rikenglik" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

Ko'krak nishoni bilan atoqli davlat va jamoat arboblari, diniy-ijtimoiy sohadagi rahbarlar va etuk ulamolar, davlat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlar xodimlari, xalqaro tashkilotlar, diplomatik vakolatxonalarining vakillari, xorijiy arboblar va olimlar taqdirlanadi...

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda millatlararo va davlatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi g'oya va tashabbuslarning paydo bo'layotganligi do'stlik va hamjihatlik qo'rg'onining yanada mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari e'tirof etganidek, "O'zbekistonning boyliklari ko'p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz-jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikdir".

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining 05.07.2021 yildagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'RQ-699-som Qonuni.
2. O'z.R.Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-som Farmoni.
3. "Dunyo dinlari tarixining fan sifatidagi nazariy metodologik asoslari". Islomov zoxidjon Mahmudovich, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi prorektori.
4. Jamoliddin Karimov O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.
5. islam G'uz <https://G'G'islom.uz> maqola
6. Maqola "Diniy bag'rikenglik-millatlararo totuvlikning garovidir". Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vaziri o'rribosari A.Shabatov.
7. O'zbekiston Axoli soni statistikasi-2023 yil.

## IJTIMOIY ISH SOHASINING INSONLAR HAYOTIDAGI O'RNI

*Xushbakov Sho'hratjon Baxtiyor o'g'li*  
*Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo'rg'on filiali 3-kurs talabasi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8433613>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada insonlarning hayoti uchun juda zarur bo'lgan kasb turi, ya'ni ijtimoiy ish sohasi haqida so'z boradi. Uning kelib chiqish tarixi, rivojlanishi bizning jamiyatimizga shu kasb mutaxassislari zarur ekanligi va shu sohaga oid davlatimizdagi so'ngi farmon va qonunlar haqida ham to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Ijtimoiy, jamiyat, inson, davlat, xizmat, mutaxassis, agentlik, kasb, rivoj, xalq, boshqaruv.

**Abstract.** This article talks about a profession that is very necessary for people's lives, that is, the field of social work. The history of its origin, development, the fact that our society needs specialists in this profession, and the latest decrees and laws in our country related to this field have also been discussed.

**Key words.** Social, society, human, state, service, specialist, agency, profession, development, people, management.

Ijtimoiy soha jamiyatning asosiy bogini hisoblanadi. Azal-azaldan bu sohani rivojlantirishga katta e'tibor berishgan. Bu soha ilk marotaba ehson shaklida Pyotr 1 davrida 17-asrda paydo bolgan. Va hozirgacha o'z rivojini topib bormoqda. Har bir inson bor ekan, albatta unda qandaydir muommo bo'ladi. Moddiy, manaviy yoki jismoniy.Ijtimoiy soha mutaxassisi ulardagি muommolarni aniqlab yechim topishga harakat qiladi. Har bir davlat rivojlanishi uchun ijtimoiy sohaga alohida e'tibor qaratadi. Chunki jamiyat barqaror bolishi uchun uni ehtiyojlarini qondirish kerak bu esa bevosita ijtimoiy sohaga bog'liq jarayondir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy soha xodimlarining moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar faoliyatiga qo'shayotgan hissalari yuqori darajaga ko'tarilmoqda. Shuning uchun ham ijtimoiy sohani rivojlantirishga davlatning salmoqli ulushdagi moddiy, mehnat va moliyaviy resurslari sarflanmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohalari xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, san'at va madaniyat, ilm-fan, jismoniy tarbiya va sport, ilmiy izlanishlar, davlat boshqaruvi, mudofaa, maishiy xizmat kabi sohalarni qamrab oladi. Bularsiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur qilish mumkin emas. Chunki bu soha xodimlari mehnatning umumiy yo'nalishi inson va jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy rivojlanishi uchun qaratilgan.

Ijtimoiy soha faoliyatining tarixiga murojaat qilsak, dastlabki davrlarda uning insoniyat taraqqiyotida egallagan ulushi nihoyatda kamligining guvohi bo'lamiz. Hozirda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining o'sishi, aholi ijtimoiy va madaniy əhtiyojining rivojlanishi ijtimoiy mehnat taqsimotida ijtimoiy sohaning yirik tarmoqqa aylanishiga sabab bo'ldi. Ma'lumotlarga qaraganda, bu

mamlakatlarda ishga yaroqli umumiy aholining o'rtacha 70% dan ko'prog'i shu sohalarda faoliyat ko'rsatmoqda.<sup>1</sup>

Tasavvur qiling bir shaxs avto halokat natijasida vaqtinchalik yoki butun umrga nogiron bo'lib qolsa. Unga kim yorda beradi? Shaxs o'zini jamiyat a'zolaridan uzoqda tutishni boshlaydi va unda o'zini xuddiki, hech kimga keraksizday his qiladi. Mana shunaqa holatda ijtimoiy ishchi shu shaxsni jamiyatga qayta moslashishiga yordam beradi. Yoki yana bir misol, muqaddam sudlanga shaxsga jamiyatda o'z o'rnni topishga yordam beradi. Togri bizning davlatimizga bu soha yaqin yillarda kirib keldi. Albatta, ushbu sohani rivojlanishi uchun vaqt kerak bo'ladi. Muhtaram prezidentimiz ha shu sohani rivojlantirish uchun qator yangiliklarni, qonular va qarorlarni e'lon qilmoqdalar.

Shularda biri "Ijtimoiy himoya agentligi"ni tashkil etilishidir.

Prezident huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. U fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlarini ta'minlash va ijtimoiy xizmatlar sifatini tubdan oshirish maqsadida yaratildi.

Agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi. U o'z faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdar shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi.<sup>2</sup>

Hattoki, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yangilangan ozb res konstitutsiyaning 1 moddasiga ijtimoiy davlat atamasiniyam qoshdilar.

(O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.)<sup>3</sup>

Buning sababi ijtimoiy sohani rivojlantirish natijasida davlatimiz tinch osoyishta boladi, eng asosiysi xalqimiz rozi bolishadi.

Tan olishimiz kerak har qadamimiz "Ijtimoiy" atamasi bilan o'rab olingan. Lekin biz ko'p hollarda bunga ahamiyat bermaymiz. "Ijtimoiy fikr", "Ijtimoiy so'rovnama", "Ijtimoiy yordam", "Ijtimoiy muhofaza", "Ijtimoiy xizmat" shularning jumlasidandir. Bu qatorni yana uzoq davom ettirishimiz mumkin. Bu achinarli holat. Nega? Chunki odamlarda qachon ushbu kasbga bo'lgan ishonch paydo bo'lsa. Uning vakolatlaridan qisman bo'ldasa foydalana olsa. Jamiyatimiz naqadar osoyishta va tinch bo'lar edi.

"Ijtimoiy " tushunchasini asl ma'nosi nima? Insonlar aro munosabatga oid, o'zaro aloqadorlik, jamoaviylik. Degan ma'noni anglatadi.

Ba'zi bir insonlar sotsialogiya bilan ijtimoiy ishni bir xil deb tushinishadi. Lekin bu mutlaqo noto'g'ri tushuncha. Chunki, sotsiolog jamiyatdagi muommolarni faqatgina aniqlaydi xolos. Ijtimoiy ishchi esa, aniqlab ularga yechim topishga harakat qiladi. Ya'ni ham aniqlaydi, ham o'rganib chiqadi, ham yechim topadi. Ijtimoiy ish kasbi juda mashaqqatli va murakkab kasbdir. Uning alohida etikasi, tarixi, qadriyatları bor. Har kim ham bu kasbni egallay olmaydi. Odamlar bilan muloqot qilish, ulardagi muommolarga

<sup>1</sup> <https://azkurs.org/ijtimoiy-soha-tushunchasi-va-uning-rivojlanishi>

<sup>2</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/03/social-services-agency>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445169>

yechim topish harkimning ham qo'lidan kela olmaydi. Faqatgina maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslargina shu sohada ishlashlari mumkin.

Inson qadr topgan jamiyatning bugungi va ertangi kuniga ishonch bo'ladi. Odamzodning qadri, erkinlik va qobiliyatlarining har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, kishilarning baxt-saodati, teng huquqliligi adolatli hayotini ta'min etishga intilishini ifodalaydigan g'oya va qarashlar tizimiga insonparvarlik deb qaraladi. Sharq ijtimoiy tafakkurida insonparvarli yoki insonni ulug'lash kabi qarashlar qadimiy ildizga egadir. G'arbda bu tushuncha o'rta asrlarda diniy mutaasiblar tomonidan kishilarning inkvizatsiya qilishga qarshi kurashish fonida vujudga kelgi. Shu sababdan ham sharq ma'naviy yuksalish darajasi g'arb olamiga nisbatan uzoq o'tmishga ega.<sup>4</sup>

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasi.
2. <https://azkurs.org/ijtimoiy-soha-tushunchasi-va-uning-rivojlanishi>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/03/social-services-agency>
4. <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445169>
5. Abbasova Maftuna Subxonovna: Jamiyat ijtimoiy muhitini yangilashga sog'lom ma'naviy raqobatning ta'siri. 73-bet.
6. Jahongir Toshniyozovich Ibragimov - Akademiya Google  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=list\\_works&hl=ru&user=WtrCbdgA\\_AAAJ](https://scholar.google.com/citations?view_op=list_works&hl=ru&user=WtrCbdgA_AAAJ)

---

<sup>4</sup> Abbasova Maftuna Subxonovna: Jamiyat ijtimoiy muhitini yangilashga sog'lom ma'naviy raqobatning ta'siri. 73-bet.

## **GOSPITAL TA'LIMDA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI O'RGATISH METODIKASI ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH**

**Xakimova Nargiza Xasanovna**

*Maktabagcha va mактаб та'лими vazirligi huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'им muassasasi umumiy o'rta ta'limni tashkil etish bo'yicha pedagog xodim (Ona tili adabiyot fani o'qituvchisi)*

**Sattorova Dilrabo Elmurod qizi**

*Maktabagcha va mактаб та'лими vazirligi huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'им muassasasi umumiy o'rta ta'limni tashkil etish bo'yicha pedagog xodim (Ona tili adabiyot fani o'qituvchisi)*

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.10008058>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola gospital ta'limning ona tili darslarini samarali tashkil etish va sifat so'z turkumi mavzusini o'rgatish orqali o'quvchilar nutqini o'stirish xususida fikr yuritadi. O'quvchilarning, eng avvalo, savodxonligini oshirishda to'g'ri o'qish, so'z boyligini oshirish, keng fikrlashga o'rgatish, nutqini, ongini rivojlantirish kabi bir qator xususiyatlarni o'rganishda ona tili darsini to'g'ri tashkil eta bilish haqida qarashlar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Gospital ta'lim, so'z turkumlari, matn, tasniflash, so'z turkumlar soni, taraqqiyot, sifat, nutq, morfologiya, sintaktik, mashq.

XXI asrga kelib mafkuraviy siyosat, qarashlar, dunyoqarash kengaydi va bu mamlakatlar o'rtasida asosiy siyosiy jarayonga aylandi. Ta'lim nazorati va ta'lim sifatiga katta e'tibor qaratildi.

Uzoq muddat davolanadigan o'quvchilarni ta'lim olishi uchun tibbiyot muassasasiga yoki uy ta'limiga jalb qilindi. Maqsad esa hali ham o'sha – o'sha, bemor bolalarni ta'limdan, maktabdan uzoqlashtirmagan holda bilim berishdan iborat. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, gospital maktablarda o'qigan o'quvchilarning 85 foizi o'z qiziqishlari va orzulari haqida so'zlab bergen bo'lsa, maktabga qatnamagan bemor bolalarning 10 tadan faqat 2 tasigina kelajak rejalar haqida so'zlab bergen. Mazkur tadqiqot ham gospital ta'lim va gospital maktabning bemor bolalar hayotida naqadar muhimligini ko'rsatib beradi. O'zbekiston hududida hozirgi kunda yagona bo'lgan "Mehrli maktab" deb nomlangan gospital maktab 2022-yil 16-maydan boshlab o'z faoliyatini olib bormoqda. Ushbu maktab bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi ilmiy markazida davolanayotgan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Umuman olganda, ushbu gospital maktabning devorlari yorqin, kasallikni eslatmaydigan ranglar tanlangan. Maktab atmosferasini bola his qila oladi. Bola bugun qanday dars o'tilishini o'zi tanlashi va shu darsda ko'proq o'zi gapirishi ham muhim hisoblanadi. Darslar 30 minutdan tashkil qilingan. Baholash jarayoni ham mavjud. Maktabga tashrif, albatta shifokor ko'rsatmasi bilan bo'ladi. Shifokor yurishga ruxsat bermagan taqdirda, pedagog zamonaviy texnologiyalari bilan birgalikda bola huzuriga o'zi tashrif buyuradi va muolaja paytida darslar ham o'z vaqtida o'tiladi. Uzoq muddatli davolanish jarayonida bolaning xotirasi bilan bog'liq va avvalgi bilimlari yodidan ko'tarilib qolish holatlari ham uchrab turadi, shunda avvalgi bilimlarini yangi texnologiyalar orqali

ya'ni, qurilmali konstruktorlar, ertak qahramonlari, kompyuterlashtirilgan robototexnika orqali xotiralarini qisman yangilash yoki yangi bilimlar bilan boyitish imkoniyati paydo bo'ladi. Bundan tashqari jamoaviy ishlash orqali esa, yangi do'stlar orttirishlari va fikrlar almashinislari mumkin bo'ladi. Eng asosiysi bolalarda nutqiy rivojlanish va jamiyatga to'laqonli qaytish hissi ustun bo'ladi.

"Gospital ta'limda sifat so'z turkumlarini o'rgatish metodikasi orqali o'quvchilar nutqini o'stirish" gospital ta'limda ona tili fani o'qituvchilar dasturi uchun tuzilgan bo'lib, u ona tili fani o'qituvchilariga ta'limda sifat so'z turkumlarini o'rgatish metodikasi orqali o'quvchilar nutqini o'stirishning mazmun va mohiyatini ochib beradi

Mana shundan kelib chiqib gospital ta'limda o'quvchilarning ham nazariy, ham amaliy muammolardan biri – nutq madaniyati masalalarini tadqiq etishdir. Nutq madaniyati keyingi yillarda tilshunoslikning mustaqil ilmiy yo'nalishi sifatida shakllandi va rivoj topmoqda. Shu bilan birga, bu sohaning ko'pgina muammolari hali o'zining asosli va chuqur tadqiqini topganicha yo'q. Mana shulardan biri o'zbek nutqi madaniyati va odobining tarixiy ildizlarini aniqlash, tadqiq qilish va ilmiy umumlashtirishdir.

So'zlar lug'aviy ma'nolari morfologik belgilari va gapda bajaradigan sintaktik vazifalariga ko'ra o'zaro farqlanuvchi turli guruhlari tashkil etadi. So'zlarning lug'aviy va grammatik jihatdan farqlanishiga ko'ra bunday guruhlarga bo'linishi so'z turkumlari deyiladi. Shunga ko'ra. so'zlarni turkumlarga ajratishda quyidagi uch muhim belgi asos bo'ladi.

1. So'zlar ifodalaydigan lug'aviy ma'no turkumlarga ajratishdagi muhim belgidir. Masalan, uy, yer, daraxt, kitob, tosh so'zları borliqdagi predmetlarni anglatadi. Ularning nomi ekanligi bilan xarakterlanadi. Bir qator so'zlar shu predmetlarning biror belgisini: rangini, shakl-ko'rinishini, mazasini, hajm-o'lchamini ifodalaydi: oq, ko'k, katta, yumaloq, keng, uzun kabi. Shuningdek, bir qator so'zlar predmetning ish-harakatini anglatса: bordi, yozdi, o'qidi, so'zlar ish-harakat yoki belgining belgisini bildiradi: darrov, sekin, oz, ko'p va boshqalar.

So'z ma'nolaridagi mavjud bu xususiyatlar ulami turkumlarga ajratishdagi asosiy belgidir. Turkumlarga ajratishdagi ikkinchi va uchinchi xususiyat so'zning shu ma'no tomoniga bog'liq ravishda yuzaga keladi. So'z turkumlarini ajratishda morfologik belgi ham muhimdir. Bu xususiyat muayyan so'z turkumlarida maxsus qo'shimchalar tizimi mavjudligini, ularni asosan shu turkumga xoslanganini ko'rsatadi. Masalan, ot turkumi ko'plik, kelishik, egalik, shakllariga ega bo'lganidek, boshqa turkumlardan farqli ravishda ularda kichraytish, erkalash shakllari ham bor. Shunga ko'ra otlar ko'plikda keladi, predmetning kimga, nimaga qarashlilagini bildiradi, turlanadi. Shuningdek, maxsus ot yasovchi qo'shimchalarning mavjudligi, ot turkumi morfologik jihatdan to'la shakllangan turkum ekanligini ko'rsatadi.

Fe'l turkumida morfologik ko'rsatkichlar boshqacha—zamon, may, nisbat, shaxson kabi shakllar fe'lning o'ziga xosligini ta'minlaydi. Fe'llar tuslanadi, shaxs va sonni ifodalaydi. Maxsus fe'l yasovchi qo'shimchalarning mavjudligi bu turkumdagи so'zlarning ham turkumlanishi uchun to'la shakllanganligini ko'rsatsa fe'lning xoslangan shakllarini hosil qiluvchi qo'shimchalar mavjudligi fe'lning sintaktik vazifasini yana ham kengaytiradi.

So'z turkumlariga ajratishdagi belgilardan biri so'zning gapdagi sintaktik vazifasi bilan bog'liq. Masalan, bosh kelishikdagi ot ega vazifasini bajarsa, qaratqich kelishigidagi ot—aniqlovchi, boshqa kelishikdagi otlar to'ldiruvchi va hokazo vazifalarida keladi. Sintaktik jihatdan biror gap bo'lagi vazifasida kelish muayyan so'z turkumi uchun qotib qolgan holat emas.

Chunonchi, sifat gapda aniqlovchi vazifasida keladi. Bu sifatning boshqa sintaktik vazifa bajarmasligini ko'rsatmaydi. Binobarin, sifatlar ham gapda to'ldiruvchi: kattani katta deydilar (Maqol), otlashganda ega: yaxshi yeydi oshini, yomon yeydi boshini(Maqol) vazifalarida qo'llaniladi.

Ko'rindiki, so'z turkumlarining sintaktik vazifalari shu turkumdag'i so'zlarning lug'aviy ma'nosiga mos holda bo'ladi. Xullas, so'z turkumlarini ajratishda shu uch belgigatayniladi. Biroq bu belgilarni barcha so'zlarda bir xil emas. Masalan, ot, fe'l turkumlari uchun bar uchala belgi yetakchi bo'lsa, olmosh va son uchun bu belgilarni o'ta past darajada yoki sifat ravishda sintaktik belgi kuchli bo'lganidek, morfologik belgi u darajada emas.

O'zbek tilida so'z turkumlari 12 ta bo'lib ular quyidagi guruhlarga bo'hnadi:

1. Mustaqil so'zlar.
2. Yordamchi so'zlar.
3. Modal so'zlar.
4. Undov so'zlar.
5. Taqlidiy so'zlar.

So'z turkumlarining barchasi grammatik shaklga ega. biroq lug'aviy, grammatik ma'nosi va vazifasiga ko'ra turlichadir.

**1. So'z turkumlari ma'nno ifodalashiga ko'ra quyidagicha:**

1. *nomlovchi so'zlar: ot, sifat. son, fe'l, ravish.*
2. *ifodalovchi so'zlar: undov, modal so'z, yuklama, taqlidiy so'z.*
3. *ko'rsatuvchi so'zlar: olmosh, bog'lovchi, ko'makchi.*

**2. Morfologik jihatidan o'zgarishiga ko'ra quyidagicha:**

1. *morfologik jihatdan o'zgaradigan so'zlar : ot, sifat, son, olmosh, fe'l.*
2. *morfologik jihatdan o'zgarmaydigan so'zlar: ravish, bog'lovchi, ko'makchi, yuklama.*

**3. Gapda sintaktik vazifa bajarishiga ko'ra quyidagicha:**

1. *sintaktik vazifa bajaradigan so'zlar: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, taqlidiy so'z.*
2. *sintaktik vazifa bajarmaydigan so'zlar: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, undov so'z. Modal so'zlar garchand gap bo'lagi bo'lmasada, gapda kirish, so'z vazifasini bajaradi.*

O'zbek tilida mustaqil so'zlar: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish. Lug'aviy ma'noga ega bo'limgan, so'z va gaplarni o'zaro bog'lash, ularga qo'shimcha ma'nno berish uchun ishlatilib, gapda biror gap bo'lagi vazifasida qo'llanilmaydigan so'zlar yordamchi so'zlar deyiladi. Yordamchi so'zlarga ko'makchi, bog'lovchi, yuklama kiradi Yordamchi so'zlar lug'aviy ma'nno anglatmaydi.Masalan, uchun, ammo, sayin, bilan, va deganda hech narsani tushunmaymiz. Biroq, til tizimida bu so'zlarning ham o'ziga xos o'rni bor.

Binobarin. ular so'z va gaplarni o'zaro munosabatlarini uyushtiradi (ko'makchi), so'z va gaplarni o'zaro bog'laydi (bog'lovchi), so'zlarga, ba'zan gapga qo'shimcha ma'nno

beradi (yuklama). Shunga ko'ra yordamchi so'zlar hani til tizimidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lgan so'zlardir.

Sifatni o'rganish tizimi mavzuni leksik va grammatik tomonidan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni ko'zda tutadi. O'quvchilar sifatga *qanday?*, *qanaqa?* so'rog'ini berib, so'z turkumi sifatida o'rganadi.

Ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi, ularga oldindan ma'lum bo'lgan sifatlarning ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

Sifatni o'rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat predmetning belgisi (rangi, hajmi, shakli va ko'rinishi, maza-ta'mi, xarakter- xususiyati, hidi, vazni, o'rin va paytga munosabati)ni bildiradi. Sifatning leksik ma'nosni uni ot bilan bog'liq holda o'rganishni talab qiladi. Sifatni tushunish uchun boshlang'ich sinfdanoq o'quvchilar e'tibori sifatning otga bog'lanishini aniqlashga qaratiladi. O'quvchilar predmetning belgisini aytadilar, ularda so'roq yordamida gapda so'zlarining bog'lanishini aniqlash ko'nikmasi o'stiriladi, ya'ni ular gapdagisi sifat va otdan tuzilgan so'z birikmasini ajratadilar (atama aytilmaydi). Keyingi sinflarda bu bog'liqlik aniqlashtiriladi. Shunday qilib, sifatning semantik-grammatik xususiyatlari sifat ustida ishlashni leksik va grammatik (morfologik va sintaktik) yo'nalishda olib borishni talab etadi.

Gospital ta'limning ona tili darslarida „Sifat” mavzusi quyidagi izchillikda o'rganiladi: 1) sifat bilan dastlabki tanishtirish; 2) sifat haqida tushuncha berish; 3) shu grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim sifatlarning yozilishini o'zlashtirish va hokazo.

Sifat bilan (atamasiz) dastlabki tanishtirish (birinchi bosqich) sifatning leksik ma'nosni va so'roqlari ustida kuzatish o'tkazishdan boshlanadi. Predmetning belgilari xilmal-xil bo'lib, uni rangi, mazasi, shakli; xil-xususiyatlari tomonidan tavsiflaydi. Shunday ekan, sifat tushunchasini shakllantirish uchun uning ma'nolarini aniqlash talab etiladi. O'qituvchi predmetni yoki uning rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning belgilarini aytadilar va yozadilar.

Sifatning nutqimizdagi, fikrni aniq va tushunarli ifolashdagi o'rnini puxta o'zlashtirishga erishish uchun ma'nodosh va zid ma'noli sifatlar ustida ishlash, o'qish darslarida sifatning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq. Sifatni o'rganish jarayonida so'z yasashga oid mashqlarni muntazam o'tkazib borish o'quvchilarda u yoki bu so'z turkumini yasash uchun so'z yasovchi qo'shimchalardan ongli foydalanish malakasini shakllantiradi. Uchinchi bosqichda sifat haqidagi bilimlarni takomillashtirish, og'zaki va yozma nutqda sifatlardan aniq, o'rinli foydalanish ko'nikmasini o'stirish bilan bog'liq holda -*roq* qo'shimchasi bilan qo'llangan sifatlarni va *ko'm-ko'k*, yam-yashil kabi sifatlarni to'g'ri yozish malakasi shakllantiriladi. Tish mazmuni shu vazifalarni bajarishga qarab belgilanadi va o'quvchilar nutqini o'stirishga qaratiladi.

Nazariy ma'lumotlarga asoslanib: matnda berilgan otlarning belgilarini ifodalaydigan sifatlarni tanlab qo'yish, gapda sifat bog'langan otni (so'z birikmasini aniqlab yozish; otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so'z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Mashq materialini tanlashda -*roq* qo'shimchasi bilan qo'llangan yaxshiroq *aqliroq* kabi, *shuningdek*, *tip-liniq*, *sapsariq* kabi sifatlar ko'proq bo'lishiga e'tibor beriladi. O'quvchilarning mustaqilligi osha borgan sayin mashq topshiriqlari ham asta-sekin murakkablashtira boriladi. Shunday qilib, sifatni o'zlashtirishda uni ot bilan o'zaro holda o'rganishga asoslaniladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi."Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi". Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq,

tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at sostavini, grammatic qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, faktlar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchining fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O'quvchilararning barcha predmetlaridan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni bola o'z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergen javobida) qanday bayon eta olishiga qaratiladi.

Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinci tomondan, nutqning o'sishi fikrni shaklantirishga yordam beradi, takomillashtiradi. O'quvchilar nutqini o'stirishning mashg'ulotning boshqa turlari bilan bog'liqligi.

O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar: ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

O'quvchilar belgi bildirgan so'zlarning nutqimizdagi ahamiyatini anglashlari uchun sifat ko'p uchraydigan matn tanlanib, avval sifatlarini tushirib qoldirib, so'ngra sifatlari bilan o'qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko'rsatiladi. Predmetni aniq tasvirlash uchun uning belgisini bildiradigan so'zlardan foydalanilgani tushuntiriladi. Bu darslarda ko'rgazma vositalar (predmetlar, predmet rasmlari, syujetli rasmlar)dan keng foydalaniladi.

O'quvchilar qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'lgan (predmet belgisini bildirgan) so'zlarni o'zlashtirishlari uchun mashqning quyidagi turlari samarali hisoblanadi:

- 1) so'roq yordamida predmetning belgisini bildirgan so'zlarni tanlash;
- 2) aralash berilgan so'zlardan gap tuzish;
- 3) matndan kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zni va unga bog'langan qanday? va qanaqa? so'rog'iga javob bo'lgan so'zni tanlab (so'z birikmasini topib) aytish va yozish;
- 4) tayanch so'zlar va rasm asosida gap yoki kichik hikoya tuzish. Ikkinci bosqichda asosan ikki vazifa: "sifat" tushunchasini shakllantirish hamda o'quvchilar nutqini yangi sifatlar bilan boyitib borish, fikrni aniq ifodalash uchun mazmunga mos sifatlardan nutqda o'rinni foydalanish ko'nikmasini o'stirish hal qilinadi.

"Sifat" tushunchasini shakllantirish o'quvchilarining "predmet belgisi" degan umumlashtirilgan kategoriyanı o'zlashtirish darajasiga bevosita bog'liq. Shu maqsadda rang, maza, shakl-hajm, xilxususiyat bildiradigan so'zlar guruhanlari va shu so'zlarning xususiyatlari umumlashtiriladi. Sifatning leksik ma'nosi bilan birga uning xarakterli grammatic xususiyatlari ham qayd etiladi.

Sifatlarning xususiyatlarini umumlashtirish asosida o'quvchilar uning so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos ko'rsatkichlarini ajratadilar:

- a) predmet belgisini bildiradi,
- b) qanday? yoki qanaqa? so'rog'iga javob bo'ladi,
- v) gapda otga bog'lanib, shu ot bilan so'z birikmasi hosil qiladi, ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi. Bu sinfda og'zaki va yozma ijodiy ishlar (maktab bog'i yoki

parkka ekskursiya vaqtida kuzatilgan daraxt, qushlar, hayvonlarni tasvirlab kichik hikoya tuzish kabilalar)ga katta o‘rin beriladi.

O‘quvchilarning sifatning leksik ma’nosini haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish va predmetni har tomonlama tasvirlash malakasini o‘stirish uchun:

1) berilgan predmetlarning rangi, mazasi, shakli, xususiyatini ifodalaydigan sifatlar tanlash va yozish: Qanday shaftoli? Shirin, suvli, tuksiz shaftoli. Qanday kitob? Qalin, qizil kitob;

2) berilgan belgilariga qarab qaysi hayvon ekanini aniqlash: Tikanli, kichkina, foydali ... (tipratikan). Ehtiyyotkor, ayyor, yovvoyi ... (tulki);

3) predmetlarning belgisiga qarab topishmoqlarning javobini ayting kabi mashqlardan foydalanish mumkin.

Sifatning nutqimizdagi, fikrni aniq va tushunarli ifolashdagi o‘rnini puxta o‘zlashtirishga erishish uchun ma’nodosh va zid ma’noli sifatlar ustida ishlash, o‘qish darslarida sifatning o‘z va ko‘chma ma’noda ishlatalishini kuzatish maqsadga muvofiq. Sifatni o‘rganish jarayonida so‘z yasashga oid mashqlarni muntazam o‘tkazib borish o‘quvchilarda u yoki bu so‘z turkumini yasash uchun so‘z yasovchi qo‘shimchalardan ongli foydalanish malakasini shakllantiradi.

Nazariy ma’lumotlarga asoslanib: matnda berilgan otlarning belgilarini ifodalaydigan sifatlarni tanlab qo‘yish, gapda sifat bog‘langan otni (so‘z birikmasini) aniqlab yozish; otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so‘z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniadi. Mashq materialini tanlashda -roq qo‘shimchasi bilan qo‘llangan yaxshiroq, aqlliyoq kabi, shuningdek, tip-tiniq, sap-sariq kabi sifatlar ko‘proq bo‘lishiga e’tibor beriladi.

O‘quvchilarning mustaqilligi osha borgan sayin, mashq topshiriqlari ham asta-sekin murakkablashtira boriladi. Shunday qilib, sifatni o‘zlashtirishda uni ot bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishga asoslaniladi.

### **Mashqlar tizimi**

- Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga qanday?, qanaqa? so‘roqlarini bering. Bu so‘zlar qanday ma’no bildirayotganini ayting.

- Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering. Ular qanday ma’noni bildiryapti?

- Qanday? so‘rog‘i yordamida sifatlarni toping.

- Rang, shakl, maza bildirgan sifatlarni narsa va Shaxs bildirgan so‘zlar bilan birikma tarzida yozing.

- Qanday? so‘rog‘iga javob bo‘lgan sifatlarni toping. Ular kimning yoki nimaning belgisini bildirayotganini ayting.

- Sifatlarga narsa va Shaxs bildirgan so‘zlar orqali so‘roq bering va ularni birikma tarzida yozing.

- Sifatlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birikma tarzida yozing.

- Sifatlarni aniq lab, o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birikma tarzida yozing. Ularning tagiga to‘lqinli chiziq chizing. Ma’no turini qavs ichida ko‘rsating.

- Chiziqchalar o‘rniga sifatning ma’no turlaridan mosini qo‘yib yozing.

- Sifatlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birikma tarzida yozing. Ularning gapdag'i vazifasini ayting.

- Sifatlarga ma’nodosh ( shakldosh, qarama-qarshi) ma’noli sifatlar toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing. Shakldosh so‘zarning turkumini ayting.

- Rasm asosida “Oltin kuz“ mavzusida hikoyacha tuzing. Hikoyangizda sifatlardan foydalaning. Savatchadagi kubiklarning 6 ta yog‘iga 6 xil surat yopishtirilgan. O‘quvchilar guruhlarining nomidan kelib chiqib, suratlarga mos birikmalar hosil qilishadi. Har bir guruhdan bittadan o‘quvchi taklif etiladi. (5 daqiqa)

**“Xususiyat bildiruvchi sifatlar “ guruhi (ot, o‘quvchi, soat, ona, daraxt, ko‘ylak)**

Chopog‘on ot . A’lochi o‘quvchi . Oltin soat. Mehribon ona. Mevali daraxt. Yangi ko‘ylak.

**“Rang-tus bildiruvchi sifatlar” guruhi (olma, qalam, barg, paxta, gul, quyosh)**

Qizil olma. Qora qalam. Yashil barg. Oq paxta. Pushti gul. Qizg‘ish quyosh

**“Maza-ta’m bildiruvchi sifatlar” guruhi (suv, nok, qalampir, olcha, bodring, anor )**

Chuchuk suv. Shirin nok. Achchiq qalampir. Nordon olcha. Sho‘r bodring. Taxir anor

**“Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlar” guruhi (uy, Narvon, yo‘l, bino, bola, ko‘cha)**

Keng uy. Uzun Narvon. Qisqa yo‘l. Baland bino. Kichkina bola. Tor ko‘cha

**“Hid bildiruvchi sifatlar” guruhi (rayhon, botqoq, qo‘ng‘iz, atir, sarimsoq, balchiq)**

Xushbo‘y rayhon. Badbo‘y botqoq. Sassiq qo‘ng‘iz. Xushbo‘y atir. Sassiq sarimsoq. Badbo‘y balchiq

**“Makon-zamon bildiruvchi sifatlar” guruhi (uy, kiyim,yozuv, mevalar, gullar, olma)**

Qishki uy. Yozzgi kiyim. Qadimgi yozuv.. Kuzgi mevalar. Bahorgi gullar. Kechki olma

Xullas, ona tili mashg‘ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgirligini tarbiyalashga xizmat qilmog‘i lozim. Bu ona tili o‘qitishning asosiy maqsadidir.

Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda ona tili fani – o‘zbek tilining fonetikasi, leksikologiyasi va grammatikasi bo‘yicha bu tildan yozma va og‘zaki shakllarda keng va to‘g‘ri foydalanish uchun zarur bo‘lgan ilmiy-amaliy ma’lumotlarni;

- o‘zbek tili imlosi, talaffuzi, yozma nutqida tinish belgilarini ishlatalishning asosiy qoidalarini;

- ona tilining xazinasi bo‘lmish turli xildagi lug‘atlardan keng foydalana olishi;

- o‘z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda turli sharoitlarda bayon eta olish vositalarini;

- bir ma’noni (maqsadni, xabarni) turli shakllarda bera olish yo‘llarini

- ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan ish qog‘ozlarini yuritish ko‘nikmalarini;

- yosh va taraqqiyot darajasiga mos bo‘lgan badiiy, ilmiy, ijtimoiy asarlarni o‘rganib, ular haqidagi fikr – mulohazalarni, shaxsiy munosabatni og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri bayon eta olish madaniyatini;

To’g’ri, ta’lim texnologiyasida o’quv-tarbiya jarayonini metodik ta’minlashga katta imkoniyatlar bor. Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o’qituvchilarning metodik mahoratini oshirish masalasining bir tomoni xolos. Keng ma’noda esa o’quv –

jarayonining yaxlit tarzda, mazmunli amalgal oshirish texnikasi, uning pirovard natijalari samaradorligini belgilovchi omil, o'qituvchi kadrlar mahoratiga, samarali mehnat qilishga yetaklovchi yo'ldir.

Ch.R.Choriyev fikricha, o'qituvchi mahoratiga to'rt yo'l bilan erishiladi:

Birinchidan, ijodkorlik, izlanish, o'z faoliyatini tahlil qilish, qiyoslash, yo'l qo'ygan uslubiy kamchiliklarni tanqidiy baholab, ularni bartaraf etish, o'z ish faoliyatini yanada takomillashtirish ustida tinimsiz ishlash, pirovard natijada o'z faoliyatining mukammal, o'ziga xos shakl va uslubini belgilab olish.

Ikkinchidan, ilg'or hamkasblari ish- tajribalarini qunt bilan o'rganish, o'z sharoiti va imkoniyatidan kelib chiqib, ularni amaliyotga tatbiq etish va takomillashtirib borish.

Uchinchidan, xorijiy pedagogik tajribalarni ijodiy o'rganish.

To'rtinchidan, respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda chop etilayotgan pedagogik texnologiyalar va metodik yangiliklarni uzlusiz tarzda kuzatib borish. Hozirgi zamon ta'limida bu to'rt omilni sidqidildan bajarmay turib o'qituvchi o'z faoliyatida arzigulik yutuqlarga erishmog'i amri mahol. Shu boisdan ham keyingi yillarda vazirlik tomonidan o'qituvchining ham ilmiy, ham metodik, ham ta'lim texnologiyasi talablarini o'rganib olishlariga yordamlashish maqsadida bir qator amaliy ishlar qilinmoqda.

Bugungi kunda xalq ta'limi vazirligining bevosita mutaxassisligidagi ilmiy-uslubiy jurnal, gazetalar pedagog xodimlarga ilg'or pedagogik texnologiyalar mohiyatini tushuntirish bo'yicha seminar- treninglar o'tkazilmoqda. Bunday seminar-treninglar respublikamizning barcha viloyat va shaharlarida muntazam o'tkazilib kelinmoqda.

Ta'lim mazmunidagi uzlusizlikni ta'minlash ta'limning maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl va uning jarayonlari kabi tarkibiy qismlari orasidagi uzviylikka bog'liq. Chunki, ta'limda har bir fanni o'rganish maqsadi (nima uchun o'qitish kerak?) dan kelib chiquvchi o'quv dasturi va DTS talablariga mos o'quv mazmuni tanlanadi. Ta'lim mazmunini (nimani o'qitish kerak?) o'zlashtirish uchun esa qulay bo'lgan metodlar tanlanadi.

Tanlangan metodlar (kimni va qanday o'qitish yordamida mazmun egallanadi. So'ngra ta'lim uchun tayyorlangan vositalar (ko'rgazmali va texnik vositalar) va ta'lim jarayoni, unga etarli darajada mos ravishda mashg'ulot shakli tanlanadi.

An'anaviy metodikada o'quvchi shaxsi rivojlanishini hisobga olgan holda, uning bilimini ko'nikmaga, undan esa malakagacha rivojlanishini ta'minlovchi mexanizm yaratilmagan. O'qituvchi o'quvchiga asosan axborot beruvchi manba hisoblanadi, ya'ni bilim olishda: axborotlarni to'plash va qayta ishlash: o'rganilgan axborotlarni amalda qo'llash bilishning 3ta bosqichdan iborat modeliga rioya qilavermaydi. Dars jarayonida olingan bilim keyingi pog'onaga, ya'ni faollashuv pog'onasiga ko'tarilmaydi. An'anaviy metodikada yaratilgan juda ko'p tavsiya va nazariyalar shu boisdan ta'limda amalda qo'llanilmaydi yoki qo'llashga noqulay.

Shu boisdan ta'limda yuzakichilikka yo'l qo'yiladi. Ta'lim jarayonida maqsad, mazmun, metod, vosita va shakl orasida ziddiyatlar esa ta'lim samaradorligiga erishishda asosiy to'siq bo'Imoqda.

Xo'sh, ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan maqsadga to'laqonli erishish uchun avvalambor, nimalarni e'tibordan chetda qoldirmasligimiz darkor? Bu savolga javobni izlashda biz

R. Mavlonovaning bu boradagi fikrlarini keltirishni joiz deb bildik: Respublikamizda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish masalasi bo'yicha izlanishda o'qitishning yangi usullari asta - sekin mustahkam o'rin olmoqda. Bunday usullarga muammoli vaziyatni tashkil etish, guruhlar bilan ishlash kabi usularni kiritishimiz mumkin. Lekin, o'qitishning yangi usullari asosan maktabning yuqori sinflarida samarali qo'llanib kelinmoqda. Xo'sh, boshlang'ich ta'limda nimalar bo'layotir?

Boshlang'ich maktab har qanday holda ham o'quvchilarda bilimlarni shakllantirishda va ularning qobiliyatlarini aniqlashda asosiy rol o'ynaydi va undan keyin ham shunday bo'lishi kerak. Ammo, boshlang'ich maktabdagi barcha o'qituvchilar bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun tegishli ishlarni amalgalash oshirayotirmi? Masalan, nima uchun yuqori sinflarda "a'lo" bahoga o'zlashtiradigan bolalar soni kamayib bormoqda? Maktabni bitta yoki ikkita o'quvchi oltin medal bilan bitirishini qanday tushunish kerak? Iste'dodli, qobiliyatli bolalar yo'qmi yoki o'qitish jarayoni shunchalik samarasiz bo'lib qolganmi? Bularning sababi nima? Sababi ko'p: Birinchidan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolalar bilan induvidal ish olib borish imkoniyati cheklangan. Sinflarda bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarga alohida e'tibor berish zarur. Ikkinchidan, mazkur o'qituvchilarning metodik saviyasi etarli emas. Sinfdag'i umumiy ishlarni jarayonida qobiliyatli bolalarning ijodiy imkoniyatlari cheklanib qolmoqda. Ular o'z qobiliyatlarini ko'rsata olmayotir. O'qituvchi kuchi va e'tibori butun sinfga qaratilib, qobiliyatli bolalar ko'zga tashlanmayotir. Umumiy aytganda, xususan bolalarni saralash va o'qitishga boshqacha yondashish bilan ularning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish kerak». Ana'anaviy dars o'tish jarayonida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlar foydalilaniladi. Shu sababli bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayoning passiv ishtirokchisiga aylanib qoladilar. Bolalarda betinim jiddiy dars beraverish, ustma-ust nazariy bilimlar, qoidalar bilan qurollantiraverish ularni o'qishdan bezdirib qo'yadi. Kichik mакtab yoshidagi bolalarida bunday hol ko'p uchraydi.

Buning oldini olish uchun nima qilish kerak? An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda dars jarayoni oqilona tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarining bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rivojlantirilib turilishi, o'quv mavzuni kichik-kichik bo'laklarga bo'lib ularning mazmunini ochishda babs munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollar keltirish, o'quvchilarni amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajarishga undash, har xil baholash usullari va ta'lim vositalaridan joyida va o'z vaqtida foydalinish talab etiladi. TexnologIk yondashuvning eng avvalo yuzakichilikka emas, balki rejalashtirilgan natijani amalgalash oshirish imkonini beruvchi samarali yondashuv ekanligini anglagan o'qituvchilar uni o'z faoliyatlariga tadbiq etmoqdalar. Jumladan, oliy toifali o'qituvchi H.Rahmatullaeva ilg'or pedagogik texnologiyalarning afzalligi haqida shunday deydi: «O'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiq etayotganligim bois o'quvchilarining dars o'zlashtirishi sifati oshib bormoqda. Bolalarda erkin fikrash, o'z fikrini mustaqil bayon etib berish, ko'proq bilishga intilishi ortmoqda, ular xotirasida o'tilgan mavzular ko'proq saqlanib qolishga erishmoqdaman».

Respublikamizda PIRLS tadqiqoti.

PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan mактабда va мактабдан tashqarida ta'lим olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi. Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Bunga misol sifatida, 2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotda o'quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etishni rejalashtirganini aytish o'rinnlidir. Raqamli formatga o'tish bilan birga, internet muhitida boshqariladigan ePIRLS onlayn o'qishni kompyuterda baholash kabi o'zgarishlar ham ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi VM ning 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqtchlarni tashkil etish choratadbirlari to'g'risida" gi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi qoshida "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqtchlarni amalga oshirish Milliy markazi" tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqtchlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasining:"Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni. "Xalq so'zi" gazetasi. 2016-yil 15-sentabr. 132(6826)-son
3. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim.2017, 5-son, 38-bet.
4. Abdullayeva Q. Yangi pedagogik texnologiyalar. Boshlang'ich ta'lim. "O'qituvchi", 1998,4-son, 16-21-betlar.

## **KIMYO FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING O‘RNI**

*Abdurahimova Latofat Sadriddin qizi*

*Namangan viloyati, Mingbuloq tumani, 9-sloni maktab kimyo fani  
o‘qituvchisi*

***<https://doi.org/10.5281/zenodo.10048216>***

**Annotation:** this article reflects information on the role of innovative technologies in teaching chemistry.

**Keywords:** collaborative learning, keys, presentation, expert observation, role-playing and business Games, Discussion, Interview, creative work.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kimyo fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni borasida ma’lumotlar o‘z aksini topadi.

**Kalit so‘zlar:** Hamkorlikda o‘rganish, keys, taqdimot, ekspert kuzatishi, rolli hamda ishbilarmonlik o‘yinlari, munozara, intervyyu, ijodiy ish.

Bugungi kunda ta`lim muassasalarining o`quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e`tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

O`quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to`g`ri joriy etilishi o`qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o`qituvchidan ko`proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o`quv-tarbiya jarayonida qo`llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o`quvchini kim o`qitayotganligi va o`qituvchi kimni o`qitayotganiga bog`liq.

Hozirgi davrda sodir bo`layotgan innovation jarayonlarda ta`lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o`zlashtirish va o`zlashtirgan bilimlarini o`zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta`lim muassasalarining o`quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o`qitish uslublari interfaol uslublar, innovation texnologiyalarning o`rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta`limda qo`llanishiga oid bilimlar, tajriba o`quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo`lishlarini ta`minlaydi.

Kimyoni o‘qitishda o‘quvchilarning bilim saviyasi, o`zlashtirish qobiliyati, ta`lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda metod tanlash, ta`lim jarayonini innovatsion texnologiyalar yordamida takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Sinf har xil qobiliyat va xarakterga ega bo`lgan o`quvchilarni birlashtiradigan dinamik muhitdir. Shuning uchun samarali o`qituvchi bo`lish o`quvchilarning ehtiyojlarini

qondirish uchun o'qitishning ijodiy va innovatsion strategiyasini amalga oshirishni talab qiladi.

Quyida kimyo fanini o'quvchilarga o'qitishda ba'zi bir strategiyalardan foydalanish mumkin.

1. Vizualizatsiya masalan, interaktiv doskadan fotosuratlar, audiokliplar va videofilmlarni namoyish qilishda foydalanish, shuningdek, o'quvchilarni sinf tajribalari va mahalliy ekskursiyalardan olgan bilimlarini sinash bo'lishi mumkin.

2. Hamkorlikda o'rganish. Kichik guruh yoki butun sinf faoliyatini targ'ib qilish orqali aralash qobiliyatli o'quvchilarni birgalikda ishlashga undash. O'z fikrlarini og'zaki ifoda etish va boshqalarga javob berish orqali o'quvchilar o'zlariga bo'lgan ishonchni rivojlantiradi, shuningdek, hayot davomida muhim bo'lgan muloqot va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi. Matematik jumboqlarni yechish, ilmiy tajribalar o'tkazish va qisqa dramatik esklizlarni ijro etish - bu kooperativ ta'limni sinf darslariga qanday kiritish mumkinligiga bir nechta misol.

3. So'rovga asoslangan ko'rsatma. O'quvchilarni o'zlari haqida o'yashga va mustaqil ravishda mustaqil o'rganishga undaydigan o'ylantiruvchi savollar berish. O'quvchilarni savollar berish va o'z g'oyalarini o'rganishga undash ularning muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirishga hamda akademik tushunchalarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Ikkalasi ham muhim hayotiy ko'nikmalardir.

4. Differentsiatsiya. Hech kim qolib ketmasligi uchun o'quvchilarning qobiliyatiga qarab vazifalar ajratish orqali o'qitishni farqlash.

Bugungi kunda kimyoni o'qitishda zamonaviy ta'limda eng ko'p qo'llaniladigan interfaol metodlardan - Assesment, SWOT-tahlil, Keys-stady kabi metodlardan foydalanish yaxshi samara bermoqda. —Assesment metodi Assesment inglizcha —assessment so'zidan olingan bo'lib, baho, baholash ma'nolarini bildiradi. Assesment metodi talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami bo'lib, u biografik anketa, ta'lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o'quv individual topshirig'i, bahs- munozara, intervyu, ijodiy ish, test, individul keys, taqdimot, ekspert kuzatishi, rolli hamda ishbilarmonlik o'ynlari kabilardan tashkil topadi. Bu metod asosan quyidagi uch maqsadga xizmat qiladi: -o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama, xolis baholash; -o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash; -o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan istiqbol reja (maqsadli dastur)ni shakllantirish.

Assesment metodi bo'yicha muammoli vaziyat. O'tilgan mavzu asosida aniq hayotiy vaziyat, hodisaga asoslangan muammo beriladi.

SWOT-tahlil metodining maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. S-(strength)-kuchli tomonlari W- (weakness)-zaif, kuchsiz tomonlari O-(opportunity)- imkoniyatlari T-(threat)- to'siqlar va tahdidlar.

KEYS-STUDY texnologiyasi Keys-stadi inglizcha case –aniq vaziyat, hodisa, studyo'rganmoq, tahlil qilmoq, ta'lim so'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, aniq

vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lif metodidir. Mazkur metod muammoli ta'lif metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi Innovatsion texnologiyalar hamda zamonaviy uslublar ta'limning sifat va samaradorligini oshirib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur innovatsiyalarning samaradorligi ko'p jihatdan ta'lif muassasasida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyatni to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liqdir.

Kimyoni o'qitishda eng ko'p tarqalgan va xususiyatga ega bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar quyidagilar hisoblanadi: suhbat, bahs, o'yin, keys-stadi, loyihalari usuli, muammoli usul, aqliy hujum va boshqalar hisoblanadi.

Bahs (munozara) - aniq muammo bo'yicha fikr almashish, muhokama shaklidagi ta'lif berishning faol usuli. Munozara usuli hamma vazifalarni bajaradi yangi bilimlarni shakllantirishda;

o'quvchilar u yoki bu savollarni chuqur o'ylab ko'rish, ularning mohiyatiga kirishni ta'minlashda;

o'quvchilarni dalil va dalillarga asoslangan xulosalar orasidagi farqni tushunib yetishga o'rgatishda;

o'zaro fikr almashinuv ko'nikmalarni shakllantirishda;

o'quvchilarga shaxsiy fikrida mustahkam turish va uni himoya qilishiga yordam berish. Bu usuldan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

Munozara erkin bo'ladi, qachonki, u erkin rivojlansa, boshqaruvchan bo'lishi mumkin. U faqat o'zlashtirish lozim bo'lgan mavzu va savollarga taalluqli bo'lishi kerak.

Insert – samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi. Avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo'yilish muoljasini. Shundan so'ng matnda uchraydigan, har turdag'i axborotlarning belgilanishi.

**Insert** - matn bilan ishlash jarayonida ta'lif oluvchiga o'zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta'minlovchi kuchli asbob. Insert - o'zlashtirishning majmuali vazifalarini yechish va o'quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishslashning o'quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o'qitish usulidir.

**"Aqliy hujum"** – "breystorming" (brain storming) inglizcha so'zdan olingan bo'lib, faol ta'limning, boshqaruvning va tadqiqotning metodlaridan biri hisoblanadi. Bu metod aqliy faollikni qo'zg'atadi, ijodiy va innovatsion jarayonlarni tezlashtiradi.

**Pinbord** (inglizchadan: pin- mahkamlash, board – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat.

Ta'limiyl o'yin Ishbilarmon va rol (holat)li o'yinlar muammoli topshiriqning bir turi. Faqat bunday holatda matnli material o'rniga, o'quvchilar tomonidan o'ynaladigan sahnalashtirilgan hayotiy holatlar ishlataladi.

Kimyoni o'qitishda zamonaviy ta'lif texnologiyalaridan juda ko'plaridan samarali foydalanilmoqda. Ulardan ba'zilarining tavsifi va kimyoni o'qitishda qo'llanilishi bilan tanishamiz.

**Blits-so'rov** metodi so'rovda ishtirok etuvchilar o'rtasida psixologik kommunikativ aloqani o'rnatadi. Savollar so'rovchi tomonidan oldindan tuziladi. Savollar qisqa aniq javobni talab etadi. Bu metodda o'quvchilarga o'rganilgan butun mavzu va uning ma'lum qismining asosiy tushunchalari va tayanch iboralari bo'yicha tuzilgan savollarga javob (og'zaki, yozma, jadval, diagramma) ko'rinishida taklif etiladi.

**Adabiyotlar:**

1. Rahmatullaev N.G', Omonov H.T., Mirkomilov Sh.M. Kimyo o'qitish metodikasi. Universitetlar va pedagogika oliy o'quv yurtlarining "Kimyo" mutaxassisliklari uchun darslik. -Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2013. -361 b.
2. Omonov H.T. Kimyogarlik kasbi: yutuq va muammolar.// "Kasb ta'limi": muammolar va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari.-Toshkent: oshkent Moliya instituti, 2011. - 56-57 b.
3. Sh.R.Sharipov, G'.N.Sharifov, F.Turdikulova, B.Raxmanov Kimyo fanini o'qituvchisining kreativlik qobiliyatini shakllantrish metodlari. Zamonaviy kimyoning dolzarb muommalari mavzusida Respublika anjumani materiallar to'plami. Buxora, 2020. 216-219.

## ADVANTAGES OF USING GREEN ENERGY

*Abduvaliyeva Nasiba Sherali kizi  
Zarbdar district of Jizzakh region*

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.10049474>**

**Annotation.** This thesis highlighted the advantages of using green energy today.

**Keywords.** Green energy, renewable energy sources, "Green Economy", "Masdar".

The increase in human population on earth is increasing the demand for energy. Since the 2nd half of the 20th century, the need for electricity has been greatly increased. It affects management activities in order to reduce the consumption of fuel energy resources while maintaining the production volume in the method of energy saving management. The increase in energy consumption, the decrease and increase in the cost of energy resources, the increase in dependence on imports, the pollution of the environment create the need to achieve energy efficiency, increase the efficiency of the use of traditional energy resources, and solve the problems of developing renewable energy sources. These factors have motivated the rapid development of energy industry. The development of science and technology, the development of new methods of energy production and its transformation, the creation of new efficient equipment and technologies, the centralization of energy distribution, i.e., measures to ensure that there are no interruptions in the supply of energy sources to the population in the regions, and their correct distribution - events are being implemented.

In order to increase the energy capacity in the economy, the share of renewable energy sources should be developed rapidly. It is necessary to make systematic use of renewable energy sources, including agriculture, housing and communal areas, and solar, water, and wind energy, using the natural climatic conditions wisely. Because these resources are inexhaustible and getting the energy source is relatively cheap. If we expand our use of these renewable energy sources in the near future, the damage to the atmosphere will also be reduced somewhat.

The use of green energy sources, first of all, brings great benefits for the economy and the environment. Green energy appears to be part of the world's future, and clean energy alternatives to many of today's energy sources are being explored and implemented.

These easily replenished energy sources are not only beneficial for the environment, but also create jobs, improve the living conditions of the population, and increase their sources of income. As long as the development continues, it will be beneficial for the economic development of the country. By developing a variety of green energy solutions, we can all create a completely sustainable future for energy supply without harming the world we live in. Green energy projects have been worked on for decades and experience has been gained. For example, nowadays there is a transition from the traditional method to the non-traditional "Green Economy". That is, instead of Hydroelectric Power Stations (GES), Thermal Power Stations (IES), non-traditional sources such as solar panels, wind, water (as a result of rising sea levels) will be used. wishing Solar energy is the cleanest and most reliable source of energy for mankind today. The use of solar energy is increasing year by year. Because solar energy is an inexhaustible and environmentally friendly resource. In cooperation with the UAE company "Masdar", the construction of the first wind power plant has started in the city of Zarafshan, Navoi region. It is planned that 1.5 million households will be provided with a sufficient source of electricity through this station. In particular, in this regard, in cooperation with the "Masdar" company, work is being carried out on large-scale projects in Uzbekistan. Humanity will continue to multiply as long as it lives, and its needs for sources of electrical energy will also increase more and more. Therefore, in this regard, the use of alternative sources of energy from various sources with a low level of negative impact on the environment requires the use of energy-saving resources, techniques and technologies.

Renewable energy resources currently account for 26% of the world's electricity, but the share is expected to reach 30% by 2024, according to the IEA. The recovery followed a global slowdown in 2019 due to lower technology spending and environmental concerns.

Future renewables are predicted to increase global solar capacity to 600 gigawatts (GW) by 2024, nearly double Japan's total installed electricity capacity. Overall, renewable electricity generation is projected to grow by 1,200 GW by 2024, equal to the total electricity generation of the United States.

Based on the above, we can say that conventional energy resources are non-renewable and limited and are also responsible for climate change. Therefore, Uzbekistan can meet the energy needs of the growing population only through green energy. But green energy technology and its products are very expensive, so people are less interested in them. They can be made accessible to all by investing in technology. With the right combination of

geographic diversity and technological prowess, Uzbekistan can increase its green energy potential, thereby reducing its dependence on fossil fuel energy and handing over a greener Uzbekistan to future generations.

**List of used literature:**

1. Beder S. 2017, "Environmental economics and ecological economics: the contribution of interdisciplinary to understanding, influence and effectiveness", Environmental Conservation, vol. 38, № 2, 140-150 pp.
2. Vahabov A.V., Khajibakiyev Sh.Kh., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T.. Green economy. Textbook. - T.: "Universitet", 2020, 296 pages.

**GOSPITAL TA'LIMNING BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA  
DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH**

***Ismailova Gulnora Karimjanova***

*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi*

*huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi*

*Andijon viloyati filiali umumiy o'rta ta'limni*

*tashkil etish bo'yicha pedagog xodim:*

***<https://doi.org/10.5281/zenodo.10068094>***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada gospital ta'limda matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish xususida so'z boradi va misollar yordamida tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** gospital ta'lim, gospital pedagogika, matematika, didaktik o'yinlar, zamonaviy ta'lim, ko'rgazmalilik, o'yin qoidasi, boshlang'ich ta'lim.

Har tomonlama barkamol insonni shakllantirish bugungi jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi gospital mакtab o'rindiqlarida o'tirgan yosh avlod ertaga bizning qo'limizdan ishimizni oladigan, hayotimizni davom ettirib, o'zidan keyingi avlodga yetgazuvchi vorislarimiz, O'zbekiston buyuk kelajagining egalaridir.

Gospital ta'lim-uzoq muddatli davolanayotgan va sog'lig'i sababli ta'lim muassasasiga bora olmaydigan bolalarni o'qitishni tashkil etish bilan bog'liq pedagogikaning bo'limidir. Gospital pedagogikasi pedagogikaning bir qismi bo'lib, o'z e'tiborini o'quvchilarning alohida toifasiga – uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarga qaratadi.

Pedagogikaning ushbu yo'naliшini amalga oshirish va rivojlantirishning murakkabligi idoralararo mansubligi bilan belgilanadi: ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya- chunki kasalxonada uzoq muddatli davolanayotgan bola birinchi navbatda bemor, ikkinchidan- o'quvchi. Bolani davolash jarayonida tibbiy va pedagogik texnologiyalarni birlashtirish keng qamrovli reabilitatsiyani anglatadi.

Gospital ta'lim o'quvchilarining yuksak ma'naviyatli, barkamol avlod etib tarbiyalash, o'quvchilarga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida ta'lim berish mamlakatimizning ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalaridan biridir.

Komil insonni voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'lim shubhasiz, poydevor vazifasini o'taydi. Gospital ta'limning boshlang'ich sinf darslarida bolaning qalban yuksak, ma'naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariга o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Buning uchun birinchi navbatda, gospital ta'lism o'quvchilarini umumiy holatidan kelib chiqqan holda o'qish, bilim olishga ishtiyoqini o'stirish, ularning ma'naviy dunyosini boyitish zarur.

Boshlang'ich ta'lism davrida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlar alohida o'rinn tutadi. Matematika darslarida didaktik o'yinlaridan foydalanish o'quvchilar zehnini o'stirish, tez hisoblash ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlar jarayonida o'quvchilar o'yin qoidalariga rioya qilishga o'rganadilar, inoqlik hissi, dunyoqarashi shakllanib boradi.

Gospital ta'limdida didaktik o'yinlar o'quvchilarning xususiyatlari ko'ra tashkil etilishi kerak. Bu esa davolanayotgan bolalarning bilim olishga qiziqishini oshiradi, ularga bilim berishni yengillashtiradi, ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib o'quvchilarni toliqtirmaslik imkonini beradi.

Matematika esa o'quvchining aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlagangan maqsadiga erishishi uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomga o'rgatadi va eng muhimi, mulohaza yuritishda, muammolarni hal qilishda innovatsiyalarga chorlaydi hamda tafakkurini kengaytiradi.

Bolalarni matematikani o'rganishga tayyorlashda ishni nimadan boshlash yangicha yechimni taqozo etadi. Matematika "jiddiy" o'rganish uchun bolalarni partaga o'tqizishdan oldin balki ular bilan "matematik o'yin" o'tkazish lozimdir.

Matematik tayyorgarlikda didaktik o'yinlardan foydalaniladi, biroq bu o'yinlar, birinchidan mantiqiy va matematik mazmun bilan boyitilgan bo'lmog'i, ikkinchidan, ular mashg'ulotning o'zida emas, balki undan oldin yoki keyin o'tkazilishi lozim.

Didaktik o'yinlar har xil tashkil etilishi mumkin. Didaktik o'yinlar maqsadga ko'ra to'rt omilni o'z ichiga oladi;

- 1 O'yinning vazifasi
- 2 O'yinning harakati
- 3 O'yinning qoidasi
- 4 O'yinning yakuni

Har bir didaktik o'ynni boshlashdan oldin qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekanligi tushuntiriladi. O'quvchilar uni tushunib, anglab shu asosida harakat qiladi.

Ta'lism jarayonida didaktik o'yinlar o'rnini chuqurroq va aniqroq tasavvur qilish maqsadida biz o'yin, didaktik topshiriq, o'yin topshiriqlari singari tushunchalarning ta'rifiga va ularning ma'nosini ochib berishga to'xtalib o'tishimiz zarur.

**Ta'lism** – o'qituvchining bolalarga bilim, ko'nikma va malakalar berishining, bu bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilar uqib olishi, egallab olishi va ularni mustahkamlab olishining amaliy jarayonidir.

**Ta'lism jarayoni** – bolalarga xotirasining boyishi, ularning nutq va tafakkurining o'sishi, turli xil metod va usullar yordamida sodir bo'ladigan jarayondir.

**O'yin** – bolalar ongiga singib ketgan faoliyatdir, ularning bu faoliyati, o'yin turlariga qarab, obyektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi. O'yin sinfida o'tilgan o'quv faoliyatining ma'lum darajada davomi va mustahkamlanishidir. Tajribada shu narsa isbotlanganki, o'yin kichik yoshdag'i o'quvchilarning zarur ehtiyojidir.

**Didaktik o'yin** – ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuviga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan maqsad, masalan biror harakatni, biror hisoblash usulini, yani ma'lum didaktik topshiriqni mustahkamlash vazifa qilib olinadi.

Didaktik topshiriq darsga qo'yiladigan umumiylar maqsadning bir qismini tashkil qiladi.

Har bir didaktik o'yining ham har qanday o'yindagi singari o'z qoidalari bor, o'yin qoidalari amal qilinmasa, o'yining o'yin sifatidagi ahamiyati, binobarin, o'yining ta'lim-tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi. O'yin qoidalari o'yin topshirig'iga kiritiladi. O'yin topshirig'i- o'yin qanday o'ynalishini, kim g'olib chiqqanligini hisoblanishini va hokazolarni tushuntirish tarzida beradigan topshirig'idir.

**Didaktik material:**

- suratlar, jadvallar, ko'rgazmalar, sanoq jadvallari, o'yinchoqlar, cho'tlar;
- har bir bolaga beriladigan sanoq materiali;
- geometrik shakllar, sanoq cho'plar, qo'lida yasalgan buyumlar(qog'oz qayiqcha va shapkacha);
- geometrik shakllar chizilgan jadvallar, kartondan yasalgan shakllar, jadval va chizmalar solingan konvertlar;
- sanoq materiallari solingan yashiklar;
- geometrik shakllar qo'yilgan burchak va hokazo.

### **O'yinlar nomi**

"Jimjitlik", "Biz kamayib qoldik", "Shunchaki ajratib qo'y!", "Nechta ekanligini top", "Sanayver", "Hisoblashdi davom ettir".

Masalan, "Do'stingni tanla va masalani yech" didaktik o'yini.

Barcha o'quvchilarga kartochkalar beriladi. Kartochkalarda masala yozilgan. Lekin nimani topish kerakligi yozilmasdan boshqa kartochkaga yozilgan. Bola qo'shnisini ya'ni masala shartning davomini topishi kerak va masalani 2 kishi bo'lib hamkorlikda ishlab o'qituvchiga topshirishlari lozim.

### **"Quyosh" didaktik o'yini.**

Oddiy kasrlar ustida arifmetik amallar mavzusida o'ynash mumkin. Masalan guruhlar soniga mos gullar doskaga o'rnatiladi. Gulning bargida yozilgan son va uning yaproqlarida yozilgan sonlar ustida amallarni bajarish kerak. Har chizmada tezroq javobni olgan guruh g'olib bo'ladi.

Didaktik o'yinlar o'qituvchi bilan davolanayotgan o'quvchining faol munosabati, bir birini to'liq tushunishlariga asoslanadi. Didaktik o'yinlarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi-dars qaysi shaklda bo'lmasin, qayerda o'tkazilmasin darsda o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikda ishlashni tashkil etish shu bilan birga sust o'zlashtiruvchi o'quvchilarni darsga qiziqtirishdir. Gospital ta'lim jarayonida o'quvchilar xotirasini boyishi, ularning nutq va tafakkurini oshishi turli metod va usullar yordamida boyisa, didaktik o'yinlarda o'quvchilarning ongi, qalbiga singib, ularning bu faoliyatini, o'yin turlariga qarab, hayotning muayyan darajada o'zida aks ettiradi.

O'yinlar kuzatuvni, o'xshashlik va farqlarni aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi, fikrlashni, e'tiborni va tasavvurni yaxshilaydi. Bundan tashqari, o'yin faoliyatini tashkil etish, nisbatan murakkab bir mavzu sifatida matematikaga qiziqishni rivojlantirishning juda samarali usuli hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. "Pedagogik texnologiya asoslari" J.G'. Yoldoshev ,S.A. Usmonov. Toshkent-2004-y
2. N.U.Bikboyeva, E.Ya. Yangiboyeva va boshqalar, "Boshlang'ich siniflarda matematika o'qitish metodikasi", T.. "O'qituvchi" 2005;
3. "Xalq ta'limi" jurnalı.
4. "Ma'rifat " gazetasi
5. Xalbayev Nurbek Oybek o'g'li- 2002 y."Matematika darslarida didaktik o'yinlar."
6. "Gospital ta'limning boshlang'ich sinf darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish" D.Tursunova -2023-yil.
7. "Matamatika o'qitish metodikasi" Jumayev

## XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA TA'LIM TIZIMINI TASHKIL ETISH

***Husanova Malohat Yo'ldoshevna***

*Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, 3-umumi o'rta ta'lismaktabining  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

***<https://doi.org/10.5281/zenodo.10060040>***

***Abstract:*** This article provides information on the organization of education in schools based on foreign experience and changes in the education system of our republic.

***Key words:*** Education, symbol of school success and well-being, non-state educational institutions, extensive and intensive path, natural knowledge, vocational education.

***Аннотация:*** В данной статье представлена информация по организации обучения в школах на основе зарубежного опыта и изменений в системе образования нашей республики.

***Ключевые слова:*** Образование, символ школьного успеха и благополучия, негосударственные образовательные учреждения, экстенсивный и интенсивный путь, естественные знания, профессиональное образование.

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada xorij tajribasi asosida maktablarda ta'lismi tashkil etish va respublikamiz ta'lim tizimidagi o'zgarishlar borasida ma'lumotlar keltirilgan.

***Kalit so'zlar:*** Ta'lim, maktab muvaffaqiyati va farovonlik timsoli, nodavlat ta'lim muassasalari, ekstensiv va intensiv yo'l, tabiiy bilimlar, hunar ta'limi.

Bugun globallashuv jarayonlari shiddatli rivojlanib borayotgan davrda barcha jabhalarda bo'lgani kabi yoshlar siyosatini amalga oshirish, ular bilan ishlashsohasida ham yangicha qarashlar, munosabatlar tizimini ishlab chiqish hamda xorijiy davlatlarning ilg'or texnologiyalaridan foydalanish taqozo etilmoqda. Zero, ushbu tajribalarni tahlil qilish, ulardan mamlakatimiz amaliyotida unumli foydalanish yo'llarini o'rganish orqali ijobjiy natijalarga erishish mumkin. Vatanimiz ta'limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o'quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta'lim to'la ma'noda yangicha tafakkur, sog'lom fikr demakdir.

O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishga, xususan, nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etishga katta e'tibor qaratib kelimoqda. Jumladan, statistik ma'lumotlar 2016-yilda O'zbekistonda 24 ta nodavlat ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2018-yilga kelib ularning soni 84 tadan oshganidan darak bermoqda.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta`limning mamlakat ishki siyosatiga faol ta`sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e`tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta`minlashga ajratilayotgan mablag` miqdori yildan yilga - oshib bormoqda. Yaponlarda masalan, «maktab muvaffaqiyati va farovonlik timsoli» gina bo`lib qolmay, «u insonlarni yaxshilaydi», degan fikr ishonch va e`tiqodga aylangan. Ta`lim to`g`risidagi g`amxo'rlik taniqli siyosatchilarining ham hamisha diqqat – e`tiborida bo`lgan. Shuning uchun ham AQSH ning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni, Fransiya Prezidenti F.Mettiranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni «Jamiyatini harakatlantiruvchi kuch» deb hisoblagan. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko`p sonli ilmiy muassalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning ikki mingdan ortiq. Fransiya, AQSH, Yaponiyada ta`lim tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar Universitetlar pedagogik tadqiqot markazlari shug`ullanmoqdalar. Ular faolitini esa xalqaro ta`lim markazlari, masalan, AQSH da xalqaro instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko`pchilikning faoliyati o`quv dasturini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilgan.

Maktab dasturlarini o`zgartirish ikki asosiy yo`nalishda: ekstensiv va intensiv yo`l bilan amalga oshiriladi.

**Birinchi holatda** o`quv muddati uzaytiriladi, o`quv materiallari hajmi ko`paytiriladi; ikkinchi holda esa mutlaqo yangi dastur yaratiladi. Bu o`rinda ikkinchi yo`l, ko`pchilik mutaxassislarining e`tiroficha, maqbul hisoblanadi. 1961 yilda «Bosh yangi bazis» tamoyillari asosida AQSH o`rta maktablarni islohot qilish boshlangan edi. Buning mohiyati shundaki, ingliz tili va adabiyoti (to`rt yil), matematika (to`rt yil), tabiiy bilimlar (uch yil), ijtimoiy fanlar (uch yil), kompyuter texnikasi (yarim yil) kabilardan iborat besh yo`nalishdagi majburiy ta`lim joriy qilindi.

XX asrning 80- yillarda majburiy ta`lim hajmini qisqartirish jarayoni yanada chuqurlashtirildi. Hatto ayrim kollejlarda bu sohada uch yangi: ingliz tili va adabiyoti, matematika, ijtimoiy bilimlar bazislari asosida ish olib borilmoqda. Ta`limning boshqa turlari esa ihtisoslashtirish davrigacha amalga oshiriladigan bo`ldi. Amerikadagi ko`zga ko`ringan «Found Karnegi» pedagogik markazi bu dasturni XXI asr dasturi deb baholamoqda. O`quv dasturlarini qayta qurish jarayoni G`arbiy Yevropa davlatlarida ham amalga oshirilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada ta`lim vazirligining tavsiyalariga muvofiq o`quv rejasi va dasturini ta`lim muassasalarining o`zları belgilaydilar mazkur tavsiyalarga muvofiq 50 foiz o`quv soatlari o`qitilishi shart bo`lgan «yadro» predmetlar: ingliz tili adabiyoti matematika, din darsi jismoniy tarbiyaga ajratiladi. O`quv soatlarining boshqa qismi esa o`qitilish shart hisoblanib, tanlab olingan predmetlarga (gumanitar, tabiiy matematik) ajratiladi.

80-yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSH dagi singari o`rganilishi majburiy bo`lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o`quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo`ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish

o‘quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir. «Yangi dunyo» ning pedagogik g‘oyalari Fransiya va Germaniya ta‘limiga ham sezilarli ta‘sir etayotir. Germaniya to‘liqsiz o‘rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o‘quv dasturlari ham amalga oshirilayotir. Bu o‘quv dasturi tobora to‘liqsiz o‘rta maktab doirasida chiqib, o‘rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushida keyinroq Amerika ta‘limi yo‘lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o‘quv dasturida qator farqlar ko‘zga tashlanadi. Yaponiyada o‘quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va o‘quv fakultativ kurslar kiritilgan.

Germaniya maorifidagi asosiy muammo sobiq GDR dagi ta‘limni bir xil milliy me`yorga solishdan iboratdir. Asosiy vazifa sobiq GDR dagi ta‘lim tuzilmasini yangi me`yorga va o‘lchovga tushirish, oddiy usul bilan GFR dagi ta‘lim tizimiga o‘tkazib o‘qishdan iborat. Ammo, buning ham o‘ziga xos muammolari bor. Birinchidan mablag‘ masalasi bo‘lsa, ikkinchidan sobiq GDR dagi ta‘lim jarayoni qatnashchilarining bu o‘zgarishga munosabatidir. Germaniyada ta‘lim davlat va jamiyat tomonidan ardoqlanayotgan soha bo‘lib, u mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishga barakali hissa qo‘shib kelmoqda.

Majburiy ta‘lim 6 yoshdan 18 yoshgasha bo‘lgan bolalarga tegishli, bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba`zi bir yerdarda 10 yil) maktabda to‘la haftalik o‘qishini bitiradi, keyin hunar texnika bilim yurtlarida to‘la bo‘lmagan haftalik o‘qishida o‘qiydilar. O‘qish davlat maktablarida tekin. Xususiy maktablar ansha kam. Boshlang‘ish maktab. O‘qish 6 yoshdan boshlanadi va 4 yil davom etadi (Berlinda 6 yil). Dastlabki ikki yil o‘qish davomida bolalarga baho qo‘yilmaydi. Boshlang‘ish maktabda 4 yillik o‘qishdan keyin o‘quvshilar yo‘nalish bosqishidagi maktabga o‘tadilar. Bu yerda 5-6 sinf bosqishdagi yo‘nalish maktab tipiga bog‘liq yoki bog‘liq bo‘lmagan holda maxsus dastur asosida o‘qitiladi bunda bolalarning ota-onalari maktab tipini tanlash yoki o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

**Hunar ta‘limi** Germaniya ta‘lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Buning sababi, Germaniyada yuqori malakali ishchilarga bo‘lgan talabning kuchliligidir. To‘liqsiz o‘rta maktabni bitiruvchilarning (9-10-sinflar) 79 foizi, to‘liq o‘rta maktabni bitiruvchilarning esa 20 foizi hunar ta‘limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Germaniya hunar ta‘limi tizimi turli tipdagi o‘quv yurtlari va o‘qitishning turli shakllariga ega. Eng ko‘p tarqalgan va rivojlangan shakli hunar ta‘limining —Dual tizimidir. Bu tizimda tayanch maktablarning 50 foizi va to‘liq o‘rta maktablarning 16 foizi o‘qishni davom ettiradi. Maxsus hunar bilim yurtlari va o‘rta maxsus bilim yurtlariga bu mamlakat tayanch maktablarning 25 foizgacha bitiruvchilari kiradilar. Bu turdag‘ o‘quv yurtlarining bitiruvchilari texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘qishni davom ettirishlari mumkin. Oliy ta‘lim muassasalarining xususiyatlari, cherkov va bundesvegga tegishlilaridan tashqari bo‘lgan oliy o‘quv yurtlari viloyatlar boshqaruvida bo‘ladi. Ularni yerlar bosh rahbari nomidan oliy ta‘lim federatsiyasi boshqaradi. Oliy maktab o‘z-o‘zini boshqarish huquqiga ega. Ular

qonun doirasida o‘z ustavlarini qabul qiladilar Oliy o‘quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylanadigan Prezident boshqaradi. Ko‘pchilik viloyatlarda talabalar mustaqil ravishda o‘z-o‘zini boshqaradilar. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qish diplom olish, magistr unvonini olish yoki davlat imtihonlari topshirish bilan yakunlanadi. Shundan keyin o‘qishni davom ettirib, doktorlik ilmiy darajasini olish uchun imtihon topshiriladi. Ta’lim sohasidagi siyosat aholining ko‘plab qatlami uchun oliy o‘quv yurtlari darvozasini keng oshdi. Federatsiya va viloyatlar nemis oliy o‘quv yurtlarida chet elliklar o‘qishidan manfaatdordir.

Globallashuv jarayonida mamlakatimiz barqaror taraqqiyotini ta’minlashda ilm-fan, yangi texnika-texnologiyalar rivoji muhim rol o‘ynaydi. Quvonarlisi shuki, mamlakatimiz rahbariyati ushbu sohalarga katta e’tibor qaratmoqda.

Jumladan mamlakatimizda maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylandi. Inson kapitaliga sarmoya kiritish, ta’limni isloh qilish, maktab infratuzilmasini takomillashtirish, o‘qituvchilik kasbining mavqeini va ta’lim sifatini oshirish, farzandlarimizni har jihatdan etuk, intellektual salohiyatlari, ertangi kunimiz suyanchi va tayanchi bo’la oladigan insonlar sifatida kamol toptirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Buning ifodasini sohada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, rivojlangan davlatlar tajribasi keng qo’llanayotgani, ta’lim-tarbiya jarayoni innovatsion yondashuvlar asosida olib borilayotgani, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mul`timedia vositalaridan oqilona foydalanilayotgani, xalqaro miqyosda ham ta’lim va tajriba almashuv jarayoni izchil rivojlanib borayotgani kabi istiqbolli odimlarda yaqqol ko’rish mumkin.

Yurt iqtisodiyotining barqarorligi, barcha sohalarda rivojlangan davlatlar bilan raqobatlasha olishi ham mehnat bozoridagi kadrlarning salohiyatiga bog’liq. Bunday kadrlar esa, eng avvalo, maktabda shakllanadi. Yaxshi yo’lga qo’yilgan ta’lim tizimi sifatli kadrlarni, sifatli kadrlar esa rivojlangan jamiyatni barpo etadi.

Mamlakatimiz o’z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo’ygan ayni paytda inson kapitaliga sarmoya kiritish, ta’limni isloh qilish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. “Yangi O’zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan g’oya asosida umummilliy ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga katta e’tibor qaratildi. Bu borada O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qator qaror va farmonlari e’lon qilindi.

Respublikamizning barcha hududida Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari tashkil etilib, ularga eng malakali mutaxassislar jalb etildi. Shuningdek, mavjud maktablarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda, barcha hududda zamonaviy o‘quv maskanlari barpo etilmoqda.

Kelgusida ham rivojlangan mamlakatlar tajribalari chuqur o’rganilib, mamlakatimizga xos xususiyatlar, qadriyatlar, sharoitlar inobatga olingan holda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan modernizatsiya qilishimiz lozim. Hozir oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan malaka oshirish, chet el professorlarini O’zbekistonga olib kelib ma’ruza o‘qitish, bakalavr va magistr dasturlarini rivojlangan mamlakatlardagi o‘quv dasturlariga yaqinlashtirish ishlari olib borilmoqda. Ularning darsliklari, o‘quv standartlari

tajriba sifatida qo'llanilmoqda. Bu albatta, yaxshi tashabbus va shu sohadagi ishlarni yanada rivojlantirishimiz lozim.

**Adabiyotlar:**

1. R.B.Raximova “KASB TANLASH MOTIVATSIYASI NAMOYON BO“LISHIDA PSIXOLOGIK OMILLAR” “FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES” Italy dekabr 2022
2. Abdullaev Yu.Xorijiy Oliy ta’lim: tajriba va taraqqiyot yo’nalishlari. T., “O’zbekiston” 2019
3. Davydov, V.V. Ta’limni rivojlantirish muammolari / V.V. Davydov. - M., 2016 yil.
4. A. Ismoilov, D. Norboyeva, K. Kucharova, Z. Qosimova, N. Aminova. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonligini baholash. (o‘quv qo’llanma) – T.: Sharq NMAK, 2019.

## O'QUVCHILARDA IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

*Orifboyeva Dilnoza Sattarovna*

*Namangan viloyati Uychi tumani*

*23- sonli umumiy o'rta ta'lif maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10060183>*

**Abstract:** This article provides information on the effectiveness of forming students' creative abilities.

**Key words:** Personality, talent, knowledge, skill, ability, creative ability, intellect.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning samaradorligi borasida ma'lumotlar keltiriladi.

**Kalit so'z:** Shaxs, iqtidor, bilim, ko'nikma, qobiliyat, ijodiy qobiliyat, intellekt.

### **Introduction**

Hozirgi vaqtda maktabdag'i har bir ta'lif jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni hayotda muvaffaqiyatli shaxs bo'lishga tayyorlashni maqsad qilgan va XXI asr ko'nikmalari bilan ta'minlovchi yangi vazifani bajaradi. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish va bunda foydalilaniladigan metod va vositalar mavzusi ham bundan mustasno emasdir.

Bugungi kunda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar kelajak avlodning ertangi kuni, uning farovonligi yo'lida qo'yilayotgan tamal toshi desak mubolag'a bo'lmaydi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning yoshlar bilan bo'lgan uchrashuvlarida "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda", — deya ta'kidlaganlar.

Aytishimiz mumkinki, bugungi yosh avlodni rivojlanishida iqtidori, qobiliyatlar, imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ularni ta'lif-tarbiya jarayoniga jalb etish, bunda mamlakatimizda qad ko'tarayotgan zamonaviy innovatsion mакtablar faoliyatini kengaytirish, umumta'lif maktab bitiruvchilarini savodxonlik darajasini yanada oshirish masalalari davlatimiz siyosati oldidagi muhim vazifalarga aylanib bormoqda.

Iqtidorli bolalar-yurt kelajagi! Zero, shunday ekan bolalardagi iqtidor, qobiliyat, salohiyatini rivojlantirishda bevosita ta'lif muassasasi, pedagog va oila hamkorligining ahamiyati katta.

Pedagogik va psixologik manbalarda qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, qobiliyat insonning psixologik hususiyati bo'lib, bilim, ko'nikma, malakalarini egallash bevosita mana shu xususiyatlarga bog'liq hisoblanadi.

Qobiliyatli shaxsning ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallahsgan bo'ladi. Bevosita qobiliyat-ko'nikma va malakalarning paydo bo'lishi jarayonida shakllanadi. Hamma maxsus qobiliyatlarni, inson faoliyatining asosiy turlarini uchga: fan, san'at, amaliyotga ajratish mumkin. Shunga binoan qobiliyatni milliy, badiiy va amaliy deb

klassifikasiyalash mumkin. Bu turlarning har biri o'z navbatida yana ma'lum turlarga bo'linishini ko'rish mumkin. Bulardan

- Ilmiy qobiliyat  Badiiy qobiliyat
- Amaliy qobiliyat
- Nazariy va amaliy qobiliyatlar  O'quv qobiliyatları
- Ijodiy qibiliyatlar

Amerikalik tadqiqotchi J. Gildford iste'dod nazariyasiga katta hissa qo'shgan olimlardandir. Olim divergent fikrlashning tarkibiy qismlarini (tezlik, o'ziga xoslik, moslashuvchanlik, anqlik) ishlab chiqgan va ularning barchasi iqtidorli maktab o'quvchilarini rivojlantirish, o'qish va o'qitish sohasida amaliy faoliyatga yangi o'zgartirishlar kiritishga imkon bergenini ta'kidlab o'tish joiz.

Taniqli amerikalik olim P. Torrents o'z shogirdlarini kuzatib, yaxshi o'qiydigan bolalar va yuqori darajadagi IQga ega bo'lgan bolalar ijodiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonmaydi degan xulosaga kelishdi . Aniqroq aytganda, bu shartlar mavjud bo'lishi mumkin, ammo ular yagona shart emas deydi, hamda o'zi ishlab chiqqan iqtidor kontseptsiyada uchlik mavjudligi ta'kidlaydi. Ular:

- ijodkorlik
- ijodiy mahorat;
- ijodiy motivatsiya.

Uning tushunishicha, ijodkorlik - bu shaxsning to'liq bo'lмаган yoki noaniq bo'lган vaziyatda yuzaga keladigan keskinlikni yengillashtirish uchun kuchli ehtiyojidan kelib chiqadigan tabiiy jarayondir. Iqtidorli bolalarni anqliashda u tomonidan yaratilgan o'ziga xos iqtidor kontseptsiyasi asosida yaratilgan iqtidor va ijod uslublari butun dunyoda keng qo'llaniladi.

Shaxsni ijodiy rivojlantirishda tadqiqotchilar turli xil psixologik maktablar va yo'nalishlarning yutuqlariga murojaat qilishi. Bugungi kunda insonning ijodiy salohiyati va ijodiy rivojlanish sur'atini belgilaydigan ko'plab ichki va tashqi omillar allaqachon ma'lum. Avvalo, bularga shaxsning individual tipologik hususiyatlari, ayniqsa intellekt va boshqa yuqori aqliy funktsiyalar, shuningdek, bir qator aqliy operatsiyalarning shakllanish darajasi kiradi. Barcha intellektual qobiliyatlar qaysidir darajada ijodiydir, lekin birinchi navbatda bu fikrlash qobiliyatining ajralib chiqishi deya ta'riflanadi. Aksariyat mualliflar ijodkorlikni baholash mezoni sifatida yuqori mahsuldarlikni ta'kidlashadi. Shunday qilib, biron bir universal texnikani yaratish mumkin bo'lмагани kabi ijodiy rivojlanish darajasini to'la-tokis anqliash mumkin emas, bu ham nisbiylikka asoslanadi. Ushbu ko'p o'lchovli hodisa kompleks yondashuvni talab qiladi.

Qobiliyatlar -samarali faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shart bo'lgan shaxsning individual psixologik hususiyati hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida qobiliyat tushunchalari juda katta, ammo eng mashhuri taniqli amerikalik olim J.Renzulli tomonidan ishlab chiqilgan qobiliyat tushunchasi bo'lib, unga ko'ra qobiliyat uch xususiyatning kombinatsiyasi hisoblanadi:

- intellektual qobiliyatlar (o'rtacha darajadan yuqori);
- Ijodkorlik
- qat'iyatlilik (vazifaga yo'naltirilgan motivatsiya).

Ijodiy qobiliyat - bu muammolarni ijodiy hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shadigan shaxsiy hususiyatdir. Ijodiy qobiliyat umumiy va maxsus bo'lishi mumkin.

Ijodkorlikni aniqlashda test sinovlaridan foydalanishadi. Ijodkorlik testi- asosan og'zaki, grafik, raqamli materiallar yordamida harakatlarni amalga oshirishga asoslangan insonning ijodiy qobiliyatini aniqlashning standartlashtirilgan usuli hisoblanadi.

Olimlar tomonidan shaxsning ijodiy rivojlanish darajasini aniqlash uchun diagnostika usullaridan foydalanishning quyidagi ketma-ketligini taklif etiladi:

1. Kuzatish
2. Eksperimental vaziyatlarni yaratish
3. Test

O'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi ijodiy qobiliyatlarning tabiatini va namoyon bo'lishini belgilaydigan juda ko'p turli xil omillarga bog'liq. Asosan, ushbu omillarni uchta eng umumiy guruhga birlashtirish mumkin.

- Birinchi guruhga ijodiy shaxsning shakllanishini belgilaydigan tabiiy moyilliklar va individual hususiyatlar kiradi.
- Ikkinci guruhi ijtimoiy muhitning ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi va namoyon bo'lishiga ta'sirining barcha shakllarini o'z ichiga oladi.
- Uchinchi guruhi - bu ijodkorlik rivojlanishining faoliyatning tabiatini va tuzilishiga bog'liqligi.

Ijodkorlik o'ziga xos hususiyatdir va u har bir bolada mavjud. Bundan tashqari, ijodkorlik bitta omil sifatida emas, balki har bir shaxsning ma'lum bir odamda turli darajalarda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan turli xil qobiliyatlarning birikmasi sifatida ko'rib chiqiladi. Shuning uchun psixologlar hamda pedagoglar uchun barcha bolalar potentsial ijodiy bo'lishi kerak. Pedagog uchun bolaning o'ziga xos individual ijodini sezish va uni rivojlantirishga intilish juda muhimdir.

Ijodkorlik faoliyat mobaynida rivojlanadi, ko'plab tadqiqotchilar ijodiy bo'limgan tafakkur uslubining shakllanishining sababini o'quv jarayonida bolalar doimiy ravishda "yopiq turdag'i" vazifalar bilan, ya'ni berilgan elementlar to'plamiga va yagona to'g'ri yechimga ega bo'lgan vazifalarda deb ta'kidlashadi. Bolalarda mashg'ulotlar natijasida ilgari shakllangan bilim va faoliyatga asoslangan fikrlash turi shakllanadi. Ijodiy qobiliyatlar, agar bola "Ochiq turdag'i" vazifalar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'lsa, shakllanishi mumkin. Ushbu vazifalar yechim usulini tanlashda to'liq mustaqillikni anglatadi va muammolarga har qanday yechimni taklif qilishda bolaga ijodiy yondashish imkoniyatini beradi.

Ijodiy qobiliyat osonroq va tez-tez, aniqrog'i, bola muayyan moyilliklarga ega bo'lgan faoliyatda namoyon bo'ladi. Shu sababli, bolalar iloji boricha ko'proq tadbirlarga jalb qilinishi va kuzatilishi kerak.

Ijtimoiy muhit ijodiy shaxsni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Garchi atrof-muhit ijodiy qobiliyatga ega shaxsni "yaratmasa" ham biroq iste'dodni namoyon etishda 95% ta'sir ko'rsatish hususiyatiga ega bo'lib uning 5% - irlsiy determinantlarga bog'liq deb qaraladi.

Ijtimoiy muhitning talablari, bevosita atrof-muhitga, o'qishga bo'lgan qadriyatlar va munosabatlarni shakllantirishi, yuqori ijodiy salohiyatga ega bo'limgan bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirishi mumkin.

O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish masalasi hamisha ahamiyatli bo'lgani singari bu jarayonlarda foydalaniladigan shakl, metod va vositalar ham doimiy ravishda o'z ahamiyatiga egadir. Maktab bosqichidagi ta'lim o'quvchilar bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, joiz bo'lsa, mazkur jarayonlarda ilk bilim olish davrlaridayoq o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan, o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy faoliyatni yanada takomillashtirish lozimligi bugungi kunning kun tartibidagi muammo bo'lishi darkor.

**Adabiyotlar:**

1. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'quvchisining psixologiyasi. T., O'zbekiston 30 bet.
2. F.I.Xaydarov N.I.Xalilova "Umumiy psixologiya" Toshkent-2009
3. Барышева Т.А. Диагностика эстетического развития личности. – С.-Пб., 1999.
4. Введение в психодиагностику / Под ред. К.М.Гуревича, Е.М.Борисовой. – М., 1999.
5. Межиева М.В. Развитие творческих способностей у детей 5 – 9 лет. – Ярославль, 2002.

**YUMSHOQ BUG'DOYNI JAHON KOLLEKSIYA NAMUNALARINI O'SUV  
DAVRLARI**

*Alloberanova Z.B - UrDU dotsent,  
Sa'dullayeva G.U - UrDU magistr,  
Atajanova K.S- UrDU talaba,*

*Qadamboyeba G.J- Yangibozor tumanidagi 10-son ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi*

***<https://doi.org/10.5281/zenodo.10063940>***

**Annotasiya.** Ushbu maqolada Xorazm tuproq iqlim sharoitida yumshoq bug'doyning jahon kolleksiya namunalarini morfo-fiziologik belgilariga muhitning ta'siri o'r ganilgan bo'lib, unda namunalarining o'suv davrlari va biologik xususiyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** o'simlikshunoslik, bog'dorchilik, uzumchilik, qurg'oqchilik, yovvoyi tur, hosildorlik, yumshoq bug'doy, areal.

Bug'doy dunyodagi eng keng tarqalgan donli ekinlar sirasiga kiradi. Bug'doy - har qanday davlatning qishloq xo'jaligi bozori barqarorligini va oziq-ovqat xavsizligini ta'minlashda eng muhim strategik mahsulotdir. Yumshoq bug'doy dunyoda hosildorlik jihatidan ikkinchi o'rinda tursada, lekin ekin maydonlari bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi.

Yer yuzida o'tgan asrning ikkinchi yarimidan boshlangan ekologik o'zgarishlar ayniqsa, Janubiy Orol dengizi qirg'oqlarida joylashgan O'zbekiston respublikasining go'zal va ajralmas bo'limi hisoblangan Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida o'zining eng kuchli tasirlarini ko'rsata boshladi. Bu ko'rinishlar qishloq xo'jaligining muhim sohalaridan hisoblangan o'simlikshunoslik, bog'dorchilik, uzumchilik va boshqa sohalarida sezilarli darajada salbiy ko'rinishlarni nomoyon qila boshladi. Bundan tashqari oxirgi suv tanqisligi yillarida respublikamizda ko'pgina madaniy va yovvoyi turda o'sadigan o'simliklar dunyosining soni va sifati, hajmi va tarqalish areallari kamayib ketdi.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi o'simliklarinni ayniqsa, bug'doyni maxalliy iqlim sharoitlariga moslashgan, issiqlikka va qurg'oqchilikka chidamli navlarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbekiston respublikasini "2022-2026 yillarga mo'ljallangan tarqqiyot strategiyasida "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish" vazifasi qo'yilgan.

Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda Xorazm tuproq iqlim sharoitida yumshoq bug'doyning jahon kolleksiya namunalarini morfo-fiziologik belgilariga muhitning ta'sirini o'r ganish maqsadida Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot institutining Xorazm paxtachilik ilmiy tajriba stantsiyasi dalalarida sug'oriladigan hududlar uchun fakultativ va kuzgi bug'doy ko'chatzorlardan olingan namunalar ekilib, namunalarining o'suv davrlari va biologik xususiyatlari o'r ganildi.

O'suv davri davomiyligining qulay ob-havo sharoitlarida o'simliklarning mahsuldarlik ko'rsatkichlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi barchaga ma'lumdir. Yumshoq bug'doy o'simligining o'suv davri davomiyligi nafaqat hosildorlikni belgilaydi, balki o'simlikning qurg'oqchilikka, kasalliklarga va tashqi muhitning stress omillariga chidamlilagini namoyon qiladi.

Global iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan qurg'oqchilik va haroratning ko'tarilishi barcha qishloq xo'jalik ekinlari qatori bug'doy yetishtirishga ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa bug'doyning don to'lishish fazasida haroratning optimal darajadan ko'tarilishi, namlikning yetishmasligi donning fiziologik to'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muommalarni ilmiy jihatdan asoslashda asosan genetik jihatdan hilma-xil shakllarni noqulay ekologik sharoitlarga moslashuvchanligini, mahsuldarligini turli xil kasalliklarga chidamlilagini, vegetatsiya davrlarni o'rganish seleksiyaning amalyotdagi muhim vazifasi hisoblanadi

Bug'doyning unib chiqish fazasi hosil uchun muhim ahamiyatga ega, chunki xuddi shu fazada murtak ildizcha faoliyati susayib, asosiy ildiz tizimi shakllanadi. Umuman biologik jihatdan tezpishar bo'lgan bug'doy navlari mamlakatimizning turli tuproq-iqlim sharoitlarida dehqonchilikni intensivlashtirishga imkoniyat yaratadi. Olib borilgan ko'pgina ilmiy tadqiqotlarda yumshoq bug'doy namunalarini baholashda ularning unib chiqish-boshoqlash davrlari davomiyligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan.

O'rganilgan yumshoq bug'doy namunalarining unib chiqish-boshoqlash davri muayyan bir uyg'unlikda o'zgarib turdi. Bug'doy namunalarining unib chiqish-boshoqlash d

a Shuningdek, bug'doy o'simligining ertapisharligi asosan boshoqlash fazasiga qarab belgilanadi. Namiunlarning tabiiy iqlim sharoitlariga bog'liq holda boshoqlash davri 7-9 kungacha o'zgarib turadi. Unib chiqish boshoqlash davri davomiyligi Respublikamiz sharoitida ekish muddatlari va navning biologiyasiga ko'ra 160-225 kunni tashkil qiladi.

o

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Abdullaev S.A., Boirov A.J., Sattorov J.S. Xorazm viloyati tuproqlari. - Toshkent: Fan, 2002. - B.190
2. Atabaeva X.N.Azizov B. „Bug'doy“ Toshkent 2008 y.
3. Кумаков В.А., Евдокимова О.А. Биологические аспекты выхода зерна в урожае пшеницы // Вестник РАСХН. 2000. №4. - С. 16-17.
4. Qurbanov G', Bo'riev X. Jaxonda va O'zbekistonda don yetishtirish. UzAFX, 2002 №1 (7) 22- bet.

s

u

t

k

a

l

i

k

h

**YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING DOLZARB  
MUAMMOLARI**

***Zoxidjon Rayimalievich Mirzaliev***

*O'zbekiston Milliy Universiteti*

*Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi katta o'qituvchisi*

***<https://doi.org/10.5281/zenodo.10067383>***

**Annotatsiya:** XXI asrga kelib, Davlatlar xavfsizligiga tahdid soladigan ehtimoliy xavf, tabiatda ro'y berayotgan ofatlar, hamda turli xil axborot xurujlari, dunyoning ko'p mamlakatlari aholisi oilaviy inqirozga uchragani, farzandlar tarbiyasi batamom izdan chiqgani, kattalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar asliy o'zanidan chetga chiqib ketgani, yurtimiz aholisining tinch va osoyishta hayotini ta'minlashda har tomonlama o'z hissasini qo'shishga qodir bo'lgan va Respublika aholi sonining salmoqli ulushini, mamlakatimiz aholisining 18,9 million nafarini yoki 54 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarda vatanparvarlik tarbiyasining rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Mazkur ishda yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha mayjud tizim qiyosiy tahlil qilinib, uning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo'lgan imkoniyatlardan foydalanish bo'yicha takliflar berildi.

**Kalit so'zlar:** vatanparvarlik, yoshlar, tarbiya, vatan tuyg'usi, odob-axloq, uyushmagan yoshlar.

**CURRENT PROBLEMS OF EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF  
PATRIOTISM**

***Zoxidjon Rayimalievich Mirzaliev***

Senior instructor of the Military Training  
Center National University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

**Annotation**

By the 21<sup>st</sup> century, potential threats to the security of States, natural disasters, and various information crises, the population of many countries of the world is experiencing a family crisis, the upbringing of the children is completely derailed, the relationship between elderly people and children is fundamentally changing, patriotic education of young people under age of 30 who are able to contribute to the peaceful life of our country's population and who are a significant part of the population of the Republic, 18,9 million people or 54% of the population of our country serves as a basis for its development. In this work, a comparative analysis of the existing system of patriotic education of young people was made, and suggestions were made for using the necessary opportunities for its comprehensive development.

**Key words:** patriotism, youth, education, sense of homeland, behaviour, unorganized youth.

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА**

**Зохиджон Райималиевич Мирзалиев**

Старший преподаватель учебного центра военной подготовки  
Национального университета Узбекистан имени М. Улугбека.

### **Аннотация**

в XXI веке одним из возможных угроз безопасности государств, таких как стихийные бедствия, различные информационные кризисы, население многих стран мира переживает семейный кризис а именно воспитание детей, отношения родителей и детей. Данная проблема принципиально меняет патриотическое воспитание молодежи в возрасте до 30 лет, способной внести свой вклад в мирную жизнь населения нашей страны которая служит основой ее развития и составляет значительную часть населения Республики (18,9 млн человек или 54% населения). В данной работе проведен сравнительный анализ существующей системы различных методов патриотического воспитания молодежи, а также даны предложения по использованию необходимых возможностей для ее всестороннего развития.

**Ключевые слова:** патриотизм, молодежь, воспитание, чувство Родины, поведение, неорганизованная молодежь.

### **KIRISH.**

Insonning eng buyuk, ezgu va muqaddas vazifasi, avvalo, o‘z oilasi, Vatani va xalqini munosib himoya qilishdan iboratdir. Bu borada har bir o‘g‘lonning bilim va malakasi, aqliy salohiyati, ruhiy tayyorgarligini oshirish, ularda vatanparvarlik fazilatlarini kamol toptirish o‘ta muhim ahamiyatga egadir. Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan vatanparvarlik to‘g‘risida: “Barchamizga yaxshi ma’lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi” deb berilgan ta’rif, vatanparvarlikning tub mohiyatini anglatadi. Vatan – insonning tug‘ilgan, kindik qoni to‘kilgan, bolalik, yoshlik davri o‘tadigan, ta’lim-tarbiya topadigan, safar qilsa, mudom qo‘msaydigan joydir. Vatanni sevish, uning ravnaqi yo‘lida xizmat qilish, uni yomon ko‘zdan, qora kuchlardan himoya qilish, uning sha’nini yuqori ko‘tarish tuyg‘usi insonning fitratiga qo‘sib yaratilgan. Bu tuyg‘u nafaqat insonda, balki boshqa maxluqotlarda ham mavjud. Baliq suvga, hayvon o‘zining iniga, hasharot uyasiga intiladi. O‘sha aqli yo‘q jonivorlar ham, hasharotlar ham o‘zining uyini taniydi, uni quradi, unda jufti bilan yashab, naslini davom ettiradi, zarur paytda uni himoya qiladi. Shunday ekan, aql-u zakovat, tafakkur ato etilgan, borliqdagi mavjudotlarning gultoji bo‘lgan insonda esa bu tuyg‘u yuksak darajada rivojlangan bo‘lishi lozim.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)**

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonini, kuchli fuqarolik jamiyatni va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadlar ro‘yobini

yoshlar ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Yoshlarni zamon talablari darajasida ta’lim-tarbiya olishi, vatanparvar bo‘lishi, shu aziz Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirishi, salomatligini mustahkamlashi, o‘z kuchi, bilim va salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridandir. Vatanparvarlik — kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbatи va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha, u barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri.

Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zлари yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. Inson ulg‘aygan sari uning Vatan haqidagi tushunchalari ham kengayib boradi. Yurtimizda tug‘ilib-o‘sgan har bir inson “Vatanim” deganida o‘z uyini, qishlog‘ini yoki shahrini emas, balki O‘zbekiston Respublikasini nazarda tutadi. Bu esa Vatan tuyg‘usining, vatanparvarlikning xalqimiz qalbidagi ifodasidir. Vatan tuyg‘usi — bu aziz va go‘zal yurtimizga hurmat va sadoqatli bo‘lish. Vatan tuyg‘usi — bu Turon, Movarounnahr, Turkiston va hozirda O‘zbekiston deya atalgan zaminda yashab kelayotgan xalqimizning oltin merosini, uning tarixini o‘rganishga intilishdir. Yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi sifat darajasida bo‘lishining omillarini har kim o‘zicha sharhlaydi. Kimdir ulug‘ muallimlar tajribasiga ko‘ra tarbiya berishni tavsiya etadi. Boshqasi ota-on, avvalo o‘z ibrati bilan tarbiyalashi lozim deb hisoblaydi. Birov bog‘cha va maktabdagи tarbiya tizimini foydali hisoblasa, yana kimdir bolani yomon ulfat va muhitdan himoya qilishni asosiy masala deb biladi. Lekin ko‘pchilik bolaning solih, es-hushli, tarbiyali, itoatgo‘y, vatanparvar bo‘lib ulg‘ayishining bosh sabablari haqida o‘ylab ham ko‘rmaydi. O‘sib kelayotgan yosh avlodning ongida “Vatan tuyg‘usi” deb nom olgan buyuk bir atamani shakllantirish, u to‘g‘risida tushuncha paydo qilish bir necha omillar ta’sirida yuzaga keladi. Shulardan biri yoshlar tarbiyasi. Yoshlar tarbiyasi haqida so‘z borar ekan, ularga tegishli umumiy odob-axloqlar haqida Imom G‘azzoliyning quyidagi so‘zlarini yodga olish maqsadga muvofiq, ya’ni: “Yoshlar tilla taqinchoq va turli zebu-ziynat taqmasliklari lozim. Ular o‘tirish, turish, salom berish odoblariga riosa etishlari, o‘zlaridan kattalar huzurida oyoqlarini chalishtirib o‘tirmasliklari, sergap va so‘kuvchi bo‘lmasliklari, behayo so‘zlarni aytmasliklari, xususan, yomon xulqli tengdoshlariga aralashishdan ehtiyyot bo‘lishlari kerak”. Ushbu aytilgan fikrlar, Vatan tuyg‘usini tarbiyalashni oiladan boshlashimiz zarurligiga ishora qiladi. Barkamol avlodni shakllantirishda oilaning o‘rni bo‘lak, chunki, inson avvalo oila bag‘rida unib-o‘sadi va shaxs sifatida shakllanadi. Buyuk jadidchi, mutafakkir Abdurauf Fitrat o‘zining “Oila” asarida: “Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog‘liqdir.... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi” deb yozgan. Oiladagi ta’lim-tarbiya, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar keyinchalik odamlar orasida — mahalla-ko‘yda, ta’lim muassasalarida sayqal topadi. Oilada farzandlarni ma’nан va jismonan barkamol, vatanparvar etib tarbiyalash uchun ota-onalar ham o‘z ma’naviyatlarini doimo boyitib borishlari, farzandlarini ham o‘z mamlakati tarixi, madaniyati, adabiyoti va

san'ati, me'morchiligi, milliy qadriyatlari haqida to'la tasavvurga ega bo'lishga mas'uldirlar. Buning uchun xalq og'zaki ijodidan tortib, zamonaviy tarbiya tajribalaridan ham unumli foydalanishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Maktab yoshidagi o'quvchi yoshlarning ongida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirib borish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydag'i "Xalq ta'lmini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" PQ-241-son Qarorida: "...o'quvchilar ongiga vatanparvarlik tuyg'ularini va milliy qadriyatlarni singdirish, boy madaniy-tarixiy meros, milliy urf-odatlar, buyuk ajdodlarimiz ma'naviy merosini o'rganishlari uchun sharoitlarni yaratishda sektor rahbarlari va mutasaddi tashkilotlarni keng jalb etish" vazifasi qo'yilgan. Vatanimiz va xalqimizning ertangi kunini, jahon hamjamiatidagi obro'-e'tiborini belgilovchi, uni himoya qilish uchun kerak bo'lsa o'z jonini fido qilishga tayyor turadigan barkamol, vatanparvar avlodni voyaga yetkazishdek ulug' vazifani "oila-mahalla-ta'lismuassasasi" hamkorligisiz hal etib bo'lmaydi desak, ayni haqiqatni gapirgan bo'lamiz. Vatanparvarlik tushunchasining negizi bolaning kindik qoni to'kilgan yerdan boshlanadi. Vatanparvarlik tuyg'ularini singdirish bosqichlarini shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'lish mumkin: maktabgacha bo'lgan davr, maktab davrida, maktabdan keyingi davr, oliv ta'lismuassasasida, muddatli harbiy xizmat davomida, shartnomma asosida harbiy xizmatni o'tash davomida. Maktabgacha bo'lgan davr va maktabning boshlang'ich sinflarida, ya'ni 1-4-sinflarda yosh avlod ongida vatanparvarlik qirralarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish, bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyat sifatida muhim manbaa bo'lib xizmat qila oladi. Xususan, ertak va dostonlardagi obrazlar bolaning jismonan baquvvat, botir, qo'rmas, shijoatli va eng muhimi o'z Vatani va yurti uchun jon fido qilishga tayyor farzandlarni yetishtirishda juda muhim omil hisoblanadi. Jumladan, Alpomish, Rustam, Siyovush, Shiroq, To'maris obrazlari bolalarni juda tez o'ziga rom qilib qo'yadi va ularning ma'naviy dunyosini boyitadi. Maktab davrining 5-9-sinfida yoshlarning ongida vatanparvarlik hissini shakllantirish maqsadida, yoshlarning o'z Vataniga daxldorlik hissini kuchaytirish, salomatligini mustahkamlash, o'z kuchi, bilim va salohiyatini shakllantirish davri hisoblanadi va bunda asosan sport turlari va fanlar bo'yicha to'garaklar hamda qo'shimcha mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda ayniqsa sportning turli xil yo'naliishlari, fan olimpiadalarida faxrli o'rin egallagan yoshlarni to'g'risida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoq orqali ma'lumotlarni efirga tizimli ravishda uzatib borish, ayniqsa championlar bilan, jumladan imkoniyati cheklangan, paraolimpiada g'oliblari bilan jonli muloqotlar uyushtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu o'rinda sharqona tarbiyaning yana bir usuli, ya'ni ustoz-shogird an'analaridan, xalq amaliy san'ati va hunarmandchilagini, o'ymakorlik (ganch, mis va yog'och o'ymakorligi), zardo'zlik, kulolchilik, milliy liboslar tikish kabi mashg'ulotlar ham yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishda albatta milliylikka, urf-odatlarimizning davomiyligiga Vatanga bo'lgan munosabatning ijobiy shakllanishi uchun xizmat qiladi. Maktab davrining keyingi bosqichida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy bosqichi hisoblanadi. Chunki ushbu davrga kelib yoshlarni kelajakda kim va qaysi kasb egasi bo'lish haqida qaror qabul qiladigan davr hisoblanadi. Ushbu yoshda vatanparvarlik hiss tuyg'ularini aniq misollar orqali shakllantirish zarur.

Mamlakatimiz tarixida bo‘lib o‘tgan barcha qurolli to‘qnashuvlar, mahalliy urushlar va mustaqillikka erishish davrida qurbon bo‘lgan harbiylarning ko‘rsatgan jasorati va matonati to‘g‘risida, xususan, o‘z aql-idroki bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘sghan Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek singari o‘nlab qomusiy mutafakkirlarni yodga olish, Vatanni himoya qilib, Vatan deya fido bo‘lgan To‘maris, Shiroq, Spitamen, singari yuzlab sheryuraklarni eslash, mustamlaka tuzumiga qarshi bosh ko‘targan Toshkent, Jizzax, Andijon qo‘zg‘ololnari, Dukchi Eshon xotirasini unutmaslik, yigirmanchi, o‘ttizinchi, qirqinchi, elliginchi va nihoyat saksoninchi yillarda xalqimizga qarshi uyushtirilgan qatag‘onlarda qamoq va surgun azoblarini boshidan kechirgan va halok bo‘lgan Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir singari minglab millat gullarini unutmaslik, Ikkinchiji jahon urushida fashizmga qarshi mardona jang qilgan vatandoshlarimiz yodini ehtirom bilan eslash orqali ularda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, ko‘zlangan maqsadga erishishda katta xizmat qiladi. Shuningdek, olti oylik qamaldan keyin Xorazmshohlar poytaxti Urganch qaxramonlari so‘nggi hal qiluvchi jangga tashlanganida, 76 yoshlik jahonga dong‘i ketgan olim Najmiddin Kubro shahar mudofaachilariga boshliq bo‘lganliklari, jangchilarga keskir qilich keltirib bergenlarida u vatan tug‘ini qo‘lga olganliklari, qahramon mudofaachilarini tengsiz jangda mag‘lub qilgan mo‘g‘ullar Najmiddin Kubroning muborak qo‘llaridan vatan tug‘ini ola bilmaganliklari, bosqinchilar qaxramonning har ikkala qo‘lini kesib Chingizzonga olib borganda u hayratga tushgan damlarni esga olish orqali Vatan himoyasi uchun yoshu-qari, oddiy fuqaroden tortib turli kasb egalari, olim-u fuzalolar hammasi bir xil ma’sul ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida Sariosiyo va Uzun tumanlari tog‘li qishloqlari aholisi tinchligini buzgan ichki dushmanlarga, Toshkent viloyatida terrorchilik harakatlariga qarshi zarbalar berishda halok bo‘lgan harbiylar – Sayyor Sa’dinov, Alisher Salimov, Boburjon G‘aniev, Ma’rufjon Rajabov, Ulug‘bek Barnoyev va boshqa qahramonlarimiz to‘g‘risida, ularning yaqinlari bilan muloqotda bo‘lish orqali tegishli xulosalar chiqarish vatanparvarlik tarbiyasining cho‘qqisini tashkil etadi. Oliy harbiy ta’lim muassasalarida, muddatli harbiy xizmat va shartnomalar asosida harbiy xizmatni o‘tash davrida vatanparvarlik tarbiyasi tegishli normativ hujjatlar asosida tashkil etiladi va olib boriladi. Vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirish va shakllantirib borish murakkab bo‘lgan mamlakat aholisining yana bir qatlami, uyushmagan yoshlar bo‘lib, son jihatdan ular ham mamlakat aholisining sezilarli ulushini tashkil etadi. Bu toifadagi yoshlar tayinli ish va o‘qish joylariga ega bo‘lmaganligi, ayniqsa ular ichida turli xil oqimlarga qo‘silib qolish, qoidabuzarliklar va jinoyatlarni keltirib chiqarishga moil xarakterga ega bo‘lishlari bilan boshqalardan ajralib turadi. Ushbu qatlAMDAGI yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish boshqa qatlAMDAGI yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishdan tubdan farq qiladi. Uyushmagan yoshlar bilan tizimli ravishda yuzma-yuz muloqot olib borish imkoniyatining cheklanganligi yoki umuman yo‘qligi vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha yoshlar ongiga singdirilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlar, ularning eng ko‘p tashrif buyuradigan manzillaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Shunday manzillardan biri internet tarmog‘i hisoblanadi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sherzod Shermatovning «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi

bilan belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar to'g'risida»gi masalani muhokama qilingan kun tartibidagi masala yuzasidan deputatlarning savollariga bergan javobida mamlakat aholisining internet xizmatidan foydalanuvchilari soni 31 milliondan ortganligini, shundan mobil internet foydalanuvchilari soni 29,5 millionni tashkil etganligi to'g'risida ma'lumot berilgan. Yoshlar tashrif buyuradigan keyingi manzil, respublikamizda kundan-kunga soni ortib borayotgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan masjidlar hisoblanadi. 2022-yilning yanvar,sentyabr oylarida O'zbekistonda 11 ta yangi masjid davlat ro'yxatidan o'tkazildi va ularning soni 2112 taga yetdi. O'z navbatida, 2022-yilning 9 oyi davomida 49 ta masjid qayta qurilib, 35 tasi qayta ta'mirlangan. Bundan tashqari, hozirgi kunda respublikada 325 ta masjidda qurilish va ta'mirlash ishlari olib borilmoqda Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida odamlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash asosiy vazifa ekanligini bayon etdi. Ushbu maqsadni amalga oshirish, birinchi navbatda, butun dunyo jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazish eng muhim vazifa hisoblanadi. Zotan, islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi. Mana shu muhim vazifalarni amalga oshirish uchun O'zbekistonda bir qancha mega loyihalarga asos solindi, bular Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi. Ushbu markazlarda ilm va ma'rifat dini bo'lgan islom Markaziy Osiyoda jahon sivilizatsiyasiga beba ho hissa qo'shgan allomalarning yetishib chiqishiga zamin yaratgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Xorazmiy, Farg'oniy, Ibn Sino, Beruniy, Mirzo Ulugbek kabi ulug' zotlarning g'oyat boy merosini asrab-avaylash va o'rganishga, islomning mohiyati bag'rikenglik va ma'rifat to'g'risidagi ta'limot ekanini keng yoyishga xizmat qiladi va yoshlarning qalbida Vatanga, uni ko'z qorachig'idek asrash kabi ulug' fazilatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

### **Tahlil va natijalar (Analysis and results)**

Dunyo globallashuv tomon odimlamoqda, uzoq masofalar tobora yaqinlashmoqda, boshqa tomondan esa fan va texnologiyalar jadal rivojlanmoqda, inson hayoti shiddat bilan o'zgarmoqda. Biroq iqtisodiy va texnologik rivojlanish insoniyat oldiga yangi muammolar, yangi masalalarni ham qo'ymoqda. Azaldan davom etib kelayotgan jaholat, insoniyat taraqqiyoti uchun asosiy tahdidlardan biri bo'lib qolmoqda. Ayni paytda "ommaviy madaniyat", "jinsiy erkinlik", tarki dunyochilik, internetga qaramlik holatlari ham borgan sari insoniyat oldidagi jiddiy muammolar qatoridan joy olmoqda. Yuqorida sanab o'tilgan tahdidlar yoshlar ongiga singib borishining oldini olish, yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi hozirgi kunda kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish bor imkoniyatlardan, ya'ni maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlab to'oliy ta'lim muassasalarida mutaxassisliklar bo'yicha o'qitilishi nazarda tutilgan fanlar qatorida, vatanparvarlikka undovchi va yoshlarning qalbida bir umr muhrlanib qoladigan vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda, ta'lim va tarbiyada qo'llaniladigan barcha uslub hamda usullardan o'quv jarayonida samarali foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ta'lim muassasalaridan tashqarida bo'lgan yoshlarning

qalbida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish asosan ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari, masjidlarda o‘qiladigan mav’izalardan, shoir va yozuvchilarning vatanparvarlik to‘g‘risida yozgan asarlaridan foydalanish o‘rinli bo‘ladi.

### **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, globallashuv sharoitida, xavfsizlikni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan kuch va vositalarni to‘liq safarbar qilish, jumladan mamlakat aholisi sonining salmoqli ulushini tashkil qiladigan yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasini talab darajasida amalga oshirish uchun, yoshlarning tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi barcha omillarni inobatga olishni taqozo etadi.

#### **TAKLIF:**

1. Yoshlarni maktab davridan boshlab ilmga, ayniqsa chet tillarini o‘rganish va kompyuter texnologiyalari hamda kasb - hunarga, milliy hunarmandchilikka, sportga nisbatan qiziqish uyg‘otish natijasida, barkamol vatanparvar insonlarni voyaga yetkazish orqali ishsizlikning sonini kamaytirishga zamin yaratish.
2. Davlat tomonidan yoshlarga berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlardan foydalanishda, ta’lim olish hamda ishga joylashish jarayonlarida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan korrupsiyon holatlarga raqamli texnologiyalarni tadbiq qilish orqali chek qo‘yish.
3. Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiruvchi eng ta’sirli tele ko‘rsatuv va radioeshittirish, internet sahifalari, yozilgan asarlar, masjid imomlarining mav’izalari konkurs asosida saralanib, yil yakunida moddiy jihatdan rag‘batlantirib borilishini yo‘lga qo‘yish.
4. Vatan ozodligi uchun jon fido qilgan vatandoshlarimiz va ularning oila a’zolariga davlat tomonidan beriladigan imtiyozlarni qayta ko‘rib chiqish.

#### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari. - Toshkent. “Yangi O‘zbekiston” 2021-yil 19-yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistoning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/5841063>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 11-maydagи “Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-241-son Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 4-avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiysi”. PQ-3898-son Qarori.
5. Fitrat. “Oila”. – T., “Ma’naviyat”, 1998. – B.8.
6. Ramatov J. Yoshlarda vatanparvarlik fazilatini shakllantirish ta’lim-tarbiya sohasining asosiy vazifasi.“Globallashuv sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ma’naviy-ma’rifiy texnologiyalari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi. – Toshkent, 2019, 129-131-betlar.

## INGLIZ TILIDA HOZIRGI ZAMON MODAL FE'LLAR NAZARIYASI

*Parpiyev Obidjon Abdurazoq o‘g‘li*

*Samarqand viloyati, Kattaqo‘rg‘on tumani 107-umumiy o‘rta ta’lim maktabi Ingliz tili fani o‘qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10067420>

Hozirgi zamon ingliz tilidagi modal fe'llar nazariy va amaliy jihatdan, shuningdek sintaktik-semantik jihatdan har tomonlama o‘rganib chiqishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilar vazifalarni hal qilishni o‘z oldimizga qo‘ydik:

1. Hozirgi zamon ingliz tilida “can” va “to able to” borasidagi ishlarni ko‘rib chiqish va ularga munosabat bildirish;
2. Mavjud nuqtai-nazarlarga ijodiy yondoshib, ularning nazariy va amaliy ma’nolarini o‘rganish;
3. “to have to” larni “must” modal fe’li mustaqil va yordamchi fe’llar bilan qiyoslab o‘rganish asosida ularning struktura bo‘yicha tavsiyalar berish;
4. Gap qurilishida modal fe’llarning roli va o‘rnini aniqlash;
5. Zamonaviy ingliz va Amerikalik yozuvchilarning badiiy asarlaridan olingan misollardan foydalananib modal fe’llarning sintaktik va semantic xususiyatlarini atroflicha o‘rganib chiqish.

Ilmiy ishning metodologik asosi shundan iboratki, bu yerda modal fe’llarning bir-biri bilan qiyoslab, taqqoslab o‘rganish bo’lsa, tadqiq usuli hozirgi zamonaviy ingliz tilida va asosan Amerika ingliz tilsida modal fe’llarning atroflicha qisqartirishlar orqali ishlatilayotganini bayon qilishdir. Tahlil qilish orqali uning turli leksik ma’nolarini aniqlash va bu oborotlar qatnashgan gaplarni tarjima qilganda ularning o‘zbek tilidagi muqobil variantlarini topish tadqiqotning ilmiyligidir. Mazkur ilmiy ishning amaliy ahamiyati Ingliz tilining nazariy va amaliy grammatisasi fanlari uchun berilgan materiallar ilmiy qiymatga ega bo’lib, ulardan modal fe’llarning turli yo’nalishda misol uchun: she’r, hikoya, asar, informativ mavzusida ilmiy maqolalar yozishda, ingliz tili grammaticasidan shu mavzuda amaliy mashg’ulotlar o’tishda foydalanish mumkin.

Ko‘pgina modal fe’llar (can/could/should/may/might/must/need/ought to) bilan ham majhul nisbat hosil qilish mumkin.

1. Hozirgi zamonda yuqoridagi modal fe’llardan keyin be + V3(ed) shaklini keltirish yo‘li bilan majhul nisbat hosil qilinadi.

You must clean the room. (active voice) → The room must be cleaned. (passive voice)

Somebody may break the window. (active voice) → The window may be broken. (passive voice)

2. O‘tgan zamonda yuqoridagi modal fe’llardan keyin have been + V3(ed) shaklini keltirish yo‘li bilan majhul nisbat hosil qilinadi.

The room looks nice. You must have cleaned it. (active voice) → The room must have been cleaned. (passive voice)

Somebody may have broken the window. (active voice) → The window may have been broken. (passive voice)

Bu ilmiy ishning yangiligi shundaki unda nafaqat ehtimollik, zaruriyatni balki zamonaviy ingliz tilida ayniqsa og'zaki tilda hozirgi Amerika Ingliz tilida modal fe'llarning qisqartmalar yoki lahjalarga moslashtirib aytishini yoritib berildi. Modal fe'llarning har birining o'zida tub ma'no yotib qaysi birini qay paytda qo'llay bilish ularni o'rganish, bir-biri bilan joyini almashtirmaslik haqida ham keng yoritilib bergen.

Majhul nisbat qurilmasi bilan axborot berish:

Tasdiqlanmagan xabarlar (mish-mish) yoki rasmiy yangiliklar haqida majhul nisbat qurilmasi to be +V3(ed) orqali ma'lumot berishimiz mumkin. Bunday gaplar it is said that..., it is reported that... so'zlari bilan boshlanadi.

It is said that George has been married six times. (Aytishlaricha, Jorj olti marta uylanganmish.)

It is believed that the Earth is the only planet to support life. (Ishoniladiki, yer hayot mavjud bo'lgan yagona planetadir.)

It is reported that two people were arrested by the police. (Xabar berilishicha, ikki nafar shaxs politsiya tomonidan hibsga olingan)

Quyidagi fe'llar ham axborot/xabar berish maqsadida majhul nisbat qurilmasida kela oladi. (to be) thought - o'ylashlaricha alleged - gumon qilinishicha «understood» - tushunishlaricha considered - o'ylashlaricha supposed - taxmin qilinishicha

It is alleged that he kicked the policeman → He is alleged to have kicked the policeman.

▪ Yuqoridagi qoidalarga qo'shimcha tarzda ma'lumot berish uchun There + majhul nisbat qurilmasi ning qo'llanishi mumkinligini aytib o'tish lozim.

There are believed to be thousands of homeless teenagers living on the streets of the capital.

▪ Xabar yoki axborot berish ma'nosidan tashqari to be supposed to iborasi boshqa ma'noda ham qo'llanadi.

Qiyoslash uchun:

George is supposed to have six wives. (Jorjning oltita xotini bor emish.)

You are supposed to eat more vegetables. (Siz ko'proq sabzavotlardan tanovul qilishingiz kerak.)

Modal fe'llarning ekvivalentlari o'rtaida alohida o'rin tutadigan "Can", "Could", "To able to", "Need", "May", "Might", "Must", "Should", "to have to" tadqiqotning ob'yektidir. Kaushanskaya quyidagicha to'xtalib o'tadi: "Modal verbs are used to show the speaker's attitude toward the action or state indicated by the infinitive, I, e, they show that the action indicated by the infinitive is considered as possible, impossible, probable, improbable, obligatory, necessary, advisable, doubtful or uncertain, etc. The modal verbs are: can (could), may (might), must, should, ought, shall, will, would, need, dare. The modal expressions to be+infinitive and to have+infinitive also belong here". "Modal verbs are called defective because all of them (except "dare" and need) lack verbals and analytical forms" (i.e. compound tenses, analytical forms of the subjunctive Mood, the Passive

Voice)". J. Bo'ronov o'zining "Ingliz tili grammatikasi" darslik kitobida modal fe'llarning qo'yidagi xususiyatlariga ham alohida to'xtalib o'tadi: uning fikricha modal fe'llardan sifatdosh formasini yasab bo'lmaydi. Suffiks yoki prefikslar yordamida modal fe'llardan yangi fe'llar yasalmaydi, chunki modal fe'llarning o'zlari so'z yasalish usuli yordamida boshqa so'zlardan yasalgan emas. Modal fe'llar to yuklamasini olmasligining sababi, preterit-prezent fe'llarning infinitiv formasidan emas, balki hozirgi zamon formasidan yasaladi. Anglatgan ma'nosiga ko'ra majburiylik, mumkinlik, zarurlik, ishonch, hohish yoki ruxsat, taxmin, faraz qilish, qo'lidan kelishlik va shunga o'xshash boshqa ma'nolarni ifodalovchi fe'llar modal fe'llar deyiladi. Modal fe'llar harakatni ko'rsatmasligi tufayli boshqa fe'llardan semantic jihatdan farq qiladi.

Modal fe'llar doimo infinitive shaklidagi asosiy fe'llar bilan birga ishlatilib asosiy fe'llarga modallik ma'nosini qo'shadi. Gordon modal fe'llarga quyidagicha ta'rif beradi: "Modal verbs are defective verbs since they eack many forms a modal compound predicate. They lack -s in the third person singular in the Present tense and have no verbals, so they have no analytical forms, some of them lack the form of the Past tense".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, modal fe'llarni o'qitish bugungi kun nuqtayi nazardan ahamiyatli hisoblanadi. Shu sababdan bugungi ilmiy ishimizda modal fe'llarni ilmiy yoritishga harakat qildik.

## **FOYDALANILGAN BADIY ADABIYOTLAR**

1. ASS-Australian short stories. M. Progress Publishers, 1975.-290b.
2. Jeromy K.J. "Three men in a Boat", 1974.-355b.
3. CPD-Parker G "The Darkness of the Morning" M: Progress Publishers, 1978.-289b.
4. EFG-Elizabeth I "Speech to the Troop", 1920.-150b.
5. FCS-Cooper F. G. "The spy" M: Progress Publishers, 1975.-265b.
6. HEM-Hemingway E "To have or have not" M: 1979.-310b.
7. JSG-Swift J. Gulliver's Traveles-M, 1979.-300b.
8. TGL-Galsworthy J. "To let"-M; 1989.-356b.
9. GDF-Gobls Davis. "Fishman and Charley" New York, 1986.-388b.
10. PAP- P. Abrahams "The Path of Thunder" M; 1971.-400b.
11. SMM-Maugham S. W. "The Moon and Sixpence" M; 1975.-266b. 12. WWD-William Worton "Dad" New York, 1987.-311b.

**GOSPITAL TA'LIMDA BIOLOGIYA FANINI O'QITISHNING NOAN'ANAVIY  
USULLARI**

***Turakulova Nafisa Buranovna***

*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi  
huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'lim  
muassasasi umumiy o'rta ta'limni  
tashkil etish bo'yicha pedagog xodim*

***Xudayberdiyev Ural Jurayevich***

*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi  
huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'lim  
muassasasi direktor o'rincosari*

***<https://doi.org/10.5281/zenodo.10068078>***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada gospital maktablarda biologiya fanini o'rgatishda o bilim berishning noan'anaviy va an'anaviy hamda zamonaviy innovatsiyalarni qo'llash yordamida o'quvchilarda biologiya fanini kundalik faoliyatda qo'llashni, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish, turli o'qitish metodlaridan foydalangan holda 'tish uchun zarur bo'lgan biologik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va shu bilan birga o'qitish metodlari klassifikatsiyasi, zamonaviy va ilg'or pedagogik texnologiyalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Gospital, texnologiya, gematologik kasalliklar, laminatsiya, gibrif usuli, individual, ertak, onkogematologik kasalliklar, Mehrli maktab, Meyoz, test, Virtual laboratoriya, so'z o'yini.

Gospital maktablarda biologiya fanining o'qitilishi, o'quvchilarda jonli tabiatning ob'yekti va tizimini his etish, jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi aloqalarni farqlashni o'rgatadi. Biologiya fanini o'rganish davomida o'quvchilar jonli muhit muammolarini hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar va ularning ijtimoiylashuvi yaxshilanadi. Bir vaqtning o'zida atrofimizni o'rab turgan jonli tabiatga ijobiy munosabat, tabiiy rang-baranglikni saqlab qolish, shuningdek, javobgarlikni his qilgan holda mustahkam hayotiy faoliyat shakllanadi.

Gospital maktabda biologiya fanidan ta'lim berish, uning ilm-fan taraqqiyotida, ishlab chiqarishda, biologiya sohalarining rivojlanishida, biologik tabiiy mahsulotlardan foydalanihda, aholini sog'ligini saqlashda va sifatli oziq ovqat bilan ta'minlashda, bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy-madaniy va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Gospital ta'linda biologiya darslarida quyidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanihga e'tibor beriladi:

yangi mavzuni bayon etish yoki mustahkamlash uchun slaydlar; yangi mavzuni bayon qilish uchun har biri 5 minutli bo‘lgan o‘quv filmlar, videotasvirlar, multimediyalar; turli mashqlarni, amaliy topshiriqlarni bajarishga mo‘ljallangan o‘yinli multimediyalar.

Bulardan tashqari, o‘quvchilar mustaqil shug‘ullanishlari uchun elektron darsliklar yaratish ko‘zda tutiladi. Elektron darslikda ayrim muhim mavzular yoki deyarli barcha mavzular bayoni, undagi mashqlar, topshiriqlar, testlar multimedya orqali beriladi. Unda turli mashqlar, topshiriqlar va testlar o‘yinli multimediyalardan iborat bo‘lishiga erishish lozim. Elektron vositalar o‘quvchilarni bilim olishga qiziqtiradi, o‘zları ustida mustaqil ishlashga o‘rgatadi, bo‘sh vaqtlarining mazmunli va foydali bo‘lishiga ko‘maklashadi.

Biologiyani o‘qitishda AKT vositalaridan foydalanish gospital maktab o‘qituvchisiga:

- o‘quvchining sog‘ligiga e’tibor berish;
- darsda ko‘rgazmalilikni ta’minlash;
- biologiya fanidagi murakkab mavzularni soddalashtirilgan holatda tushuntirish;
- o‘quvchilarning tasavvur qilishi qiyin bo‘lgan jarayonlar va hodisalarni multimediyalar orqali namoyon qilish;
- sinfda o‘tkazish mumkin bo‘lмаган тажриба va ko‘rgazmalarni virtual ko‘rsatish;
- an’anaviy o‘qitish shaklida reja asosida bir marta o‘rgatiladigan mavzular;
- bilimlarini chuqurlashtirish uchun qo‘sishma ma’lumotlarga ega bo‘lish;
- o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorlikda ishlashiga zamin yaratish;
- nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni onlayn kuzatish va o‘zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi platformalardan foydalanish;
- o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini tezkor nazorat qilish imkonini beradi.

Gemotologik kasalliklar bilan kasallangan bolalarda immunitetning juda pasayib ketishi hisobiga o‘quvchilarga darslik va boshqa o‘quv qurollaridan foydalanish qat’ian ma’n etiladi. Ana shunday hollarda gospital ta’lim o‘quvchilariga faqatgina axborot kommunikativ vositalaridan (interaktiv doska, planshet, noutbuk, interaktiv stol va laminatsiyalangan didaktik materiallar) foydalangan holda dars o‘tiladi.

Gospital maktab o‘quvchilariga topshiriqlarini AKT vositalari yordamida o‘quvchilarga taqdim etish bir qancha qulayliklarni tug‘diradi. Chunki axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlashga xizmat qilishi bilan bir qatorda o‘quvchining sog‘ligiga ham zarar yetkazmaydi. Har bir o‘quvchini o‘qituvchi hamda sinfdoshlari bilan muloqotga kirishish, hamkorlik qilish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Murakkab biologik jarayon va hodisalarni tasavvur qilib, ko‘z oldiga keltira olish; mustaqil ravishda tajriba, ko‘rgazma va laboratoriya ishlarini elektron shaklda o‘tkazish; ensiklopedik ko‘rinishdagи axborotlarni tezkor olish; o‘z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash; o‘quvchilarda sun’iy intelektni rivojlantirish; mavzuni o‘rganishda o‘zi uchun qulay bo‘lgan tezlik va o‘zlashtirish darajasini tanlash; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga jalb qilish, uni egallash va unga doimiy ishlashga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish imkoniyatlarni beradi.

**Gibrild usuli.** Gospital mактабда та’лим jarayonini tashkil etishda “Gibrild” usulidan keng foydalanish samarali natija berib kelmoqda. Bunda, sharoitdan kelib chiqib har xil sinfda o‘qiydigan o‘quvchilar birgalikda darsga jalb qilinadi. Ya’ni 5 – 8 va 9 – 11 sinf o‘quvchilari birgalikda darsda ishtirok etadilar. Pedagogning uddaburonligi natijasida dars mavzusi shunday tanlanadi-ki, mavzu o‘quv rejasiga mos bo‘lishi kerak. Bunda pedagogning darsga qiziqtira olish va materialni oddiydan murakkabga qarab yetkaza olish qobiliyati juda muhimdir. Masalan, biologiya darslarida “Ko‘payish” mavzularini 5-7-sinflarda; “Hujayra va uni o‘rganish usullari”kabi mavzularni esa 9-10-sinflarda “Gibrild” usulida o‘qitish tajriba-sinovda o‘zini oqladi deb aytsak bo‘ladi. Bunday usul ba’zi o‘quvchilar uchun yangi mavzu bilan tanishish bo‘lsa, bu mavzular bilan tanish bo‘lgan o‘quvchilar uchun mavjud bilimlarini tahlil qilish va mustahkamlash imkoniyatini beradi. Ushbu usulda o‘quvchilar uchun barcha biologiya darslaridan ma’lumotlar bazasini o‘rgatish yaxshi natija beradi. Masalan, nerv markazlari haqidagi quyidagi ma’lumotlar o‘quvchilar uchun foydali va qiziqarli,yodda qolarli ma’lumotlar hisoblanadi.

→ Ter ajralish markazlari □ orqa miyaning bo‘yin, ko‘krak, bel segmentlarida, uzunchoq miyada, oraliq miyaning gipotalamik sohasida va bosh miya yarimsharlarining po‘stloq qismida joylashgan.

→ Nafas olish, yurakning ishini boshqarish markazi □ uzunchoq miyada joylashgan. Uchlik va ko‘z soqqasining harakatlari markazi □ miya ko‘prigida joylashgan.

→ Ko‘z soqqasining harakatlari markazlari □ miya ko‘prigi, o‘rta miyada joylashgan.

→ Po‘stloqosti ko‘rish miyasi markazlari □ o‘rta miyaning oldingi 2 ta tepaligida joylashgan.

→ Po‘stloqosti eshitish miyasi markazlari □ o‘rta miyaning orqa 2 ta tepaligida joylashgan.

→ Hid bilish markazlari □ bosh miya po‘stlog‘i chakka qismining oldingi yuqori sohasida, po‘stloq peshona qismining ostki ichkari sohasida joylashgan.

→ Ko‘rish markazi □ po‘stloqning ensa qismida joylashgan.

→ Eshitish markazlari □ bosh miya po‘stlog‘i chakka qismining pastki sohasida joylashgan.

→ Ta’m bilish markazlari □ bosh miya po‘stlog‘i chakka qismining yuqori o‘rta sohasida joylashgan.

→ Barmoq terisidagi paypaslash markazlari □ bosh miya po‘stlog‘i tepe qismining o‘rta sohasida joylashgan.

→ Yozuv (o‘ng qo‘l) markazi □ chap yarimsharlarda joylashgan.

→ Harakat markazi □ miyacha, oqimtir yadro, bosh miya yarimsharlari tepe qismining oldingi markaziy pushtasida joylashgan.

→ Tana terisining sezish markazi □ bosh miya yarimsharlari tepe qismining orqa markaziy pushtasida joylashgan.

→ Siypalash markazi □ o‘ng va chap yarimsharlarda joylashgan.

→ Hisoblash markazi □ chap yarimsharlarda joylashgan.

- O‘qish markazi □ chap yarimsharlarda joylashgan.
- Orijentirlash (mo‘jal olish) nerv markazi □ o‘ng yarimsharlarda joylashgan.
- Geometrik figuralarni aniqlash markazi □ o‘ng yarimsharlarda joylashgan
- Ohang, intonatsiya berish markazi □ o‘ng yarimsharlar po‘stlog‘ining chakka qismida joylashgan.
- Asosiy gapirish markazi □ chap yarimsharlar po‘stlog‘ining chakka qismida joylashgan.
- Siydik ajralish markazlari □ orqa miyaning 1 – 3-dumg‘aza segmentlarida joylashgan.
  - Motoneyron markazlari □ orqa miya, uzunchoq va o‘rta miyada joylashgan.
  - Nafas markazi □ uzunchoq miyada joylashgan.
  - Diafragma markazi □ orqa miyaning bo‘yin qismida joylashgan.
  - Nafas olish oliy markazi □ bosh miya yarimsharlari po‘stlog‘ida joylashgan.
  - Qovurg‘alararo muskullarning markazi □ orqa miyaning ko‘krak qismida joylashgan.
- Yurak va qon tomir sistemasining markazlari □ uzunchoq va orqa miyadagi simpatik va parasimpatik, bundan tashqari, gipotalamik va bosh miya yarimsharlarining po‘stloq qismida joylashgan.
- Ovqat hazm qilish markazlari □ uzunchoq miyada, oraliq miyaning ko‘rish do‘mbog‘i ostida joylashgan.
- Ko‘rish analizatorining ketma-ketligi □ retseptor, ko‘rish nervi, o‘rta miya, oraliq miyaning gipotalamik sohasi, bosh miya yarimsharlarining ensa qismidagi ko‘rish nerv markazida joylashgan.
- Eshitish analizatorining ketma-ketligi □ retseptor, eshitish nervi, miya ko‘prigi, o‘rta miyaning po‘stloqosti eshitish markazi, bosh miya yarimsharlari chakka qis-midagi oliy eshitish nerv markazida joylashgan.
- Vestibulyar analizator ketma-ketligi □ retseptor, vestibulyar nerv, miya ko‘prigi, miyacha, bosh miya yarimsharlaridagi muvozanat nerv markazida joylashgan.
- Teri analizatorining ketma-ketligi □ retseptor, sezuvchi nerv, orqa miyaning quiyi qis-midagi nerv markazlari, oraliq miyaning ko‘rish do‘mbog‘i, bosh miya yarimsharlaridagi tana terisining sezish nerv markazlarida joylashgan.
- Ta’m bilish analizatorining ketma-ketligi □ retseptor, til, halqum nervi, uzunchoq miya, oraliq miyaning ko‘rish do‘mbog‘i, bosh miya yarimsharlari po‘stlog‘idagi ta’m bilish nerv markazlarida joylashgan.
- Hid bilish analizatorining ketma-ketligi □ retseptor, hid bilish nervi, bosh miya yarimsharlari po‘stlog‘idagi hid bilish nerv markazlarida joylashgan.
- Muskul, pay, bo‘g‘im analizatorlari □ retseptor – sezuvchi nerv, bosh miya yarimsharlarida joylashgan



**Individual ishslash usuli.** Mehrli mактабда болалarning umумiy ahvolini hisobga олган holda, ularning davolanayotgan xonalariga borib dars mashg'улотлари оlib boriladi. Davolanish vaqtida bolalarda kimyoterapiya muolajasidan so'ng, bolaning immuniteti pasayib ketishi natijasida bolaga shifokor xulosasiga ko'ra, mакtabga chiqish ta'qиланади. Bu davr vaqtinchalik bo'lib, ushbu vaqt mobaynida o'qituvchi o'quvchi bilan individual tartibda ishlaydi. Individual tartibda ishslash jarayonida o'qituvchiga quyidagi talablar qo'yiladi:

Individual ishslash uslubi o'qituvchi uchun biroz qiyinchiliklar tug'diradi. Chunki o'qituvchi rejada berilgan mavzulardan chetlab ishslashga majbur bo'ladi. Sababi o'quvchining sog'lig'i sabab rejada belgilangan mavzuni o'zlashtirishida qiyinchiliklar va muammolar paydo bo'lishi mumkin. Bunday holatda pedagog o'z mahoratini ishga solib, bolaning biologiya fanini o'zlashtirishida qaysi bo'limiga qiziqishini aniqlab olishi zarur. Masalan, 9-sinf o'quvchilarida taqvim mavzu reja bo'yicha bugungi mavzu "Meyoz". Ushbu mavzu o'quvchida umuman qiziqish uyg'otmasligi mumkin, o'quvchiga "Suyaklarning tuzulishi va o'sishi"ga oid mavzular qiziqarliroq ekanini aniqlab olishimiz mumkin. Pedagog ushbu jarayonda o'quvchining tanlagan mavzusini bo'yicha ma'lumotlar, qiziqarli faktlar keltirib, darsni o'tadi. Gospital ta'limda birinchi navbatda bolaning kayfiyatini ko'tarish, uning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda sifatli ta'lim berish muhim hisoblanadi.

**Ertak usuli.** Onkogematologik kasalliklar bilan davolanayotgan bolalarning ayrimlarida muolaja davrida, ko'rish qobiliyatining pasayishi yoki mutlaqo ko'ra olmay qolish holatlari uchraydi.


Mehrli mактабда o'tgan davr mobaynida ushbu holat qisman bo'lsada kuzatildi.O'quvchi muolajaga birinchi bor kelganida ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lgan, ammo keyinchalik ko'zning ko'rish qobiliyati nihoyatda pasayib ketdi. O'quvchi shunday holatga tushib qolishiga qaramasdan o'qishni davom ettirishni xohladi.Ushbu holatda Mehrli mакtab pedagog xodimlari o'quvchilar bilan dars o'tish jarayonlarida yaxshi natijalarga erishdilar.O'quvchiga o'zi qiziqqan mavzularda og'zaki ertak usulida dars o'tdilar.Ko'rish imkoniyati cheklangan bolalarga og'zaki ertak usulida dars berish jarayonida o'qituvchi o'z ovozi bilan ishlashi talab etiladi.Bunday holatda pedagog, mavzuni qisqartirilgan holda aniq,qiziqarli ertak qilib gapirib beradi.

**Kitlar haqida ertak.**

Bor ekan-u yo‘q ekan qadim o‘tgan zamonda baland tog‘lar tomonda sut emizuvchilar sinfiga mansub bo‘lgan kitlar to‘dasi baxtli hayot kechirar edilar. Ular hayot kechirayotgan yerdarda yeguliklar nihoyatda ko‘p bo‘lib, suvlar sharqirab oqar, quyosh charaqlab turardi. Daraxtlarning bo‘ylari nihoyatda uzun, barglari hayratlanarli darajada katta va yam-yashil edi. Kitlar to‘dasi bu makonda maza qilib yashar edilar. Ammo bu xursandchilik uzoqqa cho‘zilmabdi.

Kutilmaganda tabiat boboning kayfiyati buzilib, injiqliklar qila boshlabdi. Quyosh charaqlab chiqmay, suvlar sharqirab oqmay qo‘yibdi. Kitlar juda xafa bo‘libdilar. Ularning ovqatlanishi uchun daraxtlar kamlik qila boshlabdi. Kitlar nima qilishlarini bilmay qolibdilar. Shundan so‘ng kitlar to‘dasi maslahatlashib bir qarorga kelibdilar. Ular suvda oziq-ovqat ko‘pligini bilib suvda yashashga qaror qolibdilar. Kitlarning vazni nihoyatda og‘ir bo‘lib, vaznning og‘irligi sabab ular quruqlikda yashashga biroz qiynalishar edi. Ammo tez fursatda suvda yashab ketishning aslo iloji yo‘q ekan. Chunki suvda yashash uchun kitlarda baliqlar kabi jabra mavjud emas edi. Shundan so‘ng kitlar suvga asta-sekinlik ko‘nikishga o‘ta boshladilar. Oradan kunlar o‘tibdi, kunlar ketidan oylar, oylar ketidan million-million yillar o‘tibdi. Suvda yashash natijasida kitlarning oldingi oyoqlari old suzgichlarga, orqa oyoqlari dum suzgichga aylanibdi. Juda katta mashaqqatlardan so‘ng kitlar to‘dasi butunlay suvda yashashga moslashibdilar. Ular shunchalik rohat – farog‘atda yashaganlaridan ularning vaznlari oshib, bo‘ylari o‘sib ketibdi. Kitlarning o‘rtacha og‘irligi 150 tonnani, uzunligi 30 metrni tashkil etibdi. Kitlar to‘dasi ahil-inoq bo‘lib, shu kungacha baxtli hayot kechirishayotgan ekan. Kitlarning aqliligi sababli, ularning avlodlari saqlanib qolinibdi. Shunday qilib kitlar to‘dasi o‘z maqsadlariga erishibdilar.

**Nazorat usuli testlar yordamida**, mavzu bo‘yicha nazorat testlarini tuzish, test savollari va javoblarning metodik jihatdan to‘g‘riligi, mantiqiy ketma-ketligi, o‘quvchilar bilimini nazorat qilishning haqqoniyligi, keng ko‘lamliligi kabi uslublardan iborat. Gospital maktabda o‘quvchilarning umumiy holatlarini hisobga olib, testlar soddarоq tuziladi. Testlar yordamida nazorat qilish orqali o‘quvchining bilim darajasi tez va oson usulda aniqlanadi.



**Virtual laboratoriya va amaliy ish yordamida nazorat usuli bu**, o‘quv va amaliy ko‘nikmalarni, bajarilgan topshiriqlarning sifatini aniqlash va baholash, ish mazmuniga bog‘liq holda ob’ektlar va asboblarni to‘g‘ri tanlash, ishni yakunlash va natijasini rasmiylashtirish, olingan natijalarning to‘g‘riligini aniqlash usuli hisoblanadi.<sup>5</sup>

Shu jumladan gospital ta’limda biologiya fanidan laboratoriya ishlарini olib borish mumkin bo‘lmaganligi sababli gospital ta’lim tizimida belgilangan laboratoriya ishlari virtual laboratoriya orqali o‘quvchilar bilimi mustahkamlanadi. Nazoratning tarbiyaviy vazifasi uning o‘quvchilarni rag‘batlantirishni ta’minalash, tahsil olishdagi mas’uliyat va burchni tarkib toptirishda namoyon bo‘ladi.

**“So‘z o‘yini” usuli.** Onkologik kasalliklar bilan davolanayotgan bolalarning ko‘z o‘smasi, ko‘z zararlanish neyroblastomasi, ko‘rvu nervi zararlangan bosh miya o‘smalari kabi tashxislarida bolaga vaqtincha elektron doskadan foydalanish, o‘qish, yozish ta’qilganadi. Shunday holatlarda bolalarni biologiya faniga qiziqtirish maqsadida so‘z o‘yini usulidan foydalilanadi. Bu usul bolaning oddiy maktabda biologiya fanidan olgan bilimlarini yodga tushirishga va fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi. So‘z o‘yini usuli orqali o‘quvchilarni rag‘batlantirish va ularning bilim darajasini aniqlash maqsadida foydalilanadi. Shuning uchun bu usulda hayvonlar va o‘simliklar nomlaridan foydalaniib o‘yin o‘ynaladi. O‘quvchining bir nafari o‘zi xohlagan o‘simlik va hayvon nomini aytib o‘yinni boshlaydi.

Masalan, Hayvon turlaridan: ayiq-quyon-ninachi-ilon-nereida-ari-ilvirs-... va hokazo. Ushbu usulni oddiydan murakkabga qarab davom ettirish mumkin. O‘yinda yutgan o‘quvchi uchta hayvon turini tanlaydi va hayvonlarning yashash manzillari va nimalar bilan oziqlanishi haqida ma’lumot beradi.

O‘simlik turlaridan: Archa-atirgul-lola-anjir-rayhon-nok va hakozo.

So‘z o‘yinini har qanday mavzuda o‘ynash mumkin. Ushbu usulni gospital maktablarda bolaning kayfiyatini kotarish maqsadida yangi mavzuni boshlashdan avval qo‘llansa dars samaradorligi yaxshilanadi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati**

- 1.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni //Ta’lim me’yoriy hujjatlari-T. Sharq 2001 y.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.05.2022 yildagi 234-sonli qarori
- 3.Milliy o‘quv dasturi “Biologiya”-2020-2021y
- 4.Biologiya 5-sinf darsligi O‘.Pratov,A.To‘xtayev,F.Azimova,Z.Tillaryeva 2020y



<sup>5</sup> <https://bilimland.uz/uz/courses/virtual-laboratoriya/biologiya>

- 5.Biologiya 7-sinf darsligi K.Saparov,I.Azimov,M.Umaraliyeva,Z.Tillayeva,I Abduraxmonova,U.Raxmatov,S.Hayitbayeva,M.Bo‘ronboyeva.2022 yil
- 6.Biologiya 8-sinf darsligi O.Mavlonov,T.Tilavov,B.Aminov 2019 yil
- 7.Biologiya 9-sinf darsligi A.Zikiryayev, A.To‘xtayev, I.Azimov, N.Sonin 2019 y
- 8.Biologiya 10-sinf darsligi. A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova O.Ishankulov, M.Umaraliyeva, I.Abdurahmonova 2017-yil
- 9.Biologiya 11-sinf darsligi A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova,
- 10.O.Ishankulov, M.Umaraliyeva, I.Abdurahmonova 2018-yil

**MAKTAB O'QUVCHILAR SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASHDA  
JISMONIY TARBIYANING O'RNI**

*Ergashev Dilmurod Abdughalilovich*

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Farg'onan Akademik  
litseyi, jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi*

[\*\*https://doi.org/10.5281/zenodo.10068240\*\*](https://doi.org/10.5281/zenodo.10068240)

**Annotation:** In this article, the ways of forming physical education in school youth through the mediation of physical education classes and sports clubs are considered.

**Key words:** Sports circles, physical fitness, pedagogical approach, education, physical culture, mass sports.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktablarda jismoniy tarbiya darsining va sport tógaraklarining vositachiligidagi óquvchi yoshlarda jismoniy tarbiyani shakillantirish yo'llari kórib chiqilgan.

**Kalit suzlar:** Sport tógaraklari, jismoniy barkamollik, pedagogik yondashuv, tarbiya, jismoniy madaniyat, ommaviy sport.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning ruhan tetik, jismonan barkamol insonni shakllaktirishdagi beqiyos ahamiyati oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun va qarorlarda o'z aksini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'grisida"gi[2] Qarorida Mamlakatimizning barcha xududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma'naviy sog'lomlikning asosi ekanini, hayotga katta umidlar bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararlo asrash, ularga o'z qobilyati va iste'dodlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shartsharoitlarni yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, hamda maqsadli saralab olish masalalariga e'tibor yanada kuchaytirilgan.

Jismoniy tarbiya kishilarning axloqiy kamolotiga katta ta'sir kórsatib, insonning salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr kórishiga yordam beradi. Sport tógarakalari har qanday yoshda qaddi-qomatni tarbiya qilish, kuch-quvvatni saqlab turishning ajoyib vositasidir. Sport tógarakalari dam olish bilan mehnatni almashtirib turish manbai bólíb ham xizmat qiladi. Shu sababli ham kishilik jamiyatining eng ibridoiy holatidan hozirgi kunimizga qadar jismoniy tarbiya avlodlar kamolotini taminlovchi vosita deb hisoblangan. Demak, ósib kelayotgan yosh avlodning jismoniy barkamolligini ta'minlash davlat ahamiyatiga molik ish hamdir.

Hozirga davrda sport tógarakalariga bólgan e'tiborning kun sayin oshib borishi fikrimizning erkin dalilidir. Ma'lumki, sport tógarakalari yoshlarni tarbiyalashning biologik omillariga, sharoitlaridan kelib chiquvchi biologik tabiatiga asoslanadi. Sport tógarakalarining mazmuni jismoniy kamolot, jismoniy holat diagnostikasi, jismoniy

tarbiya madaniyati, sport ishlari, jismoniy ma'lumot tushunchalarida óz ifodasini topadi. Jismoniy kamolot yosh avlod ichki a'zolarining ózgarishi, ósishidir. Birinchi navbatda yurak yo ópka, shuningdek nerv va harakat tizimi, tana shaklining ózgarishi, teri-muskul tizimi oǵirligi, tananing mukammal rivojlanishidir. Pedagogik tushunchada jismoniy kamolot deganda insondagi jismoniy ma'lumotning ósishi borasidagi ózgarishlar, yani oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga, nomukammallikdan mukammallikka tomon bولган ózgarishlar tushuniladi.

Óquvchilarning jismoniy kamolotlari uchun sharoit yaratish va pedagogik boshqarish jismoniy tarbiyaning vazifasidir. Sport tógarakalari tizimida jarayoni y kamolot diagnostikasi muhim órin tutadi. Jismoniy kamolot jismoniy tarbiya saviyasi, fan tili bilan aytiganda, jismoniy tarbiya samaradorligi kórsatkichidir.

Maxsus usul va jismoniy texnika asosida óquvchilarning soǵlıqlarini, har bir individual soha kamoloti saviyasini tashkil etish: belgilangan norma va undan uzoqlashish kórsatkichlarini oldindan belgilash negizida jismoniy tarbiya uchun doimiy kórsatkich aniqlanadi. Jismonan yetuklik deganda badanning tashqi kórinishidagi garmoniya, gózallik shakli, jismoniy sifatlarningyuqori darajadagi kamoloti tushuniladi. Agar diagnostika óquvchilarning yoki biron-bir óquvchining jismoniy va tibbiy kórsatkichlari pasayib ketayotganligini kórsatsa, demak, zudlik bilan jismoniy tarbiyadagi mavjud tizimni ózgartirish lozim. Shuning uchun ham maktablarda, individual yoki guruhli tartibdagi tógarak mashǵulotlarini tashkil etishni yólga qóyish kerak.

Jismoniy madaniyat jismoniy tarbiyaning tarkibiy qismidir. Shu bilan birgalikda, jismoniy madaniyat inson va jamiyat umumiy madaniyatining ham ajralmas qismi. Jismoniy madaniyat mazmuniga quyidagilar kiradi:

1. Inson azolarining tuzilishi va ularning funktsional kamoloti. Ichki azolar, nerv va harakat, suyak muskul tizimi, badanning uyǵunligi va ularning funktsional faoliyatini boshqarish.
2. Óquvchilarning soǵligini mustaxkamlash.
3. Gigiyena qoidalarga kónikish.
4. Óquvchilarning har tomonlama mohirlignni óstirish.
5. Bólajak ishchi—mehnatkashlarning jismoniy va fiziologi sifatlarini kasb ahamiyati jihatidan shakllantirish, ish kobilyatlarini oshirish.
6. Óquvchilarning jinsiy va yosh xususiyatlari uchun sharoit yaratish.
7. Óquvchilarning iroda, chidamlilik, qat'yanan intizom, dóstlik hissini kamol toptirish.
8. Shaxsiy jismoniy kobilyatlarini tarbiyalash.

Kórinib turibdiki, jismoniy tarbiya mazmuni benihoya kengdir. Bu vosita yoshtarimizning turmush tarzini, jismoniy madaniyat va sport asosida mazmunli shakllanishini taminlaydi. Ilgó pedagogik tajribalarning kórsatishicha, jismoniy tarbiya óquvchilarning turmush tarzi va dasturiga aylangandir. Ayniqsa jismoniy tarbiya darslari, sport tógarak mashǵulotlari, sport va jismoniy tarbiya targiboti, ishlab chiqarish talimi texnologiyasi va ishlab chiqarish amaliyoti borasidagi yutuqlarni raǵbatlantirishda, óquvchilarning uzoq vaqtgacha ish qobiliyatlarini saqlab turishda, yoshtarimizning jismoniy va fiziologik sifatlarini kasb mazmuniga boǵlash borasidagi jarayonlarda beqiyos ahamiyatga egadir.

Jismoniy madaniyat-sport ishlari yoki oddiy sport shu`balari, klublari, guruqlar yoki ommaviy musobaqalar va hokazolarda namoyon bóladi. Jismoniy tarbiya býicha óquvchilar bilan yakka tarzda ishlash natijasida azolari bóshashib qolgan, jismoniy kamiligi bor, darsdan ozod qilingan bolalarning sóqliklarnni tiklash ishlari olib boriladi. Bundan tashqari, jismoniy qobiliyatli bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olib ham individual mashǵulotlar yólga qóyiladi. Ayrim qobiliyatli bolalar, maktab va boshqa óquv yurtlarida ókish bilan birga ommaviy sport ishlarida, sport tógaraklarida shuǵullanib, yuksak natijalarini qólga kiritishlari, hatto, órta maxsus yoki oliy ma'lumot ham olishlari mumkin.

Jismoniy tarbiya ózining maxsus vazifasini bajarar ekan aqliy, axloqiy, mehnat, estetik va gigiena tarbiyasi bilan obektiv boglıqdır. Maktablarnı ta'limning yangi mazmuniga ótishi, óquv-bilish faoliyati hajmi va jadalligining oshib borishi bolalar organizmiga tobora yuqori talablar qóyilishini taqozo etadi. Jismoniy tarbiya bilan shuǵullanish organizmnning funktional imkoniyatlarini, aqliy va jismoniy ishslash qobiliyatini, óquv mehnatining unumini oshiradi. Jismoniy tarbiya vositalardan mohirlik bilan foydalanish, amaliy fikrlash, kuzatuvchanlik, topqirlik, mulohazakorlik va boshqa maxsus intelektual sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Bu shu bilan boglanadiki, harakatlanish faoliyati tóǵri tashkil qilinishi óquvchilardan diqqatni bir erga tóplash, maqsad va harakat usullarini tanlash, ularning natijalarini yaxshilash va baholashni talab qiladi.

Yuqorida keltirilgan fikr va tavsiyalardan kelib chiqib hozirgi davirda yurtimizda umumta'lim maktaktablarida o'quvchi yoshlarni sport tógaraklari vositachiligidida jismoniy yetuklikka erishish va ularni yoshligidan qandaydur sport turlariga yo'naltirsak oldimizga qo'yan maqsadimizga erishgan bo'lamiz.

### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommoviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'grisida"gi PQ-3031 sonli Qarori – 2017 yil 3-iyun.
2. Abdullaev A.A. Jismoniy tarbiya vositalari. Óquv qóllanma. Farǵona, 1999.
3. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. М., 1991.
4. Nasriddinov F.N., Shoternikov E.K. Inson omilini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport. T., «Óqituvchi», 1993.

## O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

***Raxmonova Mohira Abdujalolovna***

*Farg'onan viloyati Chet tillarni o'qitishga ixtisoslashirilgan Davlat umumta'lismaktab internati matematika fani o'qituvchisi*

***<https://doi.org/10.5281/zenodo.10068261>***

**Annotation:** in this article we will talk about the importance of education in the updated Uzbekistan, as well as about the reforms in the educational system.

**Keywords:** rates of change, education and training in the present time, the Ministry of Public Education, the education system, "strategy of action".

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yangilanayotgan O'zbekistonda ta'limning ahamiyati haqida, shuningdek, ta'lismizidagi islohotlar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** O'zgarish sur'atlari, hozirgi zamonda ta'lism-tarbiya, Xalq ta'limi vazirligi, ta'lismizimi, "Harakatlar strategiyasi".

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi xalq ta'lumi tizimi taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Milliy pedagogik tafakkur ta'sirichan ta'limning sog'lomlashtirish jarayoni boshlandi. Uzoq vaqt mobaynida tashqi dunyodan uzib qo'yilgan, o'zga mamlakatlar tarixiy tajribasidan ham, milliy ma'rifiy merosdan ham bahramand bo'lмаган milliy pedagogika jahon maydoniga chiqdi. Erishilgan natijalarni o'zgalarniki bilan qiyoslash, boshqalardan ijobiy jihatlarni o'zlashtirish imkoniyati paydo bo'ldi. Respublikamizda ta'limning yangi tizimini amalga oshirishda O'zbekiston hukumati tariximizdagi ta'lism jarayonlarini o'rganib chiqib, ta'lumi isloh qilish dasturini tayyorladi. Barcha e'tibor ta'lismizilarini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirilib, uning moddiy-texnik bazasini zamon va davr talablari darajasiga ko'tarish va O'zbekiston ma'rifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratildi.

Xalqaro standartga assosan har bir ta'lum darajasi uchun ta'lum dasturlari va ularga mos ravishda malaka talablari ishlab chiqilishi ta'lum sifatining oshishiga asos bo'ladi. Ta'lum tizimini darajalarga ajratish esa uning uzlusizligi va ketma-ketligini ta'minlaydi. Bu tushuncha va tamoyillar xalqaro ta'lum klassifikatsiyasining asosiy vazifalaridan biridir.

Jumladan, maktabgacha ta'lum tizimini rivojlantirish, umumta'lum maktablari faoliyatini yaxshilash, oliy ta'lum tizimini dunyo standartlari darajasiga olib chiqish, ularni xalqaro mingtalik reytingiga kiritish, ayniqsa, o'quv yurtlariga qabul qilishda ob'yektiv va adolatli tizimni o'rnatish, nufuzli chet el universitetlari filiallarini ochish kabi ko'plab amaliy ishlar bajarilmoqda.

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta'lum-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash,

ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta'lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilangan.

Hujjatda ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta'lim muassasalarini qurish, ta'mirlash va kapital ta'mirlash barobarida ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash nazarda tutilgan.

Ma'lumki, mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimini yana-da takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish maqsadida Prezident farmoni loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur hujjat regulation.gov.uz portaliga qo'yilib, barcha hududlarda, mahalliy kengashlarda va maktab jamoalarida ota-onalar ishtirokida keng muhokama qilindi. Farmon loyihasida ta'limdagi hozirgi muammolarni hal qiladigan, yaqin besh yilda natijasini ko'rsatadigan va keyingi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan maqsadlar qamrab olingan.

Jumladan, jamiyatda muallimning obro'-e'tibori va maqomini ko'tarish, o'quv dasturlari va metodikasini to'liq qayta ko'rib chiqish, maktabni ta'limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog'lash, o'qituvchilarni ortiqcha qog'ozbozlikdan xalos etib, o'z ustida ko'proq ishlashi uchun sharoit yaratish va shuni rag'batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma'naviy muhitni yaxshilash kabi masalalarning yechimlari aniq belgilab berilmoqda. Eng asosiysi, joylardagi rahbarlarning, shuningdek, mahalliy kengashlarning ushbu muhim masalaga yondashuvi va e'tiborini tubdan o'zgartirish, ularning mas'uliyati, javobgarligi va hisobdorligi mexanizmlari kiritilmoqda.

Keyingi bir yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining yetmishga yakin qaror, farmon va farmoyishlari qabul qilindi. Bu tom ma'noda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev o'zining "Taqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" asarida ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar axvoli Taqidiy tahlil qilib, bir qator vazifalarni amalga oshirishga e'tibor qaratdilar.

Prezidentimizning 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish va yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Farmonda Xalq ta'limi vazirligi zimmasiga bir qator vazifalar yuklatilgan.

Xususan, ta'lim tizimining asosi bo'lgan Milliy o'quv dasturini yaratish ana shunday muhim vazifalardan biridir. U avvalgi Davlat ta'lim standartidan tubdan farq

qiladi, ko'proq amaliyotga yo'naltiriladi. Mazkur dasturni ishlab chiqishda xalqaro ekspertlar jalg qilinadi va u xalqaro standartlarga muvofiqlashtiriladi.

Farmonda, shuningdek, pedagoglar malakasini oshirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan, aniq vazifalar belgilangan. Ayni paytda xalq ta'limi tizimida o'qituvchilar uchun har besh yil, rahbarlar uchun esa har uch yilda malaka oshirish tartibi amal qilyapti. Bundan buyon ana shu besh yillik muddat qisqarib, kredit-modul` asosida malaka oshirish tizimi yo'lga qo'yiladi. O'qituvchilar malakasini oshirishda nafaqat xalq ta'limi tizimidagi malaka oshirish institutlari yoki markazlari, balki oliy va nodavlat ta'lim muassasalari mutaxassislarini ham jalg etish ko'zda tutilgan.

Farmonda kasbga yo'naltirish tizimini joriy qilish ham asosiy masalalardan biri sifatida belgilangan. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida maktab bitiruvchilarining qo'lida muayyan kasbi bo'lishi kerak. Chunki oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirolmagan o'quvchilar qaerdadir ishlashi, ro'zg'or tebratishi zarur. Ayni shu maqsadda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi mahalliy hokimliklar bilan birgalikda 7-sinfdan boshlab o'quvchilarni kasbga moyilligini aniqlash va ularni yo'naltirish ishlarini amalga oshiradi.

Farmonning eng muhim jihatni va ahamiyati shundan iboratki, u ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, yangi bosqichga ko'tarish, kelajakda farzandlarimizning yetuk mutaxassis bo'lib etishishiga zamin yaratadi.

Prezidentimiz tabiri bilan aytganda: – “Bugun ko'rib chiqilgan masalalar hammadan, maktab direktoridan boshlab Bosh vazirgacha bo'lgan barcha bo‘g‘indagi rahbarlardan yuksak mas’uliyat va yuqori darajadagi javobgarlikni talab qiladi. Bu – yillar davomida ko‘rinmaydigan, ammo natijasi yaqin 10-15 yilda butun mamlakat qiyofasini tubdan o‘zgartirishga asos bo‘ladigan qudratli manba”.

Ma'lumki, mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimini yana-da takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish maqsadida Prezident farmoni loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur hujjat regulation.gov.uz portaliga qo'yilib, barcha hududlarda, mahalliy kengashlarda va maktab jamoalarida ota-onalar ishtirokida keng muhokama qilindi. Farmon loyihasida ta'limdagi hozirgi muammolarni hal qiladigan, yaqin besh yilda natijasini ko'rsatadigan va keyingi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan maqsadlar qamrab olingan.

Jumladan, jamiyatda muallimning obro‘-e’tibori va maqomini ko‘tarish, o‘quv dasturlari va metodikasini to‘liq qayta ko‘rib chiqish, maktabni ta’limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog‘lash, o‘qituvchilarni ortiqcha qog‘ozbozlikdan xalos etib, o‘z ustida ko‘proq ishlashi uchun sharoit yaratish va shuni rag‘batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma’naviy muhitni yaxshilash kabi masalalarning yechimlari aniq belgilab berilmoqda.

Eng asosiysi, joylardagi rahbarlarning, shuningdek, mahalliy kengashlarning ushbu muhim masalaga yondashuvi va e’tiborini tubdan o‘zgartirish, ularning mas’uliyati, javobgarligi va hisobdorligi mexanizmlari kiritilmoqda.

Yig‘ilishda ta'lim sohasidagi muammolar, ularni hal etib, ta'lim sifatini oshirishga oid vazifalar muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o‘quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko‘rib chiqish, o‘quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta’kidladi.

Bu borada Finlyandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo‘yicha dunyoda eng ilg‘orlardan biri.

– Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Dunyodagi zamonaviy o‘quv dasturlari, o‘qitish metodikalarini o‘rganib, yurtimiz umumta’lim maktablarida joriy qilish muhimligi ta’kidlandi. Xalq ta’limi vazirligiga ushbu tajriba asosida Milliy o‘quv dasturini ishlab chiqib, 2021/2022 o‘quv yildidan boshlab ta’lim jarayoniga sinov tariqasida tatbiq etish vazifasi qo‘yildi.

Yangi metodikani samarali yo‘lga qo‘yish uchun barcha mакtab o‘qituvchilar videoaloqa orqali xorijiy mutaxassislar ishtirokida o‘qitiladi. Eng muhimi, bu jarayonlarga pedagogika yo‘nalishidagi universitet va institutlar ham jalb qilinib, pedagog kadrlar tayyorlash metodikasi ham yangilanadi. Shuningdek, matematika, fizika, kimyo, biologiya va informatika fanlari bo‘yicha chet ellardagi ilg‘or darsliklar chuqur o‘rganib chiqiladi.

### **Adabiyotlar:**

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi «Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538 sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori.  
<https://lex.uz/docs/-5085887>

**GIPOTERIOZ BILAN OG'RIGAN ONALARDAN TUG'ILGAN AVLODNING  
ICHAK TUTQICH LIMFA TUGUNLARINI POSTNATAL RIVOJLANISHI**

***Ergashev Suhrob Toxir o'g'li***

*O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni Saqlash Vazirligi, Toshkent Tibbiyot Akademiyasi.*  
*Anatomiya va OXTA kafedrasi assistenti*  
*[suhrobergashev955@gmail.com](mailto:suhrobergashev955@gmail.com)*

***<https://doi.org/10.5281/zenodo.10069623>***

**Annotatsiya:** Ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatdiki, tireoid gormonlarning juda keskin yetishmasligi oqibatida gipotireoz kasalligi rivojlanadi. Gipotireoz - endokrin kasallik bo'lib, qalqonsimon bez gormonlarining qonga tushishi kamayishi yoki to'liq to'xtashi bilan rivojlanadi. Bu gipotireozning ekstremal, klinik ko'rinishdagi shakli bo'lib, teri va teri osti to'qimalarining shilliq osti qavatining shishishi bilan tavsiflanadi, ushbu shishlar yuz va bo'yinda yaqqol namoyon bo'ladi. Biroq, hattoki inson va xayvonlarda juda kam miqdorda tireoid gormonlarni yetishmasligi oqibatida turli a'zo va to'qimalarida o'zgarishlar keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu jarayonlar natijasida organizmda metabolizm jarayonlarini buzilishiga olib keladi, natijada turli a'zo va to'qimalarida, morfologik va funksional o'zgarishlar kuzatilishi, jumladan, mezenterial limfa tugunlarining o'zgarishlariga olib kelishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Gipertireoz, Limfa tuguni, Mezenterial limfa tuguni, immun tizim.

**Kirish:** Immun tizimining periferik organi sifatida yonbosh ichak tananing barcha yuqumli kasalliklarida bevosita ishtirok etadi. Yonbosh ichak kasalliklarida ishtirok etish natijasida bir qator klinik va morfologik belgilar paydo bo'ladi. Asosiysi, ichak devoridagi metabolik kasalliklarning rivojlanishidan kelib chiqadi. Natijada meteorizm, ya'ni gazlarning to'planishi, og'riq, ichak harakatida o'tkir hidli gaz, tezlashtirilgan ichak harakati, tarkibidagi najas, gazlar va yog' zarralarining suyuqligi kuzatiladi. Umumi infektsiya va sepsis natijasida yonbosh ichakda o'tkir va surunkali ileit, enteropatiya, ichakning Gordon kasalligi va birlamchi enteropatiya rivojlanadi. Ingichka va yo'g'on ichakning shilliq va shilliq osti qatlamlaridagi strukturaviy o'zgarishlarni bilish muhimdir. Shilliq qavat va shilliq osti qavatining periferik immunitet tuzilmalarining to'planishining asosiy joylari bo'lib, suvsizlanishning yuqori darajasi va immunitetning siljishi bilan tavsiflanadi. Aksariyat mualliflar yonbosh ichakning limfold tuzilmalarini organizmning immun tizimiga sezilarli darajada ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Ularning tadqiqotlarining ahamiyati shundaki, ekstremal omillar ta'siri natijasida so'nggi vaqtarda diagnostik endoskopiya va biopsiyaning klinik amaliyotda keng qo'llanilishi organizmning umumi immun holatini baholashda yordam beradi. Organizmning me'da-ichak tizimi orqali immun javob ko'rsatishda T-limfotsitlar alohida o'rinn tutib, ular malekulalararo o'zaro ta'sirini mikroorganizmning immun sistema hujayralari bilan o'zaro ta'sirini ta'minlaydi. Ularning asosiy vazifalari infektsion agentni erta aniqlash, fagotsitlar, T- va B-

limfatsitlarini aktivlovchi yallig'lanishga qarshi sitokinlar genini ekspressiyasini ta'minlashdir. Muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlarda lipopolisaxaridlar stimullovchi yallig'lanishga qarshi sitokinlar IL-1, IL-8, FNO- $\alpha$  sekretsiyasi past bo'ladi. Birinchi faza immun sistema hujayralari faollahishi bilan kechadi va tizimli yallig'lanish javob sindromi (TYaJS) ko'rinishida bo'lib, yallig'lanish sitokinlari (FNO- $\alpha$ , IL-1, IL-8, S-reaktiv oqsil, prokaltsitonin) sintezi bilan kechadi. Neytrafillar sonining o'sishi fonida ular yuzasida CD4+ ekspressiyalarini. Septik shok va og'ir sepsislarda yallig'lanish mediatorlarining qon oqimida keskin ko'payishi poliorgan yetishmovchilikka olib keladi.

Bir qancha adabiyotlarda yangi tug'ilgan kalamushlarda mezenterial limfa tugunlarining topografiyasi va tuzilishiga turli omillarning ta'siri masalalarinatijasida ichaklarda o'zgarishlarni o'rganishga bag'ishlangan. Lekin aynan mezenterial limfa tugunlarini turli ta'sirlar natijasida o'zgarish mexanizmi yoritib berilmagan.

So'nggi yillardagi adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, gipotireoz kasalligini naslning mezenterial limfa tugunlariga ta'siri yetaricha o'rganilmagan va mavjud ma'lumotlar asosan qarama-qarshidir. Inson va hayvon organizmidagi har bir a'zosi boshqa a'zolar va tizimlar bir biri bilan chabarchas bog'liq va ularni alohida ko'rib chiqish mumkin emas. Mezenterial limfa tugunlari qon-tomirlar va xazm a'zolari tizimiga kiradi, ular o'z-o'zidan faoliyat ko'rsatmaydi.

Hozirgi kunda qalqonsimon bez patologiyasining onalardan avlodiga ta'siri butun dunyo olimlarini qiziqtirib kelmoqda. Bu xolat tug'ruqdan keyingi hayot davomida ham, embriogenetik davrida ham ontogenetik jarayonlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega va birinchi o'rnlardan birini egallab kelmoqda.

Tireoid gormonlarning organizmda yetishmasligi yoki miqdorining oshib ketishi markaziy asab tizimiga, umumiy metabolik jarayonlarga, morfogenez va organlarning fiziologik funksiyalarini tartibga solishning neyro-endokrin mexanizmlariga keng ta'sir tufayli metabolizm, o'sish va rivojlanishning yetakchi qo'zg'atuvchilaridan biridir.



**Metodlar:** Tajriba uchun oq labarator kalamushlardan foydalandik bunda kalamushlarni 2 gruhga bo'lib oldik birinchi guruhi nazorat guruhi ikkinchi guruhi tajriba guruhi nazorat gurihiga 100 gr tana vazniga 1 ml 1 % kraxmal suspenziyasi berib borildi tajriba guruhi uchun dastlabki 14 kun davomida 100 gr tana vazniga 0,5 mg merkazolil berib borildi so'ngra 100 gr tana vazniga 0,25 mg ushlab turiluvchi merkazolil berib borildi

### **Ishda qo'llanilgan histologik va histokimyoviy usullar**

Tekshiruvga olingen a'zodan 0,5 x 1 x 1 sm dagi na'munalar kesib olinadi va uni fiksatsiya yuvish. № 1- spirit 50 % 1 soat № 2- spirit 60 % 1 soat № 3- spirit 70 % 1 soat № 4- spirit 80 % 1 soat № 5- spirit 96 % 1 soat davomida degidratatsiya amlga oshiriladi. Keyingi tayyor bo'ladi.

**Tajriba guruhi kalamushlarining MLTlarining Postnatal rivojlanishining 30 kun.  
Mag'iz sinuslarining bo'shlig'ida kichik, o'rta limfotsitlar va plazma hujayralari.  
Yarim kesilgan.**

Organning keyingi o'sishi miqdoriy va sifat jihatidan o'zgarishlar bilan birga keldi. Postnatal ontogenezning 30-kuniga kelib, MLTlari yetuk kalamushlarining limfa tugunlariga xos bo'lgan tuzilishga ega bo'ldi. Kapsula va trabekulyar apparatlar o'zlarining maksimal rivojlanishiga erishdilar. Ular sezilarli darajada qalinlashgan va alohida biriktiruvchi to'qima hujayralari va kollagen tolalarini o'z ichiga olgan. Retikulyar hujayralar jarayonlari follikullar orasiga cho'zilgan, go'yo ularni cheklab qo'ygan. Follikullar ichida kam sonli retikulyar hujayralar mavjud edi. Bu davrda tugunlarda germintativ markazlari bo'lgan limfatik follikullar aniqlangan, ular ikkilamchi follikullar deb hisoblanishi kerak. Ularning germinal markazida asosan blast hujayralari, makrofaglar va retikulyar hujayralar lokalizatsiya qilingan, ular orasida mitotik bo'linish holatidagi hujayralar mavjud edi. Kortikal qismida kichik limfotsitlar, makrofaglar va plazma hujayralari mavjud. Marginal sinus va limfa follikullari o'rtasida joylashgan marginal zonaning stromasi aniq retikulyar tolalar tarmog'i bilan ifodalangan. Sinuslar kengaygan, ularning bo'shlig'ida kichik, o'rta limfotsitlar, plazma hujayralari, bitta granulotsitlar mavjud. Sinuslarning bo'shlig'ini kollagen va retikulyar tolalardan tashkil topgan iplar kesib o'tgan. Parakortikal zonada mayda limfotsitlar, shuningdek, asosan postkapillyar venulalar atrofida joylashgan plazma hujayralari va makrofaglar mavjud edi. Mag'iz qismida kichik va o'rta limfotsitlar, retikulyar hujayralar va qon kapillyarlarini o'z ichiga oladi. Plazma hujayralarining eng ko'p soni mag'iz qismida joylashgan. Bu vaqtga kelib, organning T ga bog'liq (Po'stloq qismi, parakortikal zona) va B ga bog'liq (limfa follikullari, mag'iz qismlari) zonalari ham aniq farqlanadi.



**Keyinchalik, biz tug'ruqdan keyingi ontogenez dinamikasida MLT ni morfometrik  
o'rganishni amalga oshirdik.**

Kalamushlar tug'ilgandan keyin 21-30 kunlarda, ularning aniq ovqatlanishga o'tishi va organning tarkibiy va funktsional qayta tashkil etilishi, uning shakllanishi, butun hudud, shuningdek, alohida strukturaviy va funktsional zonalar paydo bo'lindi. etuk hayvonlarnikidan sezilarli darajada farq qiladi.

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ**

1. Ахмедова С.М., Миршарапов У.М. Гистологическое строение сердце крысят в ранних этапах онтогенеза // Уральский медицинский журнал 2015, №3, С. 115-119.
2. Бакшеева Е.В. Некоторые патогенетические механизмы формирования сердечной недостаточности при гипо-и гипертиреозе: Автореф. дис. ...канд. мед. наук: 14.00.16; ГОУ ВПО Читинская государственная медицинская академия. – Чита, 2005. – 22 с.
3. Батчаев Э.О. Особенности поражения сердца при первичном гипотиреозе. : Автореф. дис ...канд. мед. наук: 14.00.06; 14.00.02; Санкт-Петербургская медицинская академия последипломного образования. – Санкт-Петербург, 2005. – 22 с.
4. Браверманн Л.И. Болезни щитовидной железы: учеб. пособие. - М.: Россия, 2000.
5. Бланкова З.Н., Агеев Ф.Т., Середенина Е.М. Рябцева О.Ю., Свирида О.Н., Иртуганов Н.Щ. Гипотиреоз и сердечно-сосудистые заболевания. //РМЖ. – 2014. - №13. – С. 980–86.

## KREDIT RISKINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

*Muazzamov Akmal Akbar o'g'li*  
*Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10072979>

**Abstract:** This article tries to improve credit risk management and reveal its specific aspects.

**Key words:** Scoring, political, economic, organizational, credit risks, customer composition and credit, liquid, insurance.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kredit riskini boshqarishni takomillashtirish va uning o'ziga xos tomonlarini ochib berishga harakat qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Skoring, siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy, kredit risklari, mijozlar tarkibi va ssuda, likvid, sug'urtalash.

### INTRODUCTION

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi avvalambor, unda amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari bilan chambarchas bog'liq. Bank tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiy sohadagi ustuvor vazifalarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Respublikamiz bank faoliyati, tijorat banklari rivojlanishi, ularning erkinlashuvi juda murakkabmuhitda, ya'nii iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy raqobat muhitida shakllanmoqda. Bugungi kunda bank faoliyatini erkinlashtirish sharoitida banklararo raqobatning kuchayishi va uning takomillashuvi zaruriyatga aylanib bormoqda.

Tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarini to'la-to'kis olib borish, kredit riskini boshqarish ular tomonidan kredit siyosatining qay darajada tashkil etilganligiga bog'liq. Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarni hisobga olgan holda, o'z kredit siyosatini shakllantirishi bank kreditlashining muhim jihatni hisoblanadi. Bu kreditlarni boshqarishning asosi hisoblanadi.

Oqilona kredit siyosati bank kredit portfeli sifatining oshirishga olib keladi. Tegishli ravishda, kredit siyosatining maqsadi, huquqiy tartibga solish diapozoni, mablag' olish imkoniyati, eng yuqori risk darajasi, ssuda portfeli balansi, muddatlar bo'yicha majburiyatlar va aktivlar tuzilmasini hisobga olish kerak. Shuningdek, kredit siyosatini ishlab chiqishda asosiy tamoyillarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Hozirgi davrda tijorat banki kredit portfelini boshqarishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- kredit riski darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni baholash;
- ssudalarni risk guruhlari bo'yicha tasniflash;
- kredit portfelini kredit risklari, mijozlar tarkibi va ssudalar tarkibi bo'yicha optimallashtirish;
- qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy ahvolining, kredit riskini prognoz qilish maqsadida o'zgarishi ehtimolini aniqlash;
- muammoli ssudalarni oldindan aniqlash;
- yaratilayotgan zahiraning yetarlilagini baholash va uni o'z vaqtidato'g'rilib borish;

- kredit qo'yilmalarini diversifikatsiya qilishni, ularning likvidliligini va daromadliligini ta'minlash;
- bankning kredit siyosatini ishlab chiqish va uni kredit portfelining sifati tahliliga asoslangan holda to'g'rilab borish.

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishda yuqoridagi tamoyillarga amal qilish, bankning kredit faoliyati samaradorligini oshiradi, o'z navbatida, bankning ko'radigan foydasi ham oshadi. Kuchli raqobatchilik muhitida bank kredit siyosatida kredit menejmentiga alohida e'tibor berish muhimdir, bu bankga bozor sharoitida samarali faoliyati yurg'izishi uchun zarur.

Ma'lumki, tijorat banklari faoliyatida olinadigan foydaning 80-85 foizgacha bo'lgan qismi uning kredit operatsiyalariga to'g'ri keladi. Shu sababli, har qanday bank o'zining aniq va yo'naltirilgan kredit siyosatiga, kredit portfelini samarali boshqarish mexanizmiga ega bo'lishi shart. Bu esa bank tomonidan beriladigan kreditlarning o'z vaqtida to'liq so'ndirilishi va bank foydasining kafolatidir.

Hozirgi vaqtda bank kredit portfelini boshqarishdagi muammolar asosan bozor munosabatlariga o'tish sharoitidagi iqtisodiyotning ahvoli bilan bog'liq bo'lgan muammolar hisoblanadi:

- aholi ayrim toifasining to'lov qobiliyati pastligi va oladigan daromadlar yetarli darajada emasligi;
- olingan kreditlarning ko'pchilik holatlarda maqsadsiz ishlatilishi;
- tijorat banklarida jismoniy shaxslarning kredit qobiliyatini baholash bo'yicha takomillashgan tizimning mavjud emasligi;
- banklarning yetarli resurs bazasiga ega emasligi;
- respublikamiz tijorat banklari kreditlash amaliyotida kredit shakllaridan to'laqonli foydalanilmayotganligi;
- tijorat banklari kreditlarining tarmoqlar va hududlar bo'yicha taqsimlanishida diversifikatsiya darajasining pastligi, ya'ni mamlakatning qatortijorat banklarida kredit portfelini diversifikatsiyalash talabiga rioya etilmayotganligi;
- kredit risklarini yuzaga keltiruvchi omillar, eng avvalo bank tomonidan aniq kredit siyosatining ishlab chiqilmaganligi;
- olinayotgan garovlarning to'g'ri tanlanmasligi;
- bundan tashqari kredit portfelining katta qismini bir tarmoqqa tegishli mijozlar tomonidan egallab olishi holatlari;
- moliyaviy hujjatlar tahliliga yuzaki yondashish;
- mijoz talab qilgan mablag'ning to'liq asoslanganligini aniqlashda qo'yilgan xatoliklar;
- kredit hujjatlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassisning yetarli malakaga ega bo'lmay qolishi (hozirgi sharoitda qoida va talablarning tez o'zgarib turishida bo'lishi mumkin);
- ta'minotlarning yetarli bo'lmasligi (garov bahosining asossiz ravishda yuqori bo'lishi);
- hujjatlarni tayyorlashda yo'l qo'yilgan xatoliklar (bank manfaatlarini yetarli himoya qilinmasligi);
- berilgan kredit bo'yicha muddat aniqlashda xatoliklarga yo'l qo'yish; qarzning so'ndirilish davrida yetarli nazoratning bo'lmasligi.

Yuqoridagi bayon qilingan barcha muammolar hozirgi kunda respublikamizda

mavjud bo'lgan barcha tijorat banklari uchun dolzarb, birlamchi, muammolar bo'lib hisoblanadi.

Banklarning kredit faoliyatini tekshirish amalda shuni ko'rsatadiki, bankning ichki me'yoriy hujjatlari va ushbu me'yoriy hujjatlarda mujassam bo'lgan kreditlashtartibotlari muammoli kreditlar paydo bo'lishidan ularni ko'p hollarda to'liq himoya qila olmaydi. Mazkur me'yoriy hujjatlarga kredit bo'limining Nizomi va mansabdorshaxslar tomonidan qaror qabul qilinishi muvofiqlashtiruvchi yo'rinqoma ko'rinishidagi materiallar, vakolatlar taqsimoti, kredit berish to'g'risidagi ko'rsatmalar, Kredit qo'mitasi to'g'risida Nizom va boshqa shu kabilar kiradi. Ushbu me'yoriy hujjatlarni mavjudligi banklarda kredit ishini maqsadga muvofiq tashkil qilinishiga sharoit yaratadi hamda xodimlarning o'z vazifalariga bo'lgan mas'uliyatni oshiradi.

Ma'lumki, ko'p holatlarda katta miqdordagi kreditlar bankning hissadorlariga, ya'ni bankga aloqador bo'lgan shaxslarga beriladi. Bunda ular kelishilgan xolda bir-biriga kafolatlar berib, ba`zi holatlarda kredit taqdim etayotgan bankga hech qanday hujjatlar bermaydilar.

Natijada, bunday tartibda taqdim etilgan kreditlar muammoli kreditlargaaylanib, ularning muddatlari bir necha marotaba uzaytiriladi.

Qarz oluvchining garov majburiyatları rasmiylashtirilishi jarayonida bankning mutasaddi xodimlari tomonidan ushbu jarayonga yetarli darajada e'tibor berilmagan. Natijada shunday holatlar aniqlanganki, qarz oluvchi o'zining xususiy bo'limgan dala-hovlisini yer uchastkasi deb garovga qo'ygan va shunga qaramasdan bank tomonidan unga kredit ajratilgan. Bundan tashqari garovga qo'yiladigan mahsulotning sertifikati, narxi to'g'risidagi ma'lumot hamda zarurbo'lgan boshqa sug'urta hujjatlari yetishmaydi. Yoki sug'urta hujjatlari keraklicha to'liq bo'lmasligi va noto'g'ri rasmiylashtirilishi ko'p uchraydi. Ayrim holatlarda sug'urta badalini qarz oluvchi to'maganligi sababli sug'urta shartnomasi yuridik kuchga ega bo'lmay qoladi, natijada taqdim etilgan kredit qaytmaslik xataridan xaqiqatda sug'urtalanmagan bo'lib qoladi. Bu esa o'z navbatida bank kredit portfeli sifatining pasayishi va unda muammoli kreditlar salmog'ining o'sishiga olib keladi.

Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarga yo'l qo'yimaslik uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ushbu boradagi yo'rinqnomalari va tijorat banklarining kredit siyosatlari hamda kreditlash yuzasidan ichki kredit tartibotlari talablariga qat'iy rioya etish zarurdir.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari kreditlash jarayonini takomillashtirish, kredit riskini samarali boshqarishda o'z kredit portfellarini iloji boricha ko'proq chuqur tahlil qilib borishlari lozim.

Bizga ma'lumki, mijozlar tomonidan kreditni qaytarish istiqbolini aniq baholash va yo'qotishlar miqdorini kamaytirish maqsadida muqobil xarakatlar dasturini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Kreditlarni qaytarishdagi muammolarni o'z vaqtida aniqlash va tegishli choralarни ko'rish natijasida muammoli kreditlarning ma'lum qismini bank uchun zararga aylanishiga chek qo'yish mumkin.

Ayni vaqtda bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida vaziyat shunday shakllanishi mumkinki, bunda ko'rilgan barcha chora-tadbirlarga qaramasdan, faqat kreditni undirish strategiyasini ishlab chiqish mumkin emas. Kreditlarni berish shartlarini turlicha ekanligi va muammoli ssudalarning yuzaga kelishidagi sharoitlarning bir xilda emasligi har bir muammoli ssudaga individual yondashuvini talab qiladi, ammo shunga qaramasdan muammoli kreditlarni undirish yuzasidan umumiy tizim ishlab chiqilishi lozim. Shunisi xarakterlik, kreditni undirish strategiyasini mijoz ahvolini oldindan tahlil qilmasdan turib, aniqlash mumkin emas.

Shu boisdan mijozning molivaviy ahvolini baholash va vaziyatini kelgusida

rivojlanish proqnozini ishlab chiqish zarur.

Jismoniy shaxslarning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini baholashda bir muncha kamchiliklarga egamiz. Mamlakatimizda jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliliginib baholashda, uning yillik daromadlari dinamikasi tahlil qilinadi va agarda uning daromadi kreditning asosiy qarzi va unga hisoblanib boriladigan foiz stavkasini to'lash qobiliyati bo'lsa, kredit so'zsiz taqdim etiladi. Lekin boshqa bir ko'rsatkichlar hisobga olinmaydi. Jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliliginib baholashda "Skoring" usulidan foydalanishni yo'lga qo'yishni tavsiya etamiz. "Skoring" usulida mijozning nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy ko'rsatkichlari bo'yicha ham baho beriladi.

Shuningdek, garovni joriy qiymatini belgilab va sotilishi mumkin bo'lgan alohida aktivlarning joriy qiymatini belgilab olish mumkin. Kreditlarni undirish ehtimolini quyidagi holatlarda taqqoslash maqsadga muvofiqdir:

1. Kreditlashning qo'shimcha hajmlarini berish.
2. Mavjud qarzni undirilishini zudlik bilan talab qilish.
3. Qarzni restrukturizatsiya qilish.
4. Foizlarni to'lash muddatini uzaytirishga ruxsat berish.

Bank muammoli kreditlarni undirish strategiyasini ishlab chiqish uchun avval mijoz to'g'risida yetarli darajada ma'lumotlar to'planishi zarur. Buning uchun esa mijozning joriy ahvolini qo'shimcha tarzda mukammal tahlil qilish lozim. Tahlilni amalga oshirish uchun bank yetarli darajada ichki resurslarga ega bo'lishi kerak. Ayrim tijorat banklari o'zlarining ixtisoslashtirilgan bo'limlarini tashkil qiladilar, ko'pchilik tijorat banklari esa xolis auditorlik firmalarini maxsus tahlilini amalga oshirish uchun jalb etadilar. Zarur ma'lumotlarni yig'ish uchun bank xodimlari, ya'ni auditorlarning mijoz bilan uzviy aloqada bo'lishi zarurdir.

Kredit shartnomalarini tuzilish oqibatlari, hujjalarda aniq aks ettirilgan bo'lishi shart. Bunday oqibatlar odatda bank tomonidan qarzni undirish to'g'risidagi talabni qo'yilishini anglatadi. Bank har bir konkret vaziyatda qarzni talab qilishi huquqidан foydalanishini maqsadga muvofik ekanligini anglab olishi kerak. Agarda qarzni zudlik bilan undirish maqsadga muvofiq bo'lmasa, unda kreditni restrukturizatsiya qilish shartlari aniqlab olinishi lozim. Rivojlangan xorijiy davlatlarda mijoz bir vaqtning o'zida bir necha bankdan kredit olish huquqiga egadir.

Shu sababli bank o'z mijozini boshqa banklardan olgan barcha kreditlari va ularni shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim. Shuningdek ushbu mijozning har bir kreditlarini ustun jihatlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi lozim.

Muammoli kreditlar bilan bog'liq holatlarni tadbiq qilish va ekspertlar tavsifnomalarini ko'rib chiqish natijasi bo'yicha bank ma'lum xarakat variantini ishlab chiqishi lozim. Bank muammoli kreditni undirish uchun ixtiyorida qancha vaqt qolganligini aniq bilishi va u kreditni undirish yuzasidan ko'rayotgan chora-tadbirlarni qarzni qaytarish imkoniyatlariga salbiy ta'sir qilmasligiga ishonishi lozim. Kreditni qoplashni to'lovga noqobil qarzdorlariga nisbatan qo'llaniladigan tadbirlar doirasida yoki bu doiralardan tashqarida amalga oshirilishi mumkin. Birinchi holatda huquqiy tadbirlar qo'llaniladi. Ikkinci holatda esa qarzdor korxonani qayta tashkil etish va kreditorning qarzini restrukturizatsiya qilish talab qilinadi.

Qarzdorlarning moliyaviy ahvoli yomonlashishi sababli to'lovning dastlabki shartlari o'zgargan kreditlar restrukturizatsiyalangan hisoblanadi. Agar bank tomonidan quyidagi amallarning hech bo'lmaganda bittasi bajarilsa, kreditlar restrukturizatsiyalangan hisoblanadi.

- foiz stavkasining kamaytirilishi yoki hisoblangan foizlarning undirib olinmasligi;
- jami asosiy qarzning kamaytirilishi yoki undan voz kechishi;
- kreditni to'lash muddatini kechiktirilishi yoki uzaytirilishi;
- foizlarga doir to'lovlarning bir qismi yoki umumiy miqdoridan voz kechish;
- oddiy sharoitlarda qarzdorlarga berilmay, balki kreditni resstruktruzatsiyalash zarurligi natijasida qilinishi mumkin bo'lgan yoki yon berishlar.

Korxonani qayta tashkil etish muammoli kreditlarni undirish strategiyasiningkeng tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi. Bunda mijoz faoliyatini mo'tadillashtirish maqsadida moliyalashtirish amalga oshiriladi. Odatda bunday hollarda tijorat banklari berilgan kreditlarni muddatini uzaytirishga, foizlarni to'lash muddatini kechiktirishga rozi bo'ladi.

Ayrim tijorat banklari hatto mijozning moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida unga qo'shimcha pul mablag'i beradi. Ana shunday yo'l bilan bank vakillarini korxona boshqaruvin organlariga kiritish ta'minlanadi. Bank bergan kreditlarni nazorat qilib turish zarur va bu zarurat berilgan kreditni o'z vaqtida qaytarilishini, kelishilgan shartlarni to'g'ri bajarilishini va bu kreditlarning oxir-oqibatda muammoli kreditlar qatoriga qo'shilib ketmasligini ma'qullashga qaratilgandir. Shu bilan bir qatorda paydo bo'ladigan muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ularga qarshi choralar ko'rishdir. Bundan kelib chiqadigan maqsad shundan iboratki, berilgan kreditlar bo'yicha muammolar paydo bo'layotganini oldindan aniqlasa, bank mijoz bilan maslahatlashgan holda, uzoq kelayotgan muammoni oldini olishi mumkin.

Banklar eng avvalo bergan kreditlarini foizlari bilan hech qanday muammosiz va ortiqcha sarf-xarajatsiz ishlatib foyda olishni hoxlaydilar. Berilgan kreditlar ustidan keyingi nazorat bank rahbariyati uchun nafaqat qarzdor ustidan nazorat qilishdir, balki kredit bo'limi mutaxasislarining bankning kredit siyosatiga qay darajada rioxanasi qilayotganligini nazorati hamdir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari kredit riskini boshqarishda, banklar tomonidan berilayotgan kreditlarning ahamiyati nihoyat yuqoriligini inobatga olgan holda, ushbu ajratilayotgan kreditlarning samaradorligini baholash va qaytishini ta'minlash tijorat banklari zimmasiga zarur vazifalarni yuklashga olib kelmoqda.

Ma'lumki, hozirgi sharoitda tijorat banki tomonidan berilgan asosiy qarz summasi va hisoblangan foizlarni o'z vaqtida qaytirishini kafolatlash uchun uzuksiz amaliyotni nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunisi xarakterlik, kreditni sifat jihatidan butun kredit operatsiyasi vaqt mobaynida kamdan-kam hollarda o'zgarmasdan qoladi. Mijozning moliyaviy imkoniyatlari iqtisodiyotning holati, garov bahosi xilma-xil omillar ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib turadi va tabiiyki, kreditning sifatiga ta'sir qiladi. Berilgan kreditlar ustidan amalga oshiriladigan nazorat jarayoni quyidagi ikki asosiy yo'nalishni o'z ichiga olishi kerak:

1. Operativ ma'lumot va ta'sir qiluvchi omillar ustidan nazorat qilish.
2. Kredit operatsiyalarini to'liq va mukammal tahlil qilish ustidan nazorat.

Kreditlar ustidan joriy nazoratni amalga oshirishda ushbu operatsiyalar turli darajalarda ikkita holis mansabdor shaxs tomonidan tekshirilishi lozim. Avvalo, joriy nazorat jarayoni ushbu mijozni kreditlashni amalga oshirgan yoki ushbukreditni ishini yuritish topshirilgan bank xodimi tomonidan amalga oshirilishi lozim. Bundan tashqari, har bir kredit ishini ma'lum davriy oraliqlarda tahlil qilib borish, kredit operatsiyalarini amalga

oshirib borish ustidan nazorat qilish topshirilgan shaxs tomonidan amalga oshirilishi lozim. Bunday ikki pog'onali tizimda har ikkala pog'onaning to'liq mustaqilligini ta'minlash muhim ahamiyatga egadir va nazorat tizimidagi xodim kredit berish to'g'risidagi qarorda ishtirok etmagan bo'lshi lozim. Nazoratni ikkinchi yo'nalishi bo'lgan mukammal nazoratni amalga oshirishda faqat tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan ma'lumoperatsiyalarni to'liq tahlil qilish uchun tanlab olish imkonini beruvchi mexanizm ishlab chiqish lozim. Bank xodimi o'zi kredit ishi bevosita yuritayotganligi sababli mijoz bilan doimiy ravishda munosabatda bo'ladi. Bu esa, yangi ma'lumotlarni imkoniyatini beradi, u mijozning kredit shartnomasi shartlariga rioya qilayotganligi va to'lov layoqatliliginini baholash uchun katta imkoniyatga ega bo'ladi. Ayni vaqtda nazorat jarayoni mijoz bilan bevosita aloqada bo'limgan shaxstomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Buning asosiy sababi shundaki, birinchidan, nazorat va tahlilni amalga oshirishda bank xodimi o'zining baholash xususidagi qarashlariga asoslanadi vaeng muhimi bu baho uning mijoz bilan o'zaro shaxsiy munosabatlarining subyektivta'siri ostida bo'lmasligi kerak. Bank xodimi mijoz bilan doimiy aloqada bo'lshi ular orasida shaxsiy munosabatlarni bo'lishiga qulay muhit yaratadi.

Ikkinchidan, nazorat jarayoni bank xodimini to'g'ri kredit qarori qabul qilish imkoniyatini beradi. Xolis tahlil ssudani berish to'g'risidagi qarorni qabul qilishda, bank xodimining holatini obyektivligini kafolatlash uchun zarurdir.

Alovida kreditlar ustidan nazoratni amalga oshirish bilan bir qatorda kredit portfeli sifatining ustidan umumiylar nazorat o'rnatish lozimdir. Agar bank kredit berish xuquqiga ega bo'lgan bir nechta sho'balarga ega bo'lsa, unda kreditlarto'g'risidagi barcha ma'lumotlarni yig'ib borish va ularni bosh ofisdan kredit boshqarmasiga takdim etish lozim. Umumlashtirilgan ma'lumotlar ushbu kredit boshqarmasi tomonidan tegishli boshqarmaga uzatiladi. Bosh ofisdagi kredit boshqarmasi olingan barcha ma'lumotlarni tahlil qilish va belgilangan limitlarga rioya qilinishini ta'minlashi shart, chunki kredit portfelini tahlil qilish umumiylar tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi. Agarda salbiy tendensiyalar va normativlarning buzilishi aniqlansa, u holda bu buzilishlar tezda tahlil qilishini va kerakli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Bunday chora-tadbirlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- shubhali ssudalar bo'yicha asosiy qarz summasi va foizlarni uzaytirilishi (prolongatsiya) o'rniiga ularni undirish yuzasidan talabnomalarini taqdim qilish;
- kredit limitlari buzilishi hollari mavjud bo'lgan keskin sohalarga, qo'shimcha kredit berishni keskin ta'qiqlashni joriy qilish;
- kredit limitlarining o'sishini qayta ko'rib chiqish imkoniyatini muhokama qilish
- kredit foiz stavkasini o'zgartirish.

Kredit portfelida yuzaga kelgan tawvakalchiliklarni tahlil qilish bilan birga berilgan kreditlar ustidan nazoratni amalga oshirish kredit portfelining foydalilik darajasini, ya'ni kredit operatsiyalarning samaradorligini kuzatib borish ham zarurdir.

Bank kredit portfelida vujudga kelgan risklarni boshqarish instrumentlarining kredit talabnomalarini va mijoz haqidagi axborotni sifatlari o'rganib chiqish kredit jarayonini tashkil etish uchun samarali axborot tizimini va nazoratini joriy etish, kreditlashtirish jarayonidagi subyektiv kamchiliklarni oldini olishga imkon yaratadi. Bank faoliyatining asosiy maqsadi kreditlarning hajmini emas, balki operatsiyalar daromadliligin oshirishdir.

Kreditlarni qoplash jarayonining qoniqarsiz tarzda olib borilishi, bank amalga oshirgan operatsiyalardan kutilgan pul tushumlarini ololmasligiga olib keladi. Respublikamiz tijorat banklarining kredit riskini boshqarishni takomillashtirishga

qaratilgan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlar hajmini ulardan jalb qilingan depozitlar hajmidan kam bo'lmasligiga erishish lozim. Jismoniy shaxslarni kreditlash hajmining oshirilishi mamlakatda ichki talabni rag'batlantiradi va xo'jalik subyektlarining realizatsiyasini jadallashtiradi. Shu bilan birga kreditlarning milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashdagi roli oshadi.

2. Shuningdek, qarzdorilikni boshqarishni asosiy muammosi bu bank kredit portfelini ichki auditor tomonidan tekshirilmasligi. Bizning fikrimizga ko'ra, bu nazoratni mustaqil ichki auditorlar bajarishi lozim. Nazorat bank kredit bo'limiga yoki qoidaga binoan har yilda bir marotaba bo'lishi kerak emas. Bunday auditorlar faqatgina bankning ichki nazorat boshqaruviga bo'yishishi kerak. Tekshiruv natijasi maxsus hisobotda ko'rsatilishi va u faqatgina bank boshqaruvi kengashiga taqdim etilishi kerak. Shuningdek, auditorlar kredit portfelini baholash bilan birga unga tegishli ko'rildigan chora tadbirlarni ham taqdim qilishlari lozim.

3. KAMI ni rivojlanadirish lozim, shu bilan birga xususiy kredit axboroti byuolarini tashkil etishni ta'minlash lozim. Chunki faoliyat yuritayotgan Kredit Axborot Milliy Instituti mijoz tarixi haqida to'liq axborot bera olmaydi, KAMIga banklarning o'zi axborot beradi, bu yetarli emas deb hisoblaymiz. Unda jismoniy shaxslarning kredit tarixi haqidagi ma'lumotlari deyarli yo'q. Mijoz tarixi haqida qanchalik ko'p axborot berilishi, kredit riskini kamaytirishga yordam beradi. Bu maqsadga erishish uchun xususiy kredit byuolarini ko'proq tashkil etilish, uarda sof raqobat muxiti yaratilishini ta'minlash lozim.

Kredit majburiyatlarini sug'urtalashni takomillashtirishlozim. O'zbekistonda bank va sug'urta tashkilotlari amaliyotida ta'minotni, mulkni sug'urtalash amalga oshirilmoqda, lekin kredit risklarini sug'urta qilish xali yo'lga qo'yilgai yo'q. Kredit risklarni sug'urta qilishni yo'lga qo'yilishini ta'minlash lozim.

4. Kreditning ta'minlanganligiga e'tibor berish, kreditning ta'minlanganligi uchun yuqori likvidlilikka ega bo'lgan vositalarni qabul qilish va ularning qiymatini to'g'ri baholash lozim. Bank bo'limida garovga olinadigan mulklarni to'g'ri baholay oladigan, ularning bozordagi narxlarini o'zgarishini, o'zgarish tendentsiyalarini baholay oladigan aloxida xodim bo'lishini ta'minlash zarur. Bunday xodimlarni tayyorlash uchun respublika markazidagi "Baholovchilar assosiatsiyasi" bilan birgalikda mol-mulk, oltin buyumlar va boshqa mulkni baholash bo'yicha o'qish tashkil kilish lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida ta'kidlab o'tilgan takliflarning amaliyotda qo'llanilishi, banklarning kredit portfelining sifatini oshiradi, kredit riskini boshqarishdagi yuzaga keladigan bir qancha muammolar oldini olishgaerishiladi deb o'ylaymiz. Bu esa, hozirgi sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlashga o'zining ijobjiy ta'sirini ko'rsatadi deb o'ylaymiz.

### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz".- Toshkent: 2016.-56b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2016yil 25-aprel.
3. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik.-T.: "IQTISOD- MOLIYA", 2018.
4. Abdullayeva Sh.Z., Karimov F.Sh., Navro'zova K.N., Ortikov U.D. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish. O'quv qo'llanma. 2-kitob T.: TMI, 2015 yil.

## KREDITLAR FOIZ STAVKALARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

*Muazzamov Akmal Akbar o'g'li*  
*Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi*

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.10073004>**

**Abstract:** In this thesis, information about the factors affecting loan interest rates is reflected.

**Keywords:** central bank, monetary policy, deposit and loans, settlement, currency exchange, financially stable, creditworthy customers, interest rate.

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda kreditlar foiz stavkalariga ta'sir etuvchi omillar borasida ma'lumotlar o'z aksini topadi.

**Kalit so'zlar:** Markaziy bank, Pul-kredit siyosati, Depozit va kreditlar, hisob-kitob, Valyutani ayirboshlash, moliyaviy barqaror, kreditga layoqatli mijozlar, foiz stavkasi.

### **INTRODUCTION**

Barcha tovarlarga bo'lgani kabi kredit uchun ham narx (narxning asosini tashkil qiluvchi foiz stavkalari) talab va taklif asosida vujudga keladi. Buni sxematik tarzda quyidagicha ko'rishimiz mumkin. Alovida kelishuvlar bo'yicha foiz stavkasi vujudga keladi.

Kredit bo'yicha foiz stavkalar pul bozorida kreditga bo'lgan talab va taklif asosida shakllanadi. Talab va taklifning darajasi kredit bahosining qimmat yoki arzon bo'lishiga asos bo'lishi mumkin. Kredit bahosining asosini u bo'yicha o'rnatilgan foiz stavka tashkil qiladi, lekin hamma vaqt ham kreditning foizi uning bahosini o'zida ifoda qilmaydi. Kreditning bahosi kredit bo'yicha foiz stavkasidan tashqari turli komission to'lovlar, ssuda hisob varaqlarini ochish, yuritish, kredit berish va to'lash bilan bog'liq boshqa to'lovlarini o'zida aks ettiradi. Ba'zi davlatlarda kreditning bahosi kreditning to'liq qiymati deb ham yuritiladi.

Tijorat banklari o'z foiz siyosati doirasida faoliyat olib borishi bilan birga ba'zi bir omillar bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini o'zgartirib turishni taqozo qilishi mumkin. Bu sohadagi tashqi omillarga:

1. Mamlakatdagi pul-kredit siyosatining holati ta'sir ko'rsatishi mumkin. Markaziy bank tomonidan foiz stavkalariga ta'sir o'tkazish orqali iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirilayotgan kreditlar hajmini ko'paytirishi yoki kamaytirishi, iqtisodiyot va pul muomalasining holatiga qarab kreditni arzonlashtirishi yoki qimmatlashtirishi mumkin. Foiz stavkalarini muvofiqlashtirish orqali Markaziy bank tijorat banklari bilan munosabatlarini kengaytiradi. Foiz stavkalarining kamayishi bank kreditlarining hajmini oshirishga zamin yaratadi, tijorat bankining Markaziy bankdagi zaxira mablag'larining hajmi ham ortadi. Foiz stavkasining oshirilishi bank kreditlari hajmining va tijorat bankning Markaziy bankdagi zaxira hisob varag'idagi mablag'larning kamayishiga olib keladi.

2. Kredit resurslari va xizmatlari bozoridagi raqobat ham kreditlar bo'yicha o'rnatiladigan foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatib, past foiz stavkalarda kredit berish orqali mijozlar sonini va ularga yo'naltiriladigan kreditlar hajmini oshirishga olib keladi.

3. Inflyatsiya baholar oshishi bilan xarakterlanadi va u, albatta, kreditlar bo'yicha foizlar o'zgarishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiya sur'atlaridan kelib chiqib berilagan kreditlar bo'yicha ularning infliyatsiyaga uchrash salmog'ini oldindan taxminiy hisob-kitob qilish va qadrsizlanishning oldini olish choralarini ko'rish lozim. Bu chora berilgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini o'zgartirishni taqozo etadi. Chunki tijorat banklari bergen kreditlaridan oladigan foizlar bozor stavkasi darajasidan kam bo'lmasligi, infliyatsiya sur'atlaridan kutilayotgan qiymat qadrsizlanishini qoplay oladigan, bank barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan darajada bo'lishi lozim.

4. Pul bozoridagi talab va taklif ham foiz stavkasining oshishi yoki kamayishiga olib kelishi mumkin. Foiz stavka oshganida kredit bo'yicha taklif ham oshadi, aksincha bo'lsa taklif kamayadi. Chunki foiz oshganda mijozlar kreditdan ko'ra o'zida mavjud resurslardan foydalanishga harakat qilishadi. Kreditga bo'lgan talabda aksincha holatni ko'rishimiz mumkin, ya'ni foiz stavkasi oshganda kreditga bo'lgan talab kamayadi, foiz stavkasi kamayganda kreditga talab oshadi. Erkin bozor munosabatlari sharoitida mazkur talab va taklif kreditning bozor qiymatini shakllantiradi. Agar kreditning bahosi bozor bahosidan yuqori bo'lsa pul mablag'lari bo'yicha taklif yuqoriligini, agar kredit bahosi bozor bahosidan kam bo'lsa bu pul mablag'larning yetishmovchilagini ko'rsatadi.

5. Valyutani ayrboshlash kursi xorijiy davlatlarda investitsiya va kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining yuqori bo'lgan hollarda milliy valyutadagi investitsiyalarning foiz stavkasini ham yuqori o'rnatish orqali milliy valyuta kursining tushib ketishining oldini olish mumkin. Shuningdek, bank risklari darajasi, kreditdan foya olish, mijozlarning turi, faoliyati xususiyatlari, barqarorligi, ularning joylashuv o'rni va boshqalar ham kredit munosabatlarini o'rnatish va kredit bahosini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Kreditning asosiy sharti – bu kredit uchun haq to'lash. Bu haq kreditga berilgan mablag'ga nisbatan foiz hisobida olinganidan, uni kreditning foiz stavkasi deb yuritiladi. Kreditning foiz stavkasi pul bozorida amal qiladi. Bozorga chiqarilgan pulning narxi foizda belgilanadi. Boshqa tovarlardan farqli o'laroq kreditning narxi - bu uning mijozning moliyaviy mablag'ga bo'lgan ehtiyojini qondirishdek xususiyatidan foydalanilganlik uchun beriladigan haq hisoblanadi. Kredit kapital sifatida odatdagi to'lov yoki xarid vositasida ishlataladi. Shuning uchun ham qarz oluvchi shaxs pul egasiga foiz stavkasini to'laydi.

Tijorat banklari kredit munosabatlarida foiz normasini hisoblaganda quyidagilarni e'tiborga olishi lozim: ta'minlangan ssudalar bo'yicha moliyaviy barqaror, kreditga layoqatli mijozlar uchun aniq muddatga beriladigan bazaviy foiz stavkasining darajasini; har bir kredit shartnoma shartlarini, mijoz faoliyatining xususiyatlari va boshqa jihatlarni inobatga olgan holda risk uchun qo'shimcha to'lovni.

G'arb mamlakatlarining pul-kredit munosabatlarida turli xil foiz stavkalari qo'llaniladi. 1-darajali foiz stavkasi Markaziy bankning qayta moliyalash foiz stavkasi hisoblanadi. Bu muhim ahamiyatga ega. Stavkaning Markaziy bank tomonidan pasaytirilishi bozorda kredit resurslari taklifining ko'payishiga va arzonlashishiga olib

keladi. Foiz stavkasini pasaytirishdan maqsad - investitsiya harakatini tezlashtirish, mamlakatning iqtisodiy o'sishiga turtki berishdan iborat. Qayta moliyalash foiz stavkasining oshishi kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining ham oshishiga, ya'ni kreditning qimmatlashuviga, shu bilan birga, iqtisodiyotda investitsiyalar hajmining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Demak, Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati inflyatsiya darajasi hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarini hisobga olgan holda, mamlakatning pul-kredit tizimining holatiga qarab olib borilishi kerak.

Tijorat banklarining foiz siyosati ikki asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi. Birinchisi, bu bank resurslarini yaratishda mablag'larni jalb qilish jarayonida olib boriladigan foiz siyosati, ikkinchisi, banklar tomonidan resurslarni joylashtirish sohasida olib boriladigan foiz siyosatidir.

Tijorat banklari foiz siyosatini o'zlari mustaqil ishlab chiqadilar va ular amalga oshiradigan operatsiyalariga foizlar o'rnatishda erkindirlar (ammo foizlar o'rnatish chegarasi Markaziy bank talablari doirasida bo'lishi lozim).

Qoidaga asosan kreditlar va depozitlar bo'yicha foizlar to'lash vaqtida emas, balki foyda ko'rish davrida hisoblanib, moliyaviy hisobotlarda davriylikka mos aks ettirilib borilishi lozim. Depozit va kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlarni ifodalash uchun har bir depozit turi va kredit bo'yicha alohida hisob varaqlari ochiladi.

Depozitlar va kreditlar bo'yicha foiz stavkalari, ularning summasi, ularni to'lash vaqtin, davri, to'lash shartlari va boshqalar mijoz bilan bank o'rtasida kelishib olinadi va tuziladigan shartnomada aks ettiriladi. Kreditlar bo'yicha foiz stavkalar kreditning muddati, qarz oluvchi tomonidan tavsiya qilingan garov holati va qiymati, uning likvidliligiga, kredit resurslari bahosiga, kredit riskning darajasiga qarab tijorat banki tomonidan mustaqil belgilanadi va u kredit shartnomasida aks ettiriladi. Kredit bo'yicha foizlar muddati kelganda, memorial order bilan rasmiylashtirilib, mijozning asosiy talab qilib olinguncha bo'lgan depozit varag'idan grafik bo'yicha undirib olinadi.

### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida (yangi tahriri)"gi Qonuni. 2019 yil 11 noyabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Xususiy bank va moliya institutlari hamda ular faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni. 2018 yil 17 dekabr.
3. Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik. - T.: "Moliya", 2020 yil.
4. Abdullaeva SH.Z. Xalkaro valyuta va kredit munosabatlari - T.: TMI, 2019 yil.

**FIZIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN  
FOYDALANISH**

*Kurazova Botako'z Tolibaevna*

*Qoraqolpog'iston Respublikasi, Nukus shahri I.Yusupov nomidagi  
ijod maktabi Fizika fani I-toifali o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10075678>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida fizika fanini o'qitishda innovatsion va interfaol usullardan foydalanish haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlari:** pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, davra suhbati texnologiyasi.

O'sib kelayotgan o'g'il-qizlarimizning har tomonlama barkamol avlod bo'lib, hayotga kirib kelishlarini ta'minlash jamiyat oldidagi eng ulug' maqsadlardandir. Bugungi tezkor davr o'quvchilardan mukammal bilim olishni talab etmoqda.

Bugungi kun fizika o'qituvchisi oldida turgan dolzarb muammolardan biri ta'limning zamonaviy texnologiyalarini loyihalash va uni o'qitish amaliyotida qo'llashdir. Fizika o'qituvchisi o'quvchilarga fizika fanidan zaruriy bilimlarni beribgina qolmay, ularda fanga nisbatan qiziqish uyg'ota olishlari kerakki, natijada bu sohada yaxshi mutaxassis, yetuk kadrlar yetishib chiqishiga erishilsin. O'qituvchi o'tgan har bir dars boshqa darsdan farq qilishi, bugungi o'tiladigan dars kechagisiga nisbatan mukammal bo'lishi kerak.

Darsni yangi pedagogik texnologiyalar

- axborot vositalaridan foydalanib;
- ko'rgazmali qurollari yordamida;
- interfaol metodlarni qo'llash orqali va h.k.lardan foydalanib tashkil etsak, bu dars o'quvchi ongiga yaxshi yetib boradi va xotirasidan joy oladi. O'quvchining ilmiy dunyoqarashi kengayib, bilim darajasi ortadi.

Fizika fan sifatida o'tilgan vaqtidan boshlab fanning ma'lumotlar bazasi ko'payib 384 katta hajmn ni tashkil etmoqda va u yuqori tezlikda yil sayin boyib boryapti. Shu sababdan fizikani o'tish jarayonida faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab olish va o'quvchining o'zlashtirish qobiliyatlariga mos holda ma'lumotlar hajmini miqdoriy o'lchamga keltirish zarur.

**Davra suhbati texnologiyasi**— aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

Davra suhbati metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan —ko'z aloqasini o'rnatib turishga yordam beradi. Davra suhbating og'zaki va yozma shakllari mavjuddir.

Yangi mavzu bayoni tugatilgach, mavzuni mustahkamlashda —davra suhbatil texnologiyasi qo'llaniladi. Texnologiya quyidagi bosqichlarda olib boriladi: 1.O'qituvchi o'quvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

2. Har bir o'quvchiga yangi mavzuga oid o'z savolini yozish uchun varaqalar tarqatiladi.  
3. O'quvchilarga savol yozish uchun vaqt belgilanadi.

4. Har bir o'quvchi yozgan savolini o'zining chap tomonidagi o'quvchiga uzatadi va unga yon tomonidagi o'quvchi bu savolga javob yozadi.

Masalan, 1 -o'quvchi: Nyutonning 1 -qonunini ta'riflang.

2-o'quvchi: Inersiya so'zining ma'nosi nima?

3-o'quvchi: Massa va tezlanish orasida qanday bog'lanish bor? va h.k. shunday savollar yon tomonidagi o'quvchiga uzatiladi.

Natijada o'quvchilarning faolligi oshadi va bir-birlarining savollariga javob izlashga shoshiladilar, javob topadilar va javobni og'zaki aytadilar. Javobning to'g'riligini savol tuzgan o'quvchi o'qituvchi ishtirokida baholaydi. Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda etadilar. Bundan tashqari metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda o'quvchilar o'zlari bergen savollariga guruhdoshlari tomonidan aytilgan javobga 385 baho beradilar va aniq savolga aniq javob berishga o'r ganadilar.

Dars yakunida o'qituvchi o'z fikr-mulohazalarini bildiradi. Ilg'or va faol o'quvchilar rag'batlantiriladi. Masalalar yechishdagi yutuq va kamchiliklar o'qituvchi tomonidan aytib o'tiladi. Bunday usul qo'llanilganda quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1. Qisqa vaqt davomida ko'proq materialni o'zlashtirish;
2. Bir xil masalani turli guruhlarda yechganda masalaning turli xil usuldagagi yechimini topish;
3. O'quvchilar guruh bo'lib ishlaganda o'zaro hamkorlik, bir-birining fikrini tinglash va xulosalar chiqarish, o'z fikrini o'rtoqlariga erkin ayta olishi va shu bilan birgalikda sog'lom raqobat yuzaga kelib har bir o'quvchi yuqori baho olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Q.To'rayev. "Olam yog'dusi yoxud qiziqarli fizika", A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent, 2009
2. M.Jo'rayev. "Fizikani o'qitish metodikasi", Toshkent. «Abu matbuot-konsalt», 2015

**INGLIZ TILI IDIOMALARINING O'ZBEK TILIDA TADQIQI**

***Parpiyev Obidjon Abdurazzoq o'g'li***

*Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumani 107-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
Ingliz tili fani o'qituvchisi*

***<https://doi.org/10.5281/zenodo.10205987>***

**Annotatsiya** – Maqolada ingliz badiiy adabiyotidagi idiomalrni o'zbek tiliga tarjimasidagi oziga xoslikni ya'ni birinchi navbatda, semantik, leksik va morfologik jihatdan maksimal darajada saqlash usullari yoritilgan. Shuningdek, idiomalarni tarjimasi mexanizmlari, tamoyillari, ma'no va tasvirni adekvat tarzda berish muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar** – grammatika, idioma, ot, tarjima, fe'l, morfologiya, so'z, qonuniyat.

Ma'lumki, morfologiya so'z grammatikasi borasidagi fan sohasi bo'lib, u o'z mazmuniga so'z strukturasi, so'z o'zgartirish qonuniylarini, grammatik kategoriyalar ifodalanishi tartiblari, so'z turkumlari hamda so'z yasash qonuniylarini o'z mazmuniga qamrab oladi [1]. Morfologiya va sintaksis til grammatikasini tashkil qiladi. Agar ingliz idiomalarini ta'kidlangan omillar asosida tahlil qiladigan bo'lsak, morfologiya va sintaksis jihatidan ham idiomalar va ular tarjimalarida o'xshashlikdan ko'ra, ma'lum farqlarning mavjudligi oydinlashadi. Ingliz idiomalari tarkibida o'z tuzilishida bosh ma'no anglatuvchi ob'yekt va uning morfologik tasnifiga ko'ra fe'l komponentli (to lie on smb's head – boshiga tushmoq; to pass over one's head –

boshidan o'tmoq; one's eyes fall upon – ko'zi tushmoq), ot komponentli idiomalarni (pumkin heads –

qovoq kalla; a bad /biting, bitter, cfustic, dangerous, venomous, wicked shrewed/tongue – tili o'tkir

/achchiq, zahar, shavqatsiz, dag'al; cold /hot/ blooded – sovuq /qiziq/ qon; a heart of stone /flint/) –

toshyrak, mehri qattiq kabilarni ajratish mumkin [2] .

Biz ko'rib chiqqan manbalarda fe'l komponentli idiomalar ko'pchilikni tashkil etadi. Fe'l komponentli idiomalar o'z tuzilishi jihatidan ish harakat va uning majoziy ma'nosi orqali ot bilan bog'lanishi asosida yuzaga keltiriladi. Masalan, to lie on smb's head iborasini oladigan bo'lsak, to lie –yotmoq ma'nosini anglatadi. Yotmoq so'zi bosh so'zi bilan birikishi natijasida "boshda yotmoq" tushunchasi kelib chiqadi. "Boshda yotmoq" tushunchasining ma'joziy obrazliligi kelib chiqadi.

Birovning boshida yotmoq birovning boshiga kelib tushgan narsalarni anglatadi. Uning asosida esa o'zbeklar leksikasiga xos bo'lgan "boshiga tushmoq" ma'nosini kelib chiqadi. Endi mazkur iboraning o'zbekcha variantlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, o'zbekchada ham "yotmoq" hamda "bosh" so'zlari mavjud. Agar ularni to'g'ridan-to'g'ri birlashtirsak, "boshda yotmoq" tushunchasi kelib chiqadi. Ammo o'zbeklar uchun bu tushuncha g'aliz tushunchadir. O'zbeklarda boshqa bir ibora – "boshiga tushmoq" mavjud va bu ibora ingliz iborasining mazmunini to'liq ifoda etadi. Faqat o'zgarish fe'l shaklida

yuzaga keladi. O'zbekchalishtirilgan fe'l boshqa mantiqan mos keluvchi fe'l bilan almashtiriladi. O'zbekcha variantda ham iboraning tuzilishi bir fe'l va bir otdan tashkil topadi.

Demak, fe'l komponentli iboralarda uning ikki asosiy qismi fe'l va otga monand o'zbek tilidagi qat'iylashgan fe'l va ot o'zaro birikib ketgan qat'iy tuzilishi qidiriladi. Masalan:

To use one's brains – miyani ishlatmoq

To make smb's heart bleed – yuragini qon qilmoq

To go in at one ear and out from other – bir qulog'idan kirib, ikkinchisidan chiqmoq

To eat one's head – birovning boshini yemoq, boshiga yetmoq

To have the heart (to do or say smth) - biror ish qilish yoki so'zlashga jur'at etmoq.

Fe'l komponentli idiomalarda fe'l mazmunan keng ma'nodorlikni namoyon etadi. Ot esa konversiya asosida tashkil bo'ladi, ya'ni o'zining shaklini o'zgartirmagan holda fe'l bilan birikadi, ko'pchilik hollarda konversiya ega uchun asos bo'lib xizmat qilgan fe'l asosida yuzaga keltiriladi (a laugh, a smoke, a look, a walk, etc.). Ya'ni bunday birikuv modellashgan tartib asosida tashkil qilinadi.

Bunday qurilmaning barcha a'zolari bir marotabalik biror sa'yi-harakatni amalga oshirishga, masalan, to make a laugh, to have a look, yoki mana shu sa'yi-harakatni takrorlash asosiga qurilgan bo'ladi, to take strolls. Fe'l komponentli iboralarda uning tuzilishi tizimlashgan bo'ladi. Mana shu tizim asosida yana ko'plab turli tuman boshqa iboralarni erkin shakllantirish imkoniyati ochiq qoldiriladi [3]. Ammo boshqa tarafdan, bunday struktura ichida keng ma'nodorlikka ega bo'lgan fe'lni o'zgartirish aslida ancha chegaralangan bo'ladi. Masalan, to take a run deyish mumkin, ammo uni to have/make a run ga aylantirish umuman mumkin emas. Demak, bunday iboralarda ma'lum tartib asosidagi turg'un struktura xosligi saqlanib qoladi.

Idiomalar tarjimasiga xos bo'lgan o'rirlardan biri bu idiomalar tarjimasida sintaksis talablarining qay darajada bajarilishi va qayta tiklanishi muammosidir. Chunki idiomalar tarkibida turg'un sintaksisli, ya'ni turg'un gap tarzida kelgan idiomalar ham uchrab turadi. Asliyat bilan tarjimada agar asliyat turg'un sintaksis bilan kelgan bo'lsa, ana shu sintaktik qurilishni qayta shakllantirish lozimdek ko'rindi. Ammo mazkur sintaksis qurilishi idioma ekanligi anglash idioma qurilishi va uni ifoda qilish bo'yicha avvallari ta'kidlangan o'rinni esga olishga yana bir bor majbur etadi. Chunki idioma tarjimasida bosh omil til shaklini emas, balki mana shu til vositasida anglashilgan bosh mazmundorlikni tarjima qilishni taqozo etadi.

Shu bois, tarjimon ikki yo'lni tutishi mumkin. Ya'ni, bir tomondan, tabiiy asliyatdagi sintaksis qurilmasini, ya'ni turg'un gap strukturasini qayta shakllantirishga sa'y-harakat qilish darkor. Ammo bu jarayonda idioma mazmuniga umuman putur yetmasligi lozim bo'ladi. Ya'ni gap qurilishi qayta shakllantirish jarayoni uning mazmuniga mutlaqo salbiy ta'sir o'tkazmasligi lozim. Ikkinci tomondan esa tarjimon tarjima qilish va idiomaning ekvivalentini topish jarayonida asosan uning mazmun qirrasiga o'z e'tiborini qaratishi va idiomaning mazmun jihatidan ekvivalentini yaratishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: - Sharq, 2010. 60-92-b.

2. Amosova N.N.Osnovы angliskoy frazeologи-LGU,2013
3. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка- Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. – 2-е изд., перераб. – М.: Высш. шк., Дубна: Изд. центр "Феникс", 1996 - 381 с
4. Longman dictionary of English Idioms –first edition.2019
5. Raxmatullayev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Universitet 2007
6. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik –Toshkent 2007

**MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНЬЕ**

1.	Ikromov Xabibullo Boqievich, Jo‘rayev Sodiqjon Muhammaddinovich <b>DINIY BAG’RIKENGLIK - TINCH-TOTUVLIK OMILI</b>	5
2.	Xushbakov Sho‘hratjon Baxtiyor o‘g‘li <b>IJTIMOYISH SOHASINING INSONLAR HAYOTIDAGI O‘RNI</b>	10
3.	Xakimova Nargiza Xasanovna, Sattorova Dilrabo Elmurod qizi <b>GOSPITAL TA’LIMDA SIFAT SO‘Z TURKUMLARINI O‘RGATISH METODIKASI ORQALI O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH</b>	13
4.	Raximov Jakhongir <b>STAGES OF DEVELOPMENT OF THE SCIENCE OF PSYCHOLOGY</b>	21
5.	Бедилов Одил Ташарович <b>ВЕДУЩИЕ МИРОВЫЕ ПРОИЗВОДИТЕЛИ АВИАЦИОННОЙ ТЕХНИКИ</b>	24
6.	Mayunusova Ma’mura Sultanbekovna <b>MATEMATIKA O’QITISH METODIKALARI VA ULARNI O’QUV JARAYONIGA TATBIQ ETILISHI</b>	34
7.	Xamroqulova Parizod Xurshid qizi <b>JONAJON O‘ZBEKİSTONIMIZ TA’LIM TİZİMİDAGI ISLOHOTLAR</b>	39
8.	Qurbanov Abdulmutallib Baxtiyor o‘g‘li <b>TUPROQ BAKTERIYALARINING TUZLI STRESS SHAROITLARGA BARDOSHINING TAHLILI</b>	43
9.	Isarov Umidulla Isar ugli <b>THE PROBLEM OF THE TERM “EARLY NOMADS”.</b>	48
10.	O‘QUVCHILARNI SAVODGA O‘RGATISH VA NUTQ O‘STIRISHDA PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI Valiyeva Gulchexra Kodirovna	53
11.	GOSPITAL TA’LIM O‘QUVCHILARIGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISH USULLARI Umarova Iroda Zafarovna	57
12.	THE INFLUENCE OF NOMADIC PASTORALISTS OF THE ANDRONOVO CULTURE ON THE SOCIAL MIGRATION PROCESSES OF THE BRONZE AGE IN CENTRAL ASIA. Isarov Umidulla Isar ugli	61
13.	INGLIZ TILI O’QITISH METODIKASI TERMINLARI VA ULARNING O‘ZBEK TILIDAGI FARQLAR, O‘XSHASHLIKlar Elmurodova Yulduz Elmurodovna	67
14.	YANGI O‘ZBEKİSTON TA’LIM TİZİMİDAGI ISLOHOTLAR Normurotova Gulshod Kulmurotovna	71
15.	РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ТЕМЫ ЭКЗИСТЕНЦИИ, ВЕРЫ, СЧАСТЬЯ И ЛЮБВИ В СОВРЕМЕННОЙ ПОЭЗИИ Нурмухаммадова Нилуфар Рамил кизи	75
16.	„PEDAGOGIK KONFLIKTOLOGIYA“ FANINING BO‘LAJAK PEDAGOGLAR FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI Dilyoraxon Turg‘unboyeva	82

17.	АМБИВАЛЕНТНОСТЬ РЕАЛЬНОСТЬ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ Г. Г МАРКЕСА "100 ЛЕТ ОДНОЧЕСТВА" Эркинова Нилуфар Эркин кизи	85
18.	BOSHLANG'ICH SINF DARSLARDA NOAN'ANAVIY METODLARNING SAMARADORLIGI Imomqulova Yoqutxon Erkin qizi	90
19.	ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В МИРОВОМ МАСШТАБЕ Сабирова Дилфуза Артыковна	93
20.	O'QUVCHILARNI NUTQINI OSHIRISH VA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI ZAMONAVIY TASHKIL QILISHNING METODIK USULLARI Xudayberdiyeva Busalha Umaraliyevna	96
21.	KIMYO FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARING O'RNI Abdurahimova Latofat Sadreddin qizi	103
22.	ADVANTAGES OF USING GREEN ENERGY Abduvaliyeva Nasiba Sherali kizi	107
23.	GOSPITAL TA'LIMNING BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH Ismailova Gulnora Karimdjanovna	110
24.	XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA TA'LIM TIZIMINI TASHKIL ETISH Husanova Malohat Yo'doshevna	114
25.	O'QUVCHILARDA IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH Orifboyeva Dilnoza Sattarovna	119
26.	YUMSHOQ BUG'DOYNI JAHON KOLLEKSIYA NAMUNALARINI O'SUV DAVRLARI Alloberganova Z.B, Sa'dullayeva G.U, Atajanova K.S, Qadamboyeba G.J	123
27.	YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING DOLZARB MUAMMOLARI Zoxidjon Rayimalievich Mirzaliev	125
28.	INGLIZ TILIDA HOZIRGI ZAMON MODAL FE'LLAR NAZARIYASI Parpiyev Obidjon Abdurazoq o'g'li	133
29.	GOSPITAL TA'LIMDA BIOLOGIYA FANINI O'QITISHNING NOAN'ANAVIY USULLARI Turakulova Nafisa Buranovna, Xudayberdiyev Ural Jurayevich	136
30.	MAKTAB O'QUVCHILAR SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASHDA JISMONIY TARBIYANING O'RNI Ergashev Dilmurod Abdughalilovich	144
31.	O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR Raxmonova Mohira Abdujalolovna	147
32.	GIPOTERIOZ BILAN OG'RIGAN ONALARDAN TUG'ILGAN AVLODNING ICHAK TUTQICH LIMFA TUGUNLARINI POSTNATAL RIVOJLANISHI Ergashev Suhrob Toxir o'g'li	151
33.	KREDIT RISKINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH Muazzamov Akmal Akbar o'g'li	155
34.	KREDITLAR FOIZ STAVKALARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR Muazzamov Akmal Akbar o'g'li	162

35.	FIZIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH Kurazova Botako'z Tolibaevna	165
36.	Parpiyev Obidjon Abdurazzoq o'g'li INGLIZ TILI IDIOMALARINING O'ZBEK TILIDA TADQIQI	167

*Note!!! The numbers in the articles included in the journal "Innovation Science and Research" indicate that the information is correct and that the authors are personally responsible for the content of the article.*

**International Scientific Journal  
Innovation Science and Research  
Volume 1 Issue 6**

LLC “Innovation Science and Research”

License №:083239 23.05.2023

Address: Uzbekistan, Tashkent city, Almazar District, Beshkurgan-3 1/84

Sciencejournal.uz, [https://t.me/sciencejournals\\_uz](https://t.me/sciencejournals_uz), +998336372242